

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI  
AL-XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qo‘lyozma huquqida  
UDK**

**XUDOYOROVA NODIRA OTANAZAROVNA**

**“Tohir va Zuhra» dostonining g‘oyaviy badiiy xususiyatlari**

**5A 120101-Adabiyotshunoslik (tillar va tadqiqot yo‘nalishlari bo‘yicha)**

**Magistr  
akademik darajasini olish uchun yozilgan  
dissertatsiya**

**Ilmiy rahbar:  
f.f.n.S.M.Sariyev**

## MUNDARIJA:

|                                                                                                  |           |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| <b>1.Kirish.....</b>                                                                             | <b>3</b>  |
| <b>I BOB.“Tohir va Zuhra” dostonining variantlari va nasrining o‘ziga xos xususiyatlari.....</b> | <b>6</b>  |
| 1.1.Dostonning variantlari.....                                                                  | 6         |
| 1.2. Doston nasrining o‘ziga xos xususiyatlari.....                                              | 14        |
| <b>II BOB Asardagi obrazlar tavsifi.....</b>                                                     | <b>34</b> |
| 2.1.Asardagi asosiy obrazlar tavsifi.....                                                        | 34        |
| 2.2. Dostondagi boshqa obrazlarga xarakteristika.....                                            | 55        |
| <b>III BOB Doston badiiyatining ayrim masalalari.....</b>                                        | <b>67</b> |
| 3.1.O‘xshatishlar.....                                                                           | 67        |
| 3.2.Mubolag‘alar.....                                                                            | 70        |
| Umumiy xulosalar.....                                                                            | 82        |
| Adabiyotlar ro‘yxati.....                                                                        | 84        |

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbek xalqi o'zining boy eposiga ega. Epos xalqning o'tmish tarixi bilan uzviy bog'langan bo'lib, ularda insoniyat tarixining badiiy solnomasi o'z ifodasini topgan. Shu sababli eposda uni yaratgan millatning ma'naviyati, urf-odat va an'analari mujassamlashgan bo'ladi.

Prezidentimiz I.A. Karimov: "Har qanday xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odatlari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat etadi"<sup>1</sup>, deb yozganida tamoman haqli bo'lib, uning ta'kidlagan omillari doirasiga epos-xalq dostonlari ham kiradi. Chunki epos eng ko'hna yodgorliklardan biri hisoblanadi.

Xorazm o'sha ko'hna yodgorliklarni o'z bag'rida eng ko'p asrab kelgan qadimiy o'lkalardan biridir. Romanik eposning maskani bo'lgan ushbu vohada "Tohir va Zuhra" dostoni alohida o'rin tutadi. Doston O'zbekistonning boshqa hududlarida ham tarqalgan bo'lishiga qaramay, uning mazkur vohada ommalashgan versiyasi o'zining alohidaligi bilan ajralib turadi. Bunday olib qaraganda o'zbek xalqi orasida bu doston bitta sujet asosida yaratilgan ikkita mustaqil asar sifatida ko'zga tashlanadi. Ularning tarqalish hududlari, ijrochilari, o'xshashligi va alohidaligi kabi xususiyatlarini ilmiy asosda yoritib berish ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqot obyekti va predmeti.** Tadqiqot obyektiga asos qilinib "Oshiqnoma" majmuasi 5-kitobida bosilgan "Tohir va Zuhra" dostoni matni olindi. Shuningdek qiyosiy tahlilga o'sha dostonning Toshkentda 2011-yilda chop etilgan Zohir Qo'chqor o'g'li varianti tanlandi. Mazkur asarni tahlil qilish ishning predmeti hisoblanadi.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** "Tohir va Zuhra" dostonining Xorazm versiyasi haqida to'laqonli va atroflicha o'rganish, uning o'ziga xos qirralarini ochib berish ishning maqsadini tashkil eiadi. Uni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar tanlab olindi:

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. –T.: "O'zbekiston", 2008. –B. 29-30.

- Dostonning variantlari, umumiy g'oyasi va obrazlariga tavsif berish;
  - O'zbek xalqi orasida tarqalgan ikki versiyaning asosiy tafovutlarini yoritish;
  - Dostonning badiiy til xususiyatlarini tadqiq qilish;
- Ishning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Mazkur dissertatsiya Urganch Davlat universiteti o'zbek adabiyoti kafedrasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar doirasida bajarildi.

### **Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.**

1. Dostonning variantlarini tahlil qilish va uning nasriga xos bo'lgan alohidalikni ochib berish asar variantlaridagi jiddiy farqlarni yoritishga yordam beradi.
2. Dostondagi obrazlar tahlili romanik dostonlarga xos tasvir usulining yana bir qirrasini yoritishga xizmat qiladi.
3. Asar badiiyatini tahlil etish qo'lyozma tarzida tarqalgan dostonlarga xos leksikaning badiiyatdagi rolini belgilashda yangi tadqiqotlarga yo'l ochadi.

### **Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili.**

“Tohir va Zuhra” dostoni turkiy xalqlar folklorshunosligida juda keng o'rganilgan. O'zbek folklorshunosligida bu dostonning asosan sharqiy hududda tarqalgan og'zaki variantlari xususida dastlabki fikrlar V.M. Jirmunskiy va H.T.Zarifovlarning ishlarida ko'zga tashlanadi<sup>2</sup>.

Keyinchalik, M.Saidov, T.Eshjonboeva, O. Madayev, H.Oqbo'tayev, M.Jo'rayev, F.Mamatqulova va boshqalarning ishlarida mazkur dostonning variantlari, poetik tuzilishi, obrazlari xususida ko'plab yangi fikrlar bildirildi<sup>3</sup>.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, “Tohir va Zuhra” dostoni og'zaki variantlar bilan birga yozma nusxalar orqali ham ommalashgan. Uning qo'lyozma nusxalari

<sup>2</sup> Jirmunskiy V.M. Zarifov X.T. Uzbekskiy narodniy geroicheskiy epos. –M. : GIXL, 1947. –S. 294-300.

<sup>3</sup> Nishonboeva T. «Tohir va Zuhra» dostonining variantlari haqida // O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 1958. –3-son. –B. 59-63; Yana o'sha. “Tohir va Zuhra” dostonining yangi topilgan varianti haqida // O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 1963. –2-son. –B.72-73; Yana o'sha. Poema Sayyadi “Tohir va Zuhra” (nauchno –kriticheskiy tekst): AKD. –Toshkent, 1965. Madayev O. “Tohir va Zuhra” dostonida tasvir vositalarining qo'llanilishiga doir // O'zbek filologiyasining aktual masalalari. ToshDU ilmiy asarlari. 532-son. Toshkent, 1972. –B. 104-107; Yana o'sha. “Tohir va Zuhra” hamda “Qo'zi Ko'rpeshe va Bayan suluv” dostonlarining struktural tahliliga doir // Ijodiy hamkorlik va adabiy taraqqiyot. –Toshkent, 1984. –B. 55-65. Oqbo'tayev H. Xalqkitobi “Tohir va Zuhra” haqida // Tanqid va adabiyotshunoslik masalalari. – Toshkent, 1973; Yana o'sha. Xalqkitobi “Tohir va Zuhra”ning poetik tuzilishi // O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 1973. –4-son. –B.65-66; Yana o'sha. Xalqkitobi “Tohir va Zuhra”ning variantlari // Toshkent davlat pedagogika instituti ilmiy asarlari. –Toshkent, 1980. Jo'raev M. Mullanafasning “Zuhra-Tohir” dostoni // O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 2010. –1son. –B.41-48; Yana o'sha. Epik tafakkur mahsuli // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. –Toshkent, 2010, 26 mart; Yana o'sha. Genezis i xudojestvennaya evolutsiya dastana “Zuxra i Taxir” // Mollanepes i jizn turkmen XIX veka. Materiali mejdunarodnoy nauchnoy konferentsii. 8-10 aprelya 2010 g. –Mari, 2010. –S. 294-295; Jo'raev M., Mamatqulova F. Xalq qalbidan joy olgan doston // “Tohir va Zuhra”. –T.: “muhammad”, 2011. –B. 3-25.

ko'proq Xorazm mintaqasida faol tarqalgan. Qo'lyozma nusxalar og'zaki variantlar bilan bitta sujet asosiga qurilgan bo'lishiga qaramay, ularning matniiy tafovutlari versiya darajasida farqlanadigan holatda namoyon bo'ladi.

Dostonning Xorazmda tarqalgan variantlari haqida S. Ro'zimboev, S.Qurbonovalarning ayrim ishlari mavjud bo'lib, ularda dostonning ijrochilari, variantlari xususida so'z yuritiladi<sup>4</sup>. Shuningdek, "Oshiqnoma" ruknida chop etilayotgan majmuaning 5-kitobida ham doston haqida qisqacha ma'lumot berilgan<sup>5</sup>.

**Tadqiqot metodlari.** Dissertatsiyaning metodologik asosini milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi, Prezidentimizning milliy g'oya, ma'naviyat va adabiyot masalalariga bag'ishlangan asarlari hamda shu sohada yaratilgan ishlari tashkil etadi.

Shuningdek ishda T.Mirzayev, S.Ro'zimboyev, M.Jo'rayev kabi folklorshunoslarning tadqiqotlariga ham tayanildi.

Ishda qiyosiy –tarixiy va tipologik metodlardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiyadagi tahlil va xulosalar o'zbek folklorshunosligi tarixini yaratishda, tanlanma fanlarni o'qitishda, akademik litsey va kolledjlarda xalq ijodiyoti predmetini o'qitish jarayonida foydalanilishi mumkin.

**Ishning sinovdan o'tishi.** Dissertatsiya ishi o'zbek adabiyoti kafedrası ilmiy seminarida muhokamadan o'tgan. Shuningdek, talabalarning an'anaviy ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza sifatida taqdim etilgan.

**Natijalarning e'lon qilinishi.** Dissertatsiya asosiy mazmuni uchta maqolada o'z ifodasini topgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi.**

Dissertatsiya kirish va xulosadan tashqari uchta bobdan tashkil topgan bo'lib, oxiriga adabiyotlar ro'yxati ilova etilgan. Umumiy hajmi 84 sahifadan iborat.

---

<sup>4</sup> Ro'zimboyev S. Xorazm dostonlarining spetsifikasi, tipologiyasi va poetikasi. (Dokt. diss.) -T.: 1990. –B. 70; Qurbonova S. "Tohir va Zuhra" dostonining o'zbek variantlari // Xorazm folklori. IV kitobi. –Urganch, 2002. –B. 82-84.

<sup>5</sup> Oshiqnoma, 5-kitob, Urganch, "Xorazm", 2011. –B.270.

## I BOB

### “TOHIR VA ZUHRA” DOSTONINING VARIANTLARI, G‘OYASI VA OBRAZLARI

**1.1.Dostonning variantlari.** “Tohir va Zuhra” dostoni muqaddas va musaffo sevgi qudratini madh etuvchi buyuk badiiy yodgorlikdir. Asardagi sevgi-sadoqat talqini ko‘p jihatlari bilan “Layli va Majnun” sujetini esga soladi.

V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifovlarning ta’kidlashlaricha, bu sujet o‘zbek folklorida ham ertak ham doston shaklida ommalashgan. O‘z navbatida yozma adabiyotda ham mashhurdir<sup>1</sup>.

Binobarin, mazkur sujet asosida XIV asrda ozarbayjon shoiri Assor, XVI asrda o‘zbek shoiri Sayyodiy, XIX asrda turkman shoiri Mullanafas o‘z asarlarini ijod qilib uning xalq orasiga yanada chuqurroq kirib ommalashishiga zamin yaratishgan. Shu tariqa bu doston og‘zaki va yozma nusxalar orqali xalq orasida asrlar davomida kuylanib, targ‘ib qilinib kelingan.

Xorazmda dostonning yozma nusxalari ko‘proq tarqalgan bo‘lib, ular ko‘proq xalfalar repertuarida uchraydi. Shuningdek, bu nusxalar qissaxonlar tomonidan ham targ‘ib qilingan. Dostonning Sayyodiyga tegishli matnini 1862- yilda Xorazmga kelgan A.Vamberi olib ketgan.

Dostonning shoir Sayyodiyga mansub varianti yozma adabiyotda mashhur bo‘lib, A.Vamberi tomonidan 1867- yilda Leyptsigda nemis tiliga tarjima qilinib, nashr etilgan. Xorazm vohasida dostonning Mullanafasga tegishli variantlari ko‘plab uchraydi. Bir paytlar Mullanafas varianti qo‘lyozma tarzida xalq orasida yoyilib, kotiblar tomonidan qayta ko‘chirish jarayonida turli variantlar yuzaga kelgan<sup>2</sup>. O‘sha variantlardan bittasi 2011- yilda bosilib chiqdi.

“Tohir va Zuhra” dostoning variantlari O‘zbekistonda bir xil mazmun asosida ikkita versiya shaklida ommalashgan. Respublikaning sharqiy mintaqasida uning turli variantlari yuzaga kelgan. Shulardan ayrimlarini qayd qilib o‘tamiz.

1. Zohir Qo‘chqor varianti. (Qashqadaryo viloyati. Dostonni 1983- yilda Sh.Orifiy yozib olgan.) Unda hikoya qilinishicha, Tatar mamlakatining podshosi

---

<sup>1</sup> Jirmunskiy V.M., Zarifov X.T. Uzbekskiy narodiy geroicheskiy epos. –M.: GIXL, 1947. –B.294.

<sup>2</sup> “Oshiqnoma” 5-kitob, Urganch, “Xorazm”, 2011. - B. – 270.

Qoraxon qiz ko‘rib, ismini Zuhra, vaziri Qambar esa o‘g‘il ko‘rib uning ismini Tohir qo‘yadi. Ular quda bo‘lishga ahdu-paymon qilishadi. Dushmanlar ig‘vosiga uchgan podsho Qambarni ov paytida o‘ldiradi va o‘z ahdidan qaytadi. Sevishganlar baxtiga zomin bo‘lib, Tohir va Zuhrani bir-biridan ajratadi. Ko‘p qiyinchiliklarni boshidan kechirgan Tohir va Zuhra tadbirkorlik, botirlik va donolik bilan qayta ko‘rishadilar. Tohir dushmanlarini engib, podsholik taxtiga o‘tiradi. Qirq kecha kunduz to‘y qilib Zuhrani nikohiga oladi va mamlakatda adolat o‘rnatadi.

2. Rahmonnazar Abdunazarov varianti. (Namangan viloyati. Dostonni I.Bekmurodov yozib olgan.)

Dostonning bu varianti qisqacha nasriy bayondan iborat. Dostonda Tohir va Zuhra o‘rtasidagi sevgi-muhabbat, ularning halok bo‘lishi bayon etilgan.

3. Xolbuvi Soat qizi varianti. (Buxoro viloyati. Dostonni 1961- yilda B.Mansurov yozib olgan.)

Ushbu variantda hikoya qilinishicha, Podsho va vazir tug‘ilgan farzandlari taqdiri haqida ahdlashadilar: Podsho qiziga Zuhra, vazir o‘g‘liga Tohir ismi qo‘yiladi. Vazir vafot etadi. Bolalar birga ulg‘ayadilar, do‘stliklari chin muhabbatga aylanadi. Podsho qizini Tohirga berishni istamaydi. Oraga uzoq ayriliq tushadi. Yovuz kuchlar Tohir va Zuhraning bu yorug‘ dunyoda birga bo‘lishlariga yo‘l qo‘ymaydilar.

4. Tojiboy Muhammadaliyev varianti. (Farg‘ona viloyati. Dostonni I.Bekmurodov yozib olgan.)

Doston qisqacha nasriy bayondan iborat.

5. Muhammad Norboboyev varianti. (Navoiy viloyati. Dostonni 1970- yilda T.Ochilov yozib olgan.)

Dostonda Tohir va Zuhraning bolalik davri, ular o‘rtasidagi do‘stlik, sof sevgi va muhabbat iztiroblari tasvirlanadi.

6.Tojiboy Muhammadaliyev varianti. (Farg‘ona viloyati. Dostonni I.Bekmurodov yozib olgan.)

Ushbu variantda hikoya qilinishicha, Farzandtalab podsho va vazir quda bo‘lishga ahd qilishadi. Podsho qizlik, vazir o‘g‘illik bo‘ladi. Vazirning bevaqt o‘limi tufayli podsho ahdidan qaytadi. Podsho Tohirni sandiqqa solib suvga oqizadi.

Tohir ko‘p sarguzashtlardan so‘ng, Zuhraning to‘yiga etib keladi. Qora kuchlar sevishtanlarning bu yorug‘ dunyoda birga bo‘lishlariga yo‘l qo‘ymaydilar. Tohir ham Zuhra ham fojiona halok bo‘ladilar.

7.S.Mamarizoyeva varianti. (Farg‘ona viloyati. Dostonni I.Bekmurodov yozib olgan.)

“Tohir va Zuhraning bu variantida xalq dostonlariga xos an‘anaviy motivlar o‘zgartirilib, sujet ertak janriga xos tasvirlangan.

8.Bibiniso Fayziyeva varianti. (Toshkent viloyati. Dostonni 1926- yilda M.Alaviya yozib olgan.)

Dostonda Tohir va Zuhra o‘rtasidagi sof muhabbat va uning sotsial tengsizlik hukm surgan jamiyatda poymol bo‘lishi hikoya qilinadi. Voqealar tizimida ertak janriga xos an‘anaviy tasvirlar etakchi planga olib chiqilgan.

9. Xonim xalfa Saidamat qizi varianti. (Xorazm viloyati. Dostonni 1930- yilda Hodi Zarif yozib olgan.)

10. Islom shoir Nazar o‘g‘li varianti. (Samarqand viloyati. Dostonni 1952- yilda shoirning qizi M.Islomova yozib olgan.)

11. Rahmatulla Yusuf o‘g‘li varianti. (Samarqand viloyati. Doston qo‘lyozmasini baxshining o‘zi yozgan. Bu variant 1974- yilda M.Saidov tomonidan nashrga tayyorlangan.)

12. M.Zohidova varianti. (Qashqadaryo viloyati. Dostonni Chori Hamro yozib olgan. Ushbu variant 1994-yilda O.Mo‘minov tomonidan “Nasaf” nashriyotida chop etilgan.)

13. Dostonning 1913- yilda chop etilgan toshbosma nashri.

14. Dostonning 2011-yilda “Muharrir” nashriyoti tomonidan chop etilgan varianti. Bu kitob Zohir Qo‘chqor variantiga asoslangan bo‘lib, M.Jo‘rayev va F.Mamatqulovlar tomonidan nashrga tayyorlangan.

Mazkur variantlarning barchasi O‘zR FA Til va adabiyot instituti folklor bo‘limi arxivida saqlanadi. Ularni qiyosiy o‘rganish, tahlil qilish folklorshunoslarimizning asosiy vazifalaridan biridir.

Bundan tashqari, yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, “Tohir va Zuhra” dostoni ertak shaklida ham keng ommalashgan bo‘lib, uning ayrim variantlari yozib olingan.

Asarning ertak varianti ayrim majmualarda chop etilgan.

«Tohir va Zuhra» dostonining ertak variantiga nazar solinsa, uning debocha qismida shoh va vazirning befarzandlik dog'ida alam chekayotganligi bayon etiladi. Ular bu taqdirga bardosh bera olmay o'z elidan chiqib ketishadi. Uzoq yo'l yurib, bitta musaffo boqqa duch kelishadilar. O'sha makonda ularga oq soqolli chol yo'liqib, ahvol so'raydi va ushbu kishilarning farzandlasizligidan voqif bo'lib, xurjunidan ikkita qizil olma chiqarib har biriga bittadan sovg'a qiladi va olmalarni o'z ayollari bilan bo'lib eyishni, kimning ayoli o'g'il tug'sa ismini Tohir, qiz tug'sa ismini Zuhra qo'yishni, balog'atga etganda ularni albatta birga turmush qurishini amalga oshirishni tayinlaydi. Shoh bilan vazir oqsoqol cholning aytilganlarini bajo keltirishadi. Oy, kunlar o'tib, shohning qizi, vazirning o'g'li dunyoga kelishadi<sup>3</sup>.

«Tohir va Zuhra»ning ertak varianti doston variantidagi asosiy mazmunni saqlagan. Odatda ertaklar optimizm bilan yakunlanish xususiyatiga ega. Biroq mazkur ertak finali dostonidagi an'anaviy final bilan mos keladi. Aslini olganda doston ertak sujeti asosida yuzaga kelgan bo'lishi kerak. Chunki, «...afsona, rivoyat, ertak dostoniga aylanishi mumkin, ammo doston yoki ertak afsona va rivoyatga aylana olmaydi»<sup>4</sup>. Shuningdek ertakning dostoniga aylanishi tez ko'chadi, biroq dostonning ertakka aylanishi asarning nasriy bayoni sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Ertaklarda mo'jizaviytug'ilishning asosiy mohiyati jasorat va mardlik, epchillik xususiyatlarini bo'rttirib ko'rsatishda asosiy vosita sifatida tanlanadi. Tohir obrazida ana shu xususiyat xira tortgan. Bizning o'ylashimizcha, bu «Tohir va Zuhra» sujetining dastlab doston shaklida yaratilganligidan bo'lsa kerak. Chunki, tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, mazkur guruhni tashkil etuvchi «Oshiq» turkumi asarlarida bosh qahramon qo'shiqchi, baxshi, jafokash oshiq sifatida namoyon bo'ladi. Xotin-qizlar obrazlarida esa sadoqatli ma'shuqa siymosi jamol ko'rsatadi»<sup>5</sup>.

Albatta mazkur sujetning ertak tarzida qayta ishlanishida ayrim o'zgarishlar

---

<sup>3</sup> Karavan chudes, T.: Izd. «Literaturi i iskusstva». -T.: 1981, 32-42-betlar.

<sup>4</sup> Sarimsoqov B. Epik janrlar diffuziyasi // O'zbek folklorining epik janrlari, T.: Fan, 1981, 101-bet.

<sup>5</sup> Ro'zimboyev S. Xorazm dostonlari, T.: Fan, 1985, 92-bet.

borligini inkor qilib bo'lmaydi. Masalan, bizning qo'limizdagi «Tohir va Zuhra» dostonining sujetida «Uch yo'l» motivi yo'q. Ertak variantida esa janrga xos bo'lgan bu uchlik motivi juda yaxshi berilgan va uning oqibati mantiqan isbotlangan. Masalan, karvonboshi bilan kelayotgan Tohir yo'l boshlovchining uch yo'l bandiga keldik, qay biriga ketamiz, deganida Tohir yo'llarga qo'yilgan shartlarga qaraydi:

1. O'ng tomonga-borsa kelmas;
2. Chap tomonga – oxiri yo'q;
3. To'g'riga – borsa xatarli.

Zuhraning visoliga shoshib turgan Tohir tezroq borish uchun xatarli bo'lsa-da, to'g'ridagi yo'lni tanlaydi. Epik qonuniyatga ko'ra ularni xavf-xatar kutib oladi. Tohir va karvonboshi qaroqchilarga duch kelib ,zindonga tushishadi. Shu erda bir narsani ta'kidlash kerakki, an'anaviy uch yo'l motivida hamisha: borsa kelar, borsa kelmas va borsa xatar kabi shartlar qo'yiladi. Bu erda esa uch yo'l motivi shartlariga ham bir muncha o'zgarishlar kiritilgan. Bu holat ertakning keyingi davrlarda vujudga kelib ,qayta ishlanganligidan darak beradi.

Shunday qilib, “Tohir va Zuhra” dostonining ko'plab og'zaki variantlari, yozma nusxalari, ertak tarzida ommalashgan qisqa sujetlari, yozma adabiyotda ishlangan she'riy va nasr bilan nazmning aralash holdagi ko'rinishlari mavjud bo'lib, uning xalq orasida tarqalishi nihoyatda keng doirani tashkil etadi.

“Tohir va Zuhra” dostonining Xorazmda ommalashgan varianti 2011-yilda chop etildi<sup>6</sup>.

Asar haqida berilgan sharhga ko'ra, doston Mullanasnikiga juda o'xshash, lekin she'riy parchalar undan ancha ko'p, shuningdek, boshqa –boshqa she'riy parchalar, nasriy matnlar ham variant berarlik darajada alohidaliklarga ega<sup>7</sup>.

Ushbu sharhdan ko'rinadiki, Xorazm mintaqasida Mullanasning asaridan tashqari yozma ravishda tarqalgan qo'lyozma, toshbosma nusxalar juda ko'p bo'lgan. Albatta Xorazm baxshilari va xalfalari repertuarida asarning og'zaki variantlari ham kuylangan.

---

<sup>6</sup> Oshiqnoma. 5-kitob, “Xorazm”, 2011. –B. 3-141.

<sup>7</sup> O'sha kitob, 270-bet.

“Oshiqnoma” majmuasining 4-kitobida ma’lumot berilishicha, shabbozlik (Hozirgi Beruniy tumani) Ahmad baxshi, Xivalik, Xonim xalfa, Anash xalfa, Nazira xalfa, shovotlik Niyozjon xalfa, xonqalik Roziya xalfa kabi ijodkorlar repertuaridan “Tohir va Zuhra” dostoni mustahkam o‘rin egallagan<sup>8</sup>. Ahmad baxshi uni og‘zaki ijro etgan. Keksalarning guvohlik berishicha, Xonim xalfa ham dostonni og‘zaki tarzda kuylab yurgan.

Boshqa xalfalar esa uni qo‘lyozma va toshbosma nusxalar vositasida qiroat bilan o‘qib eshittirganlar.

Keyingi davrlarda doston faqatgina xalfalar repertuarida saqlanib qolgan. “Oshiqnoma”ning 5-kitobidagi matn ham Niyozjon xalfa bisotidan olingan yozma nusxa asosida nashrga tayyorlangan. Shu sababli doston matni ancha ko‘lamdor va til xususiyatlari jihatidan alohida ajralib turadi.

Dostonda sof va muqaddas sevgi, imon va diyonat, axloq va odob, vafo va sadoqat, mehr va muhabbat kabi ezgu fazilatlar ulug‘lanib, razolat va jaholat, beburdlik va bevafolik, adolatsizlik va insofsizlik, shafqatsizlik va ikkiyuzlamachilik kabi yovuzliklar qattiq qoralanadi.

Dostonga asos bo‘lgan voqealar uzoq o‘tmishning sadosi sifatida asrlar bo‘yi kuylanib kelgan.

Asar boshlanmasidagi befarzandlik motivining o‘ziyoq doston voqealarining qadimiy ildizlarga ega ekanini isbotlaydi.

Bunday olib qaraganda asardagi muqaddima ko‘plab turkiy xalqlar folklorida mushtarak zagin (boshlanma) sifatida qo‘llaniladi.

Podsho bilan vazirning befarzand bo‘lib, xudodan farzand tilashlari, ularning tug‘ilajak farzandlari to‘g‘risida orzu qilib, o‘zaro quda bo‘lishga ahd qilishlari, nihoyat farzandlarning dunyoga kelishlari bilan bog‘liq voqealar boshqa ko‘plab doston va ertaklar boshlanmasida ham uchraydi.

Xalq ijodiyotida mo‘jizaviy ravishda tug‘ilgan farzandlar mo‘jizaviy ishlarni amalga oshirishadi.

Tohir bilan Zuhra shoir variantida olma mevasi vositasida dunyoga kelishadi. Asarning ertak variantida ham shu lavha ko‘zga tashlanadi. Xorazmda

---

<sup>8</sup> Oshiqnoma, 4-kitob, Urganch, “Xorazm”, 2009. 339-353-betlar.

tarqalgan variantlarda, xususan, “Oshiqnoma” majmuasining 5-kitobida bosilgan variantda bu lavha berilmaydi. Biroq, farzandlar xudodan tilab olinadi. Bu tamoyil ham mo’jizaviy tug’ilishning boshqa bir ko‘rinishidir. Shu sababli dostonning barcha tafsilotlarida mo’jizaviyasvirlar tez-tez tilga olinadi. Hatto asar bosh qahramonlari o‘lib ham tirilishadi. Ayniqsa ular o‘rtasidagi muhabbat o‘zining mo’jizaviyqudrati bilan alohida bo‘rtib turadi.

“Tohir va Zuhra” dostonining baxshi ijrosida tinglagan yoki bu asarning nashr etilgan namunasini o‘qigan har bir kishi bir-biriga yetisha olmagan oshiq-ma’shuqalar mozoridan o‘tib chiqqan oq va qizil gullarga qarab muhabbatning boqiyiligiga imon keltiradi. Bu asarni muhabbat va sadoqatning boqiyiligiga qo‘yilgan haykalga qiyos qilsa bo‘ladi. Uning ko‘nglimizga benihoya yaqinligi va barhayot milliy qadriyatga aylanganligining boisi ham ana shunda”<sup>9</sup>.

Darhaqiqat, dostonda ikki yoshning ilohiy sevgisi madh etiladi. Asarning asosiy g‘oyasi muqaddas sevgining har bir narsadan ustun chiqishidir. Albatta Tohir va Zuhra sevgi-muhabbatlari zamonaning shafqatsiz qonuniyatlari bilan oyoqosti qilib toptaladi. Hatto fojeali ravishda barbod etiladi. Biroq xalq azaldan optimistdir. Xalq fantaziyasi bu fojeani homiylar yordamida bartaraf etadi. Mifik homiy Xizr yordamida xalq sevgan oshiq-ma’shuqlar tirilib murod maqsadiga erishadilar. Dostonning Xorazm versiyasi hisoblangan Niyozjon xalfa varianti ilgari ta’kidlaganimizdek, “Oshiqnoma” majmuasining 5-kitobida chop etilgan.

Biz ushbu tatqiqotimizda o‘sha variantga asoslanib ish yuritamiz.

Doston ko‘lami jihatidan Xorazm dostonlari orasida alohida o‘rin egallaydi. Unda ishtirok etuvchi personajlar soni yigirmadan oshadi.

**1.2. Doston nasrining o‘ziga xos xususiyatlari.** “Tohir va Zuhra” dostoni Xorazmda tarqalgan boshqa dostonlardan muayyan darajada farqlanadi. Birinchidan, uning hajmi boshqa dostonlardan ikki-uch baravar ko‘p. Ikkinchidan, uning nasriy qismi keng va mukammal ishlangan. Uchinchidan, asarning nasriy qismining til xususiyatlari ham o‘ziga xoslik kasb etadi. Unda tasvirning yozma adabiyotga xos maktub, monolog shakllaridan mahorat bilan foydalanilgan.

---

<sup>9</sup> Jo‘rayev M., Mamatqulova F. Xalqqalbidan joy olgan doston // “Tohir va Zuhra”. –T.: “Muharrir”, 2011. –B.4.

Bu doston Xorazm vohasida qo‘lyozma nusxalarda tarqalganligi sababli uning tilida forsiy, arabiy leksika ancha faol ishlatilgan. Biroq, uning badiiy tili unchalik murakkab emas.

Dostonning og‘zaki variantlari ham ijroda bo‘lgan. Shulardan biri Xonim xalfa varianti bo‘lib uni 1930-yilda Hodi Zarif yozib olgan<sup>1</sup>. O‘zbek folklorshunosligida doston janri, ularning badiiy-estetik qimmati, an‘anaviy obrazlari, kompozitsion tuzilishi, ijrochilari, tili, tasviriy vositalari xususida ko‘plab ishlar amalga oshirilgan. Shu jumladan, Xorazm dostonlari, ularning yozma va og‘zaki variantlari haqida ham anchagina tadqiqotlar yuzaga keldi<sup>2</sup>.

Biz ana shu ishlarga tayangan holda “Tohir va Zuhra” dostonining badiiyati xususida ayrim mulohazalarni bildirmoqchimiz.

Doston nasri qo‘lyozma tarzida tarqalgan epik asarlar tiliga mos keladi. Shunday bo‘lsa-da, uning tarkibida og‘zaki variantlarga xos saj’ usulidan ham samarali foydalanilgan. Tohirning Mohim bilan xayrlashuv epizodida sevishtanlarning qalb ehtirolari saj’ usulida juda ta’sirchan ravishda berilgan:

“Ul ne qilarin bilmay hayron sarosima bo‘lib, Zuhra tomonga bir, Mohim tomonga bir boqib, yuragiga o‘t tushib, bag‘ri biryon, diydasi giryon bo‘lib, es-hushini yo‘qotdi. Mohimjon ham bag‘rida tosh, ko‘zida yosh, yuragida armon bilan: “Dardimga darmon erding, endi ne qilib sensiz hayot kechirarman, deb yig‘lar erdi. Shunda Tohirning ko‘zi Mohimga tushib, unga tasalli berib bir so‘z dedi”. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 75-bet).

Ushbu sahnada ikki oshiq-ma’shuqning sevgi iztiroblari navbatdagi saj’ tizimida yanada kuchliroq tasvirga ega bo‘lgan.

“Mohim so‘zini tamom etdi va Tohirga ruxsat berdi. Tohir yo‘lga ravona bo‘lib, yuzini o‘g‘irgandi Mohimning tanasiga bir titratma tushdi. Ul oynaning aksiday to‘rt tarafga boqar, betoqat bo‘lib, yuzini yulib, zulflarini parishon etib,

---

<sup>1</sup> Tohir va Zuhra. –T.: “Muharrir”, 2011. –B.7.

<sup>2</sup> Jirmunskiy V.M., Zarifov X.T. Uzbekskiy narodniy geroicheskiy epos. –M.: GIXL, 1947; Mirzayev T. Epos i skazitel. –T.: Fan, 2008; Saidov M. O‘zbek xalqdostonchiligida badiiy mahorat. –T.: Fan, 1969; Yormatov I.T. O‘zbek xalqqahramonlik eposi badiiyati. –T.: Fan, 1974; Sarimsoqov B.I. Badiiylik asoslari va mezonlari. –T.: 2004; Eshonqul J. Epik tafakkur tadriji. –T.: Fan, 2006; Mirzaeva S. O‘zbek xalqromanik dostonlari poetikasi. –T.: Fan, 2004; Ro‘zimboyev S. Xorazmdostonlari. –T.: Fan, 1985; Yana o‘sha. “Oshiq” turkumi dostonlarining royaviy-badiiy xususiyatlari. –T.: TDPN nashriyoti, 1987; sobirova N. Xorazm “Oshiq” turkumi dostonlari. –T.: “Minhoj”, 2005 va boshqalar.

sochini yoyib, rangi za'faron bo'lib, yoqasini chok etib, hijron o'tida kuyib, holi zabun, ko'ngli vayron bo'lib behush yiqildi. Shul vaqtda Tohir iziga qarasa Mohim tuproqqa bulg'anib yotibdi.” ”. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 80-bet).

Tohirning go'zal yigit ekanligini tasvirlashda ham saj' usuliga murojaat etiladi. Tohir Zuhra huzuriga shoshib borar ekan, yo'lda qaroqchilarga duch keladi. Hatto qaltamon qaroqchilar ham bu go'zal yigitni ko'rib, unga havaslari keladi. Ular o'z savollarini saj' usulida bayon etadilar. Bu esa Tohir qiyofasining juda ham go'zalligini yorqin ta'riflashga imkon yaratadi:

“Ey yigit, qaydan kelib, qayga borasan, qaysi eldan bo'lursan, qaysi bog'ning guli, qaysi chamanning bulbulisan, shohmisan, shahzodamisan, yo oshiqi zormisan, xabar ber, dedilar. Anda Tohir: -Men oshiqi zordurman, bizning elda so'zni soz bilan ayturlar, deb yonib-kuyib bir afsona aytdi”:

(“Oshiqnoma”, 5-kitob, 88-bet). Doston nasrida obrazlar portretini chizish mahorati ayniqsa yorqin ko'rinadi. Dostonda asosan shahzoda va malikalar, kanizlar obrazi tasvirlanganliklari sababli ularning go'zal qiyofalari, chiroyli liboslari, oltin va kumushdan ishlangan bezak –taqinchoqlari obraz portretini berganda to'laligicha ta'rif etiladi. Ayniqsa Zuhra portretini chizishda ijodkor mahorati yaqqol ko'zga tashlanadi:

Shundan keyin oradan to'qqiz oy, to'qqiz kun, to'qqiz soat, to'qqiz daqiqa o'tgandan keyin podshoning bir qizi bo'ldi. Bu chaqaloqning og'zi g'uncha, lablari la'l, ko'zlari mastona, qalam qoshli, inju tishli, qora sochli, yuzi jannatning guliday, ovozi Bog'i Eram bulbuli yanglig', husni oyday, g'unchai oftobday, o'n to'rt kechalik oyday shu'lasi osmonni yoritar, ko'rgan kishida bir mehr paydo qilar erdi. Shu vaqtda bir kaniz podshog'a borib suyunchiladi va: -Ey podshohi olam! Davlat chirog'ing yondi: Shohijahondan bir oftob dunyog'a keldi,” deb suyunchiladi.

Podsho bu so'zni eshitib, xazinasidan kanizga suyunchi uchun ko'p in'omlar berib, uzatdi va shaharning ichida to'y-tomosha boshlab yubordi. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 5-bet).

Zuhraning kamolga etayotgan paytidagi portreti esa yanada go'zal qilib tasvirlanadi. “Zuhra qiz kanizlari birlan olam-jahonni nurga to'ldirib kelaverdi. U

qo‘lidagi qizil olmani hidlab, qizil tilladan jildlangan haftiyakni ko‘tarib kelar erdi. Zarrin kamar, egnida kiyim-liboslar yarashgan, o‘n barmog‘ida o‘n tillo uzuk, har uzugi bir qimmat durdin yasalg‘an. Qo‘llari xinoli, yuzi gulob suvli, xollari o‘smali, ko‘zlari surmali, quloqlari isirg‘ali, boshinda qizil yoqutdan o‘tog‘a, qar-qara suratinda bitilgan duru-javohiri guldek ochilib, bu yolg‘onchi dunyoni guliston etib kelaverdi. Bunga nazari tushgan Tohir yonib-kuyib bir bayot o‘qidi”, (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 8-bet).

“Tohir va Zuhra” ilgari ta’kidlaganimizdek, malika va shahzodalar obrazini tasvirlovchi dostonidir. Shu boisdan unda yigitlar qiyofasi ham juda mubolag‘ali tarzda ta’riflanadi. Tohir ham aslini olganda aslzodalar sulolasidan. Uning otasi Tohir vazir bir vaqtlar Boboxon podshoning o‘ng qo‘li bo‘lib xizmat qilgan. Shu sababli dostonda Tohir qiyofasi ham badiiy-estetik jihatdan ko‘tarinki darajada ta’rif etiladi:

Alqissa, Zuhrajon so‘zini tamom etdi. Vohid:-Ey Zuhrajon, men Tohirni qaysi nishonalaridan tanib olarman? –deb so‘radi. Unda Zuhra: - Har shaharda va qalag‘a borsang, ohu- fig‘on bilan nola qilib “Ishqning elinda mening kabi kuygan bormu?” – deb zoru- giryon qilsang, saning ohu- nolangni eshitsa, Tohirjon bir lahza ham sabr etib turib bilmas. O‘zi o‘rta bo‘yli, qalam qoshli, zarafshon kokilli, ishq o‘tig‘a kuygan zebo yigitdir, (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 63-bet).

Doston nasrida obrazlarning ichki kechinmalari chuqur aks etgan monologlar ko‘p uchraydi. Odatda og‘zaki variantda tarqalgan dostonlarda obrazlar monologi kam bo‘ladi. Ushbu asar yozma nusxalarda tarqalganligi sababli unda monologlar ancha ko‘lamdor va ta’sirchan ifodalar orqali berilgan.

Dostonda asosan sevgi-muhabbat bilmi aloqador voqealar bayon etilganligidan undagi monologlar ham asosan ishq iztiroblarini o‘zida aks ettiradi. Bunga Zuhra, Mohimjon va Tohir monoglari misol bo‘la oladi. Tohir sandiqqa solinib daryoga oqizilganidan keyin Zuhra behad azob-uqubat, dard va g‘am girdobida qoladi. O‘sha paytda u qalb iztiroblarini monolog orqali o‘z tilidan bayon etadi.

Zuhraning yig‘lamoqdan o‘zga ishi bo‘lmadi. U Tohirjonni yod etib, majnuni devona bo‘lib, ohu-faryod etib yurar erdi. “Ey Tohirjon, sen yo o‘zga bir

yerga muhtalo bo'lding, yo bir balog'a duch bo'lding, meni yod etmading, ko'nglimni obod etmading.

Men zoru giryoning bo'lib keldim. Ishqingda devona bo'ldim. Balki sen birorta huru-parilar bilan davron surib, bog'u-bog'chasida sayron etib yurgandirsan.

Men sensiz ojiz qolib, yuzlarim za'faronday sarg'ayib, o'lar holg'a yetishdim. Sening bilan surgan davru-davronim, baxtli onlarim endi armon bo'ldi. Saltanatlar, toju-davlat barbod bo'ldi, shakarlar zahar, do'stlar ag'yor bo'ldi. Ko'zlarim yo'lingda intizor bo'ldi... Yorindan ayrilg'an bir benavo, gulistonidan ayrilg'an bir bodi-saboman. Sensiz bu ko'shklar, bu bog'lar, saroylar ko'zimg'a do'zaxdan ham yomon ko'rinar. Sening visolinga yetmak, diydoringa to'ymoq bormikan?"-deb, Zuhra qiz zor-zor yig'lab, bir g'azal aytdi: ("Oshiqnoma", 5-kitob, 57-bet).

Qalbidagi sevgi-muhabbat tuyg'ularini monolog orqali bayon qilish qahramon "men"i orqali hikoya qilinganligi sababli obrazning barcha ichki iztiroblarini yorqin ifodalash imkoniyati yuzaga keladi. Natijada ushbu tasvirning badiiy-estetik ta'sirchanligi yuksak darajaga ko'tariladi. Bu holatni Mohim monologida ham ko'rish mumkin.

"Bir kuni Mohimjon o'ziga zeb-ziynatlar berib, tovusday jilolanib Tohirning yoniga kelib: -Ey sevgilim, tanimdagi jonim, boshimning toji, ko'rar ko'zimning ravshani! Mana sen kelgandan buyon necha yil bo'libdiki, sabr qilib, hajringda yonib jafo chekib keldim. Endi mening sabr kosam to'lib, toqat qolmadi. Menga rahm etib bir nazar solsang,-dedi. Ammo Tohirjon bu so'zga ham javob bermadi. Kanizlar ham javob kutdilar, ammo javob ola bilmadilar". ("Oshiqnoma", 5-kitob, 44-bet).

Dil tubida yotgan dardu-alamlarni monolog orqali bayon qilish Tohir tilidan ham beriladi. U ham bu kajraftor dunyodan nolib, o'zining g'amli ko'nglini yozmoqchi bo'ladi.

Alqissa, Tohir so'zini tamom qildi. Momo ketib qoldi. Tohir vahmga berilib:-"Ey xudo, meni barchadan ojiz yaratding, hamisha hayotimni bor-yo'qqa muhtoj etding, bu erda yoshiga bir, keksasiga bir yolborib kun kechirurman, azal

kundan boshimga ishq savdosini solding. Zuhraning ishqida tanimda jonim, nomusu-orim qolmadi. Otam-onam, qavmu qarindoshim ham yo‘q. Kecha-kunduz g‘amga mubtalo, dard-alamga giriftorman, agar qasding jonimda bo‘lsa, hozirning o‘zida ol, yo bo‘lmasa ishq dardiga davo ber, bu yo‘lda ko‘p kezdim, agar murodimga yetmay o‘lsam, ko‘zim ochiq ketar, deb zor-zor yig‘lab, xudoga munojot aylab bir g‘azal aytdi”: (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 110-bet).

Tohir tilidan yonib-kuyib aytilgan bu dil izhor istagan bir tinglovchi yoki kitobxonni hayajonga solmasdan qo‘ymaydi. Obraz tilidan aytilgan monologning ta’sirchanligi ham o‘sha erda.

Dostonda Tohirning onasi Shohixo‘bon monologi ayniqsa dardnok qalbning ma’yus nidosi sifatida istagan bir ko‘ngilni titratib yuboradi:

“Zuhra qiz so‘zini tamom etdi. Bu voqeani Shohixo‘bon eshitib: -Ey barxudoyo! Poki parvardigoro? Bu nechuk sir bo‘ldi, bu nekuch xabar bo‘ldi... – deb? Sandiqning yoniga keldi va ko‘zidan qatra-qatra yoshin to‘kib,: -Yana ham bir oz vaqt sabr qiling. Ey haloyiq! Bu ikkovlari mening jonim-jahonim, ruhi-ravonim, imonim, jonimning rohati dardimning darmonidir. Bulardan judo bo‘lib, yurganimdin yurmaganim yaxshiroqdir. Ey haloyiq! Mening haqimg‘a bir duo o‘qing, men haqning oldida jon taslim etib, omonatimni topshirayin, bu mening maqsadimdur: hech bir ona mening kabi zoru-giryon, bag‘ri biryon, aqli hayron bo‘lmasin... Bular mening boshimning toji, umrimning ravshani. Men borib podshog‘a arz etayin yurakda armonim qolmasin!-deb, podshoning yoniga bordi va : “-Ey podshohim, g‘arib-bechoralarning g‘amxo‘ri, suyangan-tayangani sensan!-deb bir so‘z aytdi”. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 21-bet).

Onazorning ushbu iltijolari uning o‘z tilidan monolog shaklida berilishi badiiy nutqning yuksak ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Dostonda bunday monologlar ko‘plab uchraydi. Ularning har biri obraz qiyofasini to‘la qonli gavdalanitirishda muhim badiiy-estetik qimmatga ega bo‘lib, doston ijrochisi mahoratining yuksakligini belgilaydi. “Tohir va Zuhra” dostonida obrazlarning ichki kechinmalarini bayon qilishda mumtoz adabiyotdagi maktub shaklidan ham mahorat bilan foydalanilgan. Bunga Zuhraning Tohirga jo‘natgan maktubi misol bo‘la oladi. Unda Zuhraning shikasta qalbidagi barcha dard-alamlar

aks sado beradi.

“Avvalo bismillohi rahmonir rahim va so‘ngra Muhammad Mustafo alayhissalomg‘a sano va durud. Men ishq o‘tig‘a kuygan Zuhra g‘arib tarafidan oliyjanob Tohirjonimg‘a, poki domonimg‘a, hasratli sarvixiromonimg‘a, muhabbat mohitobonimg‘a! Arzim shuldur: xudoyim siz janobi oliyni hamma baloi badtarlardan omon saqlab, bir-birimizga adabiy qovushmoqni muyassar etgay. Siz, men ojizi notavonni hasrat dog‘ida va hijron zulmining dog‘ida tashlab ketdingiz. Siz ketgandan beri har kunim yildek bo‘lib, ohu zorimdan Boboxon omonga keldi va qizim balog‘at yoshiga yetibdur, degan o‘yga kelib meni qo‘shin boshi Qorabotirga nikohlab bermoqchi bo‘ldi. Men ham bu so‘zni eshitib, o‘zimga uch marta xanjar urmoqni niyat qildim. Ammo kanizlarim bilib qolib, meni bu ishning qilishimga yo‘l bermadilar.

Bir kuni Qorabotir mening bog‘imda pinhon kelib, uchrashmoqchi bo‘ldi. Men uni kaltaklab, haydab yubordim. Lekin ul hozirda ham mening ko‘nglimni ovlash maqsadida kelib turadi. Lekin men gohida hiyla bilan, gohida qahr-g‘azab bilan uni bog‘dan chiqarib yuboraman. Mening xavfim podsho bilan uning fikri bir kuni bir joydan chiqib, mening holim zabun bo‘lmasmikan, degan o‘ydir. Shuning uchun ushbu xatni olgan zahoti yo mendan kechganligingni bildir yoki kelib menga egalik qil. Kishi oshiqlikda jabr-sitam chekar. Bir marta shoh g‘azabiga duch bo‘ldim deb, endi kamolga yetgan gulzorni egasiz qoldirmoq gunohdir. So‘zim tamom, xudoy ta’lo omonlik bersin”.

Tohir xatni o‘qib, behush bo‘lib yiqildi. So‘ngra hushiga kelib:-Zuhrani ko‘rgan ko‘zlaringdan aylanayin, deb Vohidning oyog‘iga bosh qo‘ydi. Tohirning yuragiga o‘t tushib, o‘tirgan-turganini bilmas, go‘yo oynaga tushgan quyoshning yolqiniday har yoqqa chayqalar erdi. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 69-bet).

Maktubni o‘qigandan keyin Tohirning behush yiqilishi xatning naqadar ta’sirchan ekanligining guvohidir. Doston nasrida tabiat tasviriga ham e’tibor qaratilgan. Voqealar asosan podshoning bog‘larida, malikalarning ko‘shklaridan kechganligi uchun bunday go‘zal joylar tasviri tez-tez ko‘zga tashlanib turadi.

Alqissa, Gulira’no so‘zini tamom etdi. Mohimjon birdan o‘rnidan turib, Gulira’nog‘a bosh-oyoq sarpo berdi.

Alqissa Odilshohning qizlarining bir bog‘i bor erdi, unga Rizvon der erdilar. Bu bog‘a podshoning uch qizi kanizlari bilan navbatma-navbat sayrga chiqar erdilar. Gullar ochilg‘on, ne‘matlar sochilg‘on, bahor ayyomi bo‘lg‘on vaqtlar erdi.

Bulbullar soz etib, qumrilar ququlashib, to‘tilar va’z aytib bog‘ning gullab ochilib, ajib bir lolazorliq kasb etgan vaqti edi. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 40-bet).

Tabiat tasviri obrazlar kayfiyatini ko‘rsatib berish tinglovchining estetik didini yuksaltirish, voqealar oqimini tasvirga monand bayon qilish imkoniyatini yaratadi. Dostonning nasriy qismida tasvirning mantiqan izchil chiqishi uchun ko‘plab maqol va matallardan foydalanilgan. Bu maqollarning katta ko‘pchiligi hozirda iste’moldan chiqib ketgan. Ayrimlarigina hozirgacha ishlatiladi. Maqollar hamisha badiiy nutqda fikrni asoslash, hukmni ifodalash uchun, matallar esa ba’zan kinoya, ba’zan kesatiq yoki kulgu qo‘zg‘ash maqsadida istifoda etiladi.

Tohirning otasi vafot qilganidan keyin ularning oilasi kambag‘allashib qoladi. Podsho bu oilaga qizi Zuhрани bermaslikka qaror qiladi. Buning sababini Tohir onasidan so‘raganda onasi: “Suv soyga, boy ham boyga”, deganlaridek, shohlar shohlar bilan loyiqdir.

Biz faqirdirmiz. Sen ham o‘z tengingni toparsan. Zuhrajonga ko‘ngil berma”, dedi. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 13-bet).

Tohir bilan Zuhra bog‘ qo‘ynida pinhona uchrashuvga erishganlarida o‘sha joyda Hasan chug‘ul degan kishi bog‘bonlik qilar, uning odati chug‘ullik (chaqimchilik) bilan shakllangan edi. O‘sha odatini tark eta olmay yigit va qizning bu uchrashuvi haqida xonga xabar beradi. U xabar berishi oldidan o‘z-o‘ziga shunday deydi:

“-Ey Hasan chug‘ul, sen umring davomida gap-so‘z, mish-mish, g‘iybat tashimoqdan boshqa ish qilmading. Oltmishingdan o‘tgandan keyin kathudo bo‘lmassan. “Egri yog‘och o‘z yotishida ketadi” degan naql bordir. Ikki boshdan bu so‘zlarni birovga aytmadan yurib bilmassan. Har neki bo‘lsa ham avvalgi barakat topg‘an koringdan qo‘l uzmagil. Va bu haqda tezlik bilan podshoga xabar bergil, dedi”. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 18-bet).

Ayrim hollarda obrazning xarakterini ochib berish uchun uning o‘z tilidan hikmatli so‘zlar beriladi:

Daryo suvi sandiqni yana oqizib badar ketdi. Tohirjon suvsizliqdan chanqab, qattiq xo‘rlandi. Ul: -Ey xudoyim, bu daryo maning o‘lar joyim bo‘ldi, deb shum falakning kajligiga, shumlig‘ig‘a yonar erdi.

Yana o‘ziga –o‘zi tasalli berib: **Sabr-vaqti xushliqning kalitidir, “kelar bo‘lsa kelar shomu-Iroqdan; ketar bo‘lsa ketar qoshu-qapoqdan”**, kishi har aniq maqsadiga sabr ila yetar. Men ham sabrli bo‘layin, deb bir abyot o‘qidi: (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 35-bet).

Bu usul Mohimjon nutqida ham ko‘zga tashlanadi:

Mohimjon Tohirjonning bir oshiq yigit ekanini angladi. O‘yladiki: “Menga ham to‘nning bir etagi yetar”, deb xushvaqt bo‘lib sandiqni xizmatkorlarga ko‘tartirib ko‘shkiga keldi. Mohimjon Tohirjonning diydoriga mushtoq bo‘lib, ko‘zini undan uzmay o‘tirdi. Ammo u qanchalik tikilib o‘tirmasin uning husn-jamoliga to‘ymas erdi. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 43-bet).

Dostonlarda maqol va hikmatli so‘zlar shunday tanlanganki, ularni matndan ajratib olib bo‘lmaydi. Ular matn mag‘ziga shunday singdirilib yuborilganki, matn bu aforistik jumlar vositasida yuksak badiiylik kasb etadi:

Alqissa, Tohirjon so‘zini tugatib aytdiki: -Ey Mohimjon! Mening dardim boshimdanam ziyoda, mening ahdu-paymonim bir pariga bog‘lidur. Agar bundan ortiq jabr qilsang, ozor bersang, men o‘zimni o‘ldirmakdan boshqa choram qolmaydi. Chunki qur‘oni karimda “Va‘da qarzdorliqdir” deb yozilg‘ondir”, -deb Mohimjon bilan o‘zining orasiga keskir qilich qo‘yib yotdilar. Mohimjon o‘ylab ko‘rib, o‘ziga-o‘zi: “Yoringdan zarar ko‘rish ham foydaning o‘zidir. Men bundan buyon Tohirjong‘a bo‘lg‘on his-tuyg‘ularimni jilovlamasam, elga badnom bo‘larman. Tohirjong‘a bo‘lg‘on oshiqligimni tark etayin”, -deb o‘ziga-o‘zi ko‘ngillik berib bir g‘azal o‘qidi: (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 46-bet).

Zuhraning onasi bilan suhbatı sahnasida maqol va hikmatli so‘zlar shunday ishlatilganki, ularning mag‘zida hayot falsafasi o‘zini yaqqol namoyon qiladi:

Shundan so‘ng Zuhra uch kun ichida Tohirning hamma obu oshini berdi va ko‘shkiga kelib, bog‘larini va boshqa anjomlarini kanizlariga baxsh etdi. Keyin qora chodraga burkanib, Tohirning qabri ustiga ziyoratga ketdi. Uning borayotgan yo‘li ko‘z yoshidan nam bo‘lur erdi. Shul vaqt onasi uning izidan etib:-Ey bolam,

o'lganning izidan o'lib bo'lmas, o'lgandan foyda yo'q, uni yodingdan chiqar, tirikka xizmat et. O'lik arslondan tirik sichqon yaxshi, deganlar, Qorabotir ham o'z avlodining, unga ko'ngil ber, dedi. Zuhra:-Ey ona, bir oyog'ing go'rda, sening bunday so'z aytishga qanday tiling bordi, deb bir bayot o'qidi: ("Oshiqnoma", 5-kitob, 121-bet).

Mohimjon bilan Tohir va enaga o'rtasida bo'lib o'tgan aytishuv she'rlardan keyingi lavhada ham aforizm bilan sug'orilgan badiiy nutq o'zini ko'z-ko'z qiladi, ta'sirchan nasriy bayon ro'yobga chiqadi:

Alqissa savol-javoblar tamom bo'ldi. Shunda enaga: -Ey Tohirjon! Qayda bo'lsang, omon bo'l! Mendan senga ruxsat. Sen meni chiqqisiz dardga qo'yding. Qizim sendan vafo o'rniga jaf o'rdi, dedi. Bu so'zdan keyin Mohimjon:-Ey ena; Tohirjonimga bunday so'zlarni aytma, u musofir kishi, musofir odamning ko'ngli nozik bo'ladi. Men uning jafosini ham vafo o'rnida ko'rarman. Umrinni Tohirjonga bag'ishlaganman. Men ancha vaqt birga bo'lib uning visolidan bahramand bo'ldim. Endi visolning hijron davri keldi. Har qanday rohat azobdan keyin yetib keladi. Shul vaqtda Tohir chustu chobuk o'rnidan turib Mohimga ta'zim bajo qildi. ("Oshiqnoma", 5-kitob, 77-bet).

Bunday hikmatli yo'g'rilgan badiiy nutq Zuhra tilidan ham tez-tez bayon etiladi: Uning Vohid bilan suhbatlashish sahnasida shunday bir maqol ishlatiladi:

"Zuhrajon Vohid qalandarga behad tillalar berib, yilmoyani ham topshirib: - Ey qalandar! Shariatda sharm yo'q. Mening olmayu-norim kamola kelibdur, munda zolim Qorabotir xaridor bo'lib, har kun kelur. Ammo bir bahonalar bilan o'zimni saqlarman". ("Oshiqnoma", 5-kitob, 62-bet).

Doimo el kezib yurgan Vohid qalandar nutqida maqol va hikmatli so'zlar yanada ko'proq ishlatiladi. U Zuhra bilan so'zlashar ekan, unga dono fikrlari bilan maslahatlar beradi. Tohirni izlash uchun ayol kishini safarga jo'natish nojoiz ekanini tushuntiradi. Shu asnoda ko'pgina hikmatli ifodalarni qo'llaydi. Gavhar ismli kanizak o'rniga o'zi ketishini ma'lum qiladi:

Alqissa Zuhrajon so'zini tamom etdi. Vohid qalandar: -Ey Zuhrajon! Bir oz sabr et, senga bir arzim bor, istasang aytayin!-dedi. Zuhrajon:- Ayt, ne arzing bor!-dedi. Shunda Vohid devona:- **Gavharjon bir qimmatbaho toshdur, unga**

**hamma odam xaridordur. Gavharning sirtini har zot bilan bezasang ham ichidan ma'lum bo'lar.**

Agarda siz Gavhar qizni qalandar sifatida uzoq yurtlarga yuborsangiz yo'lda ne ko'p qaroqchilar ko'p, ular buni tutarlar. Albatta, **Gavhar har kimning qo'lga tushsa, bo'ynug'a tumor etib taqarlar**, sening xizimating ham bitmas, Gavhar qizdan ham ayrilarsan, dedi. Agarda so'zimni qabul etsang, shul xizimatingni Gavhar qizga emas menga topshirsang, shul xizimatingni men bitirarman. Mening aslimni so'rsang, mening o'zim afg'onning Qobul shahridan bo'larman. Men ham Tohir yanglig' bir dali qalandarman. Bag'dodda Shahrijon degan qizga oshiqman. **Qalandarning holini qalandar biladi**. Men er kishi bo'lg'anim uchun hech kim menga qo'l ham, til ham tegdirib bilmas. Sening shu ishingni men bitirurman, mendan boshqa bitirib bilmas. Gavharjon sen bilan bog'larni sayr etmakni biladi, xolos –dedi. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 61-bet).

Vohid nutqi davomida xalqona iboralarni aytish bilan birga maqollarning asl namunalariga ham murojaat etadi: Vohid qalandar: -“Zar qadrini zargar bilar”- deyib durlar. Agar sen menga ahvolingni bayon etmasang men o'zimni halok etarman, deb yo'lga ravona bo'lmoq bilan bo'laverdi”. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 60-bet).

Maqol va hikmatli so'zlar davr bilan bog'liq holda yaratiladi. O'z navbatida davr, ijtimoiy tuzum yangilangach unutilib ham ketadi.

Yuqorida keltirilgan misolda Vohid qalandarning ayol kishini yakka safarga jo'natish mumkin emasligi to'g'risidagi hukm-xulosasi davr sharoiti bilan uzviy bog'liqdir.

Mohimjon Tohirning qatl qilinganligi xabarini eshitib, yo'lga chiqish uchun otasidan ruxsat so'raganida Odilshoh bu safarga uni yubormasdan boshqa bir tamoyilni tutadi.

“Mohimjon so'zini tamom etib:-Ey Gulzoda, meni bir necha vaqtlardan beri g'am bosar. Tushimda ruhi pok ko'rdim. O'zi zulm ostida, kelib bo'ynini burib: **“Boshimizga ish tushdi, etish”**, deb hech uyqu bermadi. Men bilmadim bu Tohirning ruhimi yo g'ayri ruhimi. Agar oshiqlar o'lgan bo'lsalar, qabrlarini ziyorat qilsam. Agar o'lmagan bo'lsalar xizmatlarida bo'lsam, dedi. Xazinadagi

bor pulni sandiqqa solib: Bir sardor topib, ot-yaroq anjom etib yo‘l shayini tuting, deb kanizlarga amr ayladi.

Bu xabar Odilshohga yetib bordi. U darhol vazirlari bilan qizi huzuriga kelib: -Ey qizim, **zanon toifasiga safarkashlik nomuborak bo‘lur**, deb bir so‘z aytdi, Mohimjon ham unga javob berdi: (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 130-bet).

Matndagi ushbu hukm-xulosalar feodalizm davri shart-sharoiti taqozosi asosida yuzaga kelgandir. Doston nasrida ushbu toifadagi maqol, matal, hikmatli so‘zlar voqealar xarakteriga qarab faol ishlatilgan. Yuqoridagilardan tashqari “Oshno bo‘lish oson, ayrilish mushkul”, “G‘arib o‘lsa g‘amxor yo‘q”, “Kuzatgandan yo‘ldosh bo‘lmas”, “Yo‘lda qo‘shilgan yo‘lda qolar”, “Kuzatgandan yo‘ldosh bo‘lmas”, “Kuzatgan hamroh bo‘lmas”, “Taqdirga chora bo‘lmas”, “Qo‘nganini qo‘l, yurganini yo‘l biladi” kabi ko‘plab maqol va hikmatli so‘zlar doston matnida badiiy nutqqa o‘ziga xos sayqal shaklida o‘rni bilan istifoda etilgan.

Doston nasrida turli ideomalar, uchiriq so‘zlar, iboralarga ham ko‘plab duch kelish mumkin.

Asar matnida xalqona iboralarining ishlatilishi uning o‘qimishliligi, tinglovchiga nisbatan ta’sirchanligini ta’minlab, dostondagi badiiy nutqning ohangdor, sodda va ma’nodorligini yanada chuqurlashtiradi. Ayrim joylarda badiiy nutq shunday tuzilganki, uning har bir satridan albatta biror iborani topib olish mumkin, ularning bittasi ikkinchisini ro‘yobga chiqarib matnga sayqal berib borishadi:

Alqissa, bular savol-javoblarini tamom qildilar. So‘ngra Zuhra:-Ey Tohirjon, sening ketganinga bu yil etti yildir. Sening hajringda **samandar kabi kuyib, ko‘zimdin seldek yoshimni to‘kib, qachon mening nolishim xudoy taoloning dargohida qabul bo‘lar ekan, deb kezar erdim**. Sen ketgandan beri **otam g‘azabidan, el malomatidan, sening ayriliqingdan menda tobu toqat qolmadi, ahli dunyoni tark etdim**. Xususan, **yuragim xijil bo‘lib, ko‘nglim yorishmay oqshom kelib bog‘ saylida bo‘ldim**. Baribir **betoqat bo‘ldim**. So‘ng tahorat qilib ikki rak‘at namoz o‘qidim, so‘ng qiblaga qarab sening **diydoringni ko‘rmak nasib etarmikan deb yotib ko‘zim uyquga ketibdi**. Tushimda seni ko‘rib hol-

ahvol so‘rashib turgan vaqtda ovozingni eshitib uyg‘onib ketdim va sening **muborak jamolingni ko‘rishga muyassar bo‘ldim. Shukr alhamdulillo mukaddar ko‘nglim munavvar bo‘ldi**, deb Tohirni quchog‘iga qisib, yanog‘idan o‘pdi. Bugun **murodimga etdim, endi o‘lsam ham armonim yo‘q**. Endi visolimiz uzoq bo‘lishi uchun bir nima **xufiya ish aylamak kerak**, deb bir so‘z aytdi:

(“Oshiqnoma”, 5-kitob, 104-bet).

Matn tarkibidagi “samandar kabi kuymoq”, “yuragim xijil bo‘lib”, “tobu toqat qolmadi”, “ko‘zim uyquga ketibdi”, “ko‘nglim munavvar bo‘ldi”, “murodimga etdim” kabi birikmali iboralar asardagi badiiy nutqning ma‘nodorligini va ohangdorligini ta‘minlab, uning xalqchillik ruhini yuksak darajaga ko‘taradi. Asarda bunday tamoyildagi iboralar tez-tez ko‘zga tashlanib turadi:

“Mo‘ysafid sardor so‘zini aytib, Odilshoh bilan birga **yo‘lga ravona bo‘ldi**. Bular o‘n to‘qqiz kun deganda Totor viloyatiga etib, Zuhrajonning Bog‘i Maydon degan bog‘ini o‘rab oldilar. Mohimjon kanizlari birlan Zuhraning ko‘shkiga chiqib, anjomlarini joyladi.

Ko‘shkni orastalab, Manzil tutdi. Qorovullar borib:-Ey **Boboxon, o‘lim sanga muborak bo‘lsin**, bir lashkar kelibdur, **mo‘r malaxda son bor, anda yo‘q**, dedilar.

Boboxon:-elmi yo yog‘imi, bilib kel, deb vazirini jo‘natdi. Vazir kelib Odilshohning oldida **uch marta tuproqni o‘pib**:-Ey shohim, **janobi oliylariga** arz shulkim, meni Boboxon yubordi. Ne xizmat bo‘lsa, ne farmonlari bo‘lsa, mango izhor etsinlar, zahmat chekib, **bu shahri azimga muborak yuzlarini buribdurlar**, dedi.

Odilshoh:-Ey vazir, bilgil va ogoh bo‘lgil! Mening Tohir otli o‘g‘lim bor erdi, ul mundin uch oy burun Totorga kelib ma‘shuqasi Zuhraga qovushib erdi. Ammo uni Boboxon o‘ldiribdur. **Tohirning xunini olish uchun keldik**, dedi.

Shunda Mo‘ysafid sardor: **Tohirning xunini to‘lasin**, bo‘lmasa **bir soat zamon ichida kunpa yakun etarmiz**, dedi.

Vazir bul xabarni podshoga etkazdi. Boboxon:-Kishi ustiga bexabar

kelmaslar, **menga uch kun muhlat bersinlar**, dedi va uch kundan so‘ng lashkar birla maydonga chiqdi. Ikki tarafdin **urush tabli qoqildi**.

Mo‘ysafid sardor bir yoqda, Totor lashkari bir yoqda saf chekdi. Shul vaqtda Odilshoh urush boshlashga farmon berdi.

**Ikki lashkar bir-biriga to‘qishdi**. Ot to‘zidin **osmonu falak, zamin to‘lib ketdi**. **Polvonlar bo‘ridek talashdilar**. Shu ravishda uch kun urush bo‘ldi. Mo‘ysafid Boboxonning tug‘ini mo‘ljallab borib, bir qilichda urib sindirdi, **tug‘dori ham sarnigun bo‘ldi**. Buni ko‘rgan Boboxon lashkarlari qochmoq bilan bo‘ldi. Shul vaqtda Mo‘ysafid Boboxon ustiga **kamand tashlab otdan ag‘dardi**. Uni sudrab, ravona bo‘ldi.

Shul vaqtda hazrati Iso alayhissalom va hazrati Xizir alayhissalom ikkovi hozir bo‘lib, Zuhra va Tohirning mozoriga qarab:

-Ey **qo‘zichoqlarim, ko‘shaklarim!** Bugun sizlarning to‘y kuningizdur, turinglar, deb **ko‘zdin g‘oyib bo‘ldilar**.

Oshiqlarning **jasadlariga jon kirgandin** so‘ng, ular savash, urushga qarab hayron bo‘ldilar”. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 136-bet).

Doston matnining mahorat bilan ishlanishida uni yozuvga ko‘chirgan kotiblarning ijodiy hissasi kattadir. Doston matnida ohori to‘kilmagan xalqona iboralar juda ko‘p ulardan ayrimlarini keltiramiz:

“Jannat gulini bir tuyaga hamsuhbat etmak noo‘rin bo‘lar”.

“Ikkisi go‘yoki bir olmani bo‘lib qo‘yg‘ondek edi”. “Bu so‘zni eshitib yuragiga o‘t tushdi”. “Ortiqcha gap-so‘zga qolarsan, qattiq tomga tesh urgandek bo‘lar”. “Ohiga dunyoni tutun qoplab, quyoshning borlig‘ini bilmas darajaga etdi”. “Go‘yo qiyomat qoyim bo‘ldi, tog‘ pora-pora bo‘lib, ikki yoqqa ayrilib, yo‘l ochildi” “Yuragim qop bo‘lib ketdi”. “Yuragim tosh urib yig‘ladi”. “Podshoning g‘azabi o‘n barobar oshib, tunlari to‘nini teshib chiqdi”.

“Oshiqlar nolasidan oy-kun tutildi”. Bunday quyma iboralar asarning tilini sayqallashda asosiy omil bo‘lib xizmat qilgan va badiiy –estetik ta’sirchanligini yuksaklikka ko‘targan. Doston nasrida voqealarni harakatga keltiruvchi (Initial) an’anaviy formulalarga alohida e’tibor qaratilgan. Asar muqaddimasi qo‘lyozma nusxa dostonlarga xos boshlanmalar bilan aynan bir xil bo‘lib aksariyat doston va

ertaklarga xos bo'lgan befarzandlik motiviga asoslangan.

Roviylar andog' rivoyat qilurlarkim, Totor degan bir katta viloyat bor erdi. Uning Boboxon otlig' podshosi bor erdi, bu podshoning bir vaziri bor erdi, uni Bohir vazir der erdilar. Bularning ikkalasining ham mol- davlatdan, obro'-etibordan kam-ko'sti yo'q erdi, ammo bir kamchiligi bularning ikkalasida ham farzand yo'q erdi. Podsho bilan vazir farzandlik dog'iga hech chora topolmay ko'p g'amgin bo'lib, zoru- giryon qilar erdilar. ("Oshiqnoma", 5-kitob, 3-bet).

Dostonning nihoyasi ham an'anaviy formulalarga xos tugallanma bilan yakunlanadi. Ma'lumki, ertak va dostonlarning aksariyati optimizm (ezgulik) bilan tugaydi. "Tohir va Zuhra" garchi fojeaviy asar bo'lsa-da, finali orzu umidlarning ushalishi bilan tamomlanadi:

"Alqissa Mohimjon so'zini tamom ayladi. Undan so'ng Odilshoh otlarga anjomlarini yuklab o'z viloyatiga ravona bo'ldi. Zuhrajon, Mohimjon, Tohirjonlar murod-maqsadiga etdilar". ("Oshiqnoma", 5-kitob, 141-bet).

Dostonda nasrdan nazmga o'tish an'anasi boshqa dostonlarnikidan ancha farq qiladi. Bu asarda ko'proq abyot, g'azal, muxammas, marsiya kabi atamalar ko'proq qo'llaniladi.

"Bunga nazari tushgan Tohir yonib kuyib bir abyot o'qiydi" ("Oshiqnoma", 5-kitob, 9-bet).

"Endi so'rsang, ishq maning ixtiyorimni olibdur. Jonimni Zuhra qizning yo'lida fido etarman"-deb ishq avvalgidan ham zo'rayib, bir g'azal aytdi. G'azal budir" ("Oshiqnoma", 5-kitob, 13-bet).

"Zuhrajon so'zini tamom etdi. Daryo mavj urib, sandiqni oqizib ketaverdi. Zuhra qiz sandiqni ko'rib, xalqqa yolvordi, bo'lmadi. Zuhrajonning gapi so'ziga quloq osadigan odam bo'lmadi. Ana nochor qiz zor-zor yig'lab, "Dilbarimdan ayrildim!"-deb, falakdan shikoyat qilib bir muxammas aytdi". ("Oshiqnoma", 5-kitob, 28-bet).

"Mohimjon bu xabarni eshitib, dod-faryod etib, ko'zidan qonli yosh to'kilib, bag'ri biryon, ko'ngli giryon bo'lib bir marsiya o'qidi. ". ("Oshiqnoma", 5-kitob, 133-bet). Ba'zi jildlarda "so'z aytdi" shakli ham qo'llaniladi: "Shul vaqt Qorabotir Zuhraoning oldiga kelib, ta'zim, tavoze' bilan orzu holini so'zlab besh kalima so'z

dedi”. ”. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 122-bet).

Ba’zan she’r o’rnida afsona atamasi ham qo’llaniladi: “Tohir: men oshiqi zordurmen, bizning elda so’zni soz bilan ayturlar deb yonib-kuyib bir afsona aytdi”. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 88-bet). Asardan nazmga o’tishda qo’llaniladigan bunday atamalar dostonning yozma nusxalar orqali tarqalib ko’proq qissaxonlar tomonidan o’qilib kelinganligining natijasidir.

Dostonda nazm tugagandan keyin nasr davom etishi oldidan albatta “Alqissa” kirish so’zi ishlatilgan. Dostonda voqealar bayon etilar ekan matn tarkibida an’anaviy medial formulalar qo’llanilib boradi.

“Endi xabarni Qorabotirdan eshiting”, “Endi xabarni Mohimjondan eshiting” kabi voqealarni esga soluvchi an’anaviy ifodalar ijrochini auditoriya bilan aloqador bo’lishini ta’minlaydi. “Tohir va Zuhra” dostonining xalqchil tilida olqish va tilaklarning ajoyib namunalari uchraydi.

Olqish, tilak kabi ezgulik tashuvchi iboralar asosan obrazlarning o’zaro munosabatlarida ko’zga tashlanadi. Zuhraning Tohirga nisbatan murojaatlarida bu xususiyat ko’proq namoyon bo’ladi. Alqissa Tohirjon bu so’zini tamom qilg’andan so’ng Zuhrajonning ishq jo’sh urib: -Ey Tohirjon, jonim yo’lingda qurbon bo’lsin. Endi yur, maktabga ketaylik”-deb ikkisi maktab tarafga jo’nadilar. Bu ikki yoshning ishq savdosi olam-jahonga ovoza bo’lib ketdi. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 11-bet).

Shuningdek, Mohim bilan Tohir munosabatida ham ushbu holat kuzatiladi. “Tohirjon, senga yo’l, menga el qutlug’ bo’lsin”. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 81-bet). Xotin-qiz ona va enagalar nutqida olqish va tilaklarning samimiy ko’rinishlari ayniqsa ta’sirchan ifodalangan. Bunga Tohirning onasi tilidan aytilgan murojaatlar tasdiqlaydi. Tohir podshoning shafqatsizligidan nologanda unga onasi shunday deydi: Ey ko’zimning ravshani, ko’nglimning chirog’i, boshimning toji, bag’rimning payvandi, yuragimning tiragi, ollo taoloning menga bergan yolg’iz farzandim. Senga rostini aytmam kimga aytaman: Ey qo’zim! Boboxon bilan Bohir vazirning ahdupaymon etgani to’g’ridir. Ammo Boboxon ahdidan qaytdi u zamonlar, u vaqtlar o’tib ketdi. Otang ham olamdan o’tib ketdi. Sen ham bu niyatingdan qaytgil, umidingni uzgil. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 13-bet).

Zuhra Bag‘doddan Tohir etib kelgandan keyin uni qaerda saqlanishini bilmay, bu masalasida enagasiga so‘z soladi. Shunda enagasi Zuhraga olqishlar aytib, o‘z yordamini beradi.

-Bolam, Tohirning xush kelibdur, ko‘zing oydin bo‘lsin”. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 108-bet). Doston voqealarida tahlikali, fojeali sahnalar ko‘p bo‘lganligi sababli o‘sha lavhalarda, iltijo, tilak, najot kabi tushunchalar bilan aloqador xalqona iboralar qo‘llaniladi: “Alqissa, xonim so‘zini tamom etdi. Mulla bunga ne deb javob berarin bilmasdan, parishon bo‘ldi,-mulladan sado chiqmadi. Zuhra qiz nolish qildi, ins-jinslardan vahiy keldi falakdan malaklar nola qildi:

-Dargohi iloho, yo parvardigoro! Bu ikki oshiqqa o‘zing rahm et!-deb nola qilib arz etdilar. Shu vaqtda Mullanafas ham tahorat qilib ikki rak‘at namoz o‘qib qiblag‘a yuz burib:

-Ilohim, bu oshiqlar fazlu-marhamatingdin etir-deb, zor-zor yig‘lab, hojatini xudoy taolodan tilab, bir muxammas aytdi”. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 31-bet).

Tohirning qatl qilinishi sahnasida ham tilak, iltijolardan namunalar uchraydi: “Katta-kichik, “Iloyo Tohirga nojat ber”, deb iltijo qilurlar erdi”. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 19-bet). Bunday iltijo va tilaklar voqealar tasviriga xalqona ohang baxsh etib, tinglovchida yuksak achinish kayfiyatlarini yuzaga keltiradi. Dostonda o‘zaro munosabat, kattalarga murojaat qilishda qo‘llaniladigan iboralar ham e‘tiborni tortadi. Masalan, Mohimjon otasiga shunday murojaat qiladi:-Ey qilbagohim, men bul viloyatda qolmali bo‘ldim”. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 140-bet). Otasi ham qiziga juda mehribonlik bilan murojaat etadi:

“Ey ko‘zimning ravshani! Ul sandiqning ichinda nima bo‘lsa hamki, agar sandiqning har taxtasi zabarjaddan, qulfi-kaliti oltin-kumushdan bo‘lsa ham, yuzming tumanlik mol-dunyo bo‘lsa ham, agar u sandiqning ichinda duru-javohir, yoki mushki Xo‘tan yoki odamzodmu parizodmu, huru-g‘ilmon naslidanmu, magaram olam-jahon mulkina arzigulik-barobar zot bo‘lsa ham sanga baxsh ayladim, nasib etsin”,-dedi. Bu xat Mohimjonga etishdi”. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 44-bet). Ushbu iboralarning barchasi ajdodlarimizning o‘ziga xos muomala madaniyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi va kelgusi avlodga namuna sifatida xizmat qiladi. Doston leksikasida Xorazm shevasiga oid so‘zlar anchani tashkil etadi.

Buvak-chaqaloq; Elti bibi-Mullaning xotini; ajab bo'lg'ay-xo'p bo'ladi; yildirim-chaqmoq; chug'ul-chaqimchi; o'kta-kuchli; ko'shak-bo'taloq; is-hid, lojaram-pushti rang; yilmoya-bir yashar tuya; do'nmoq-ahdidan qaytmoq, ikkilanmoq kabi ko'plab so'zlar dostonidagi voqealarni bayon qilishda faol ishlatilgan. Bu holat dostonning Xorazm mintaqasida yaratilib, o'sha hududda asrlar bo'yi kuylanib kelganligini ko'rsatadi.

Dostonning leksik tarkibida o'zlashma so'zlar ham ko'p uchraydi. Bu so'zlarning asosiy qismi forsiy, arabiy so'z va izofalardir. Shunday jumlar uchraydiki, undagi so'zlarning asosiy qismi arabiy-fors leksikasiga daxldordir. Masalan quyidagi jumlaning olib ko'raylik: "Bularning **ishqi** kun-kundan ortib bordi. Zuhrajonning **husni** kun-kundan ortib, Tohirjon uning atrofida **parvona** bo'lib, **ikkalasi ishq otashiga giriftor** bo'lib, **visoli-hijron o'tlarga** tushib ayrilsalar bir-birini yodlab yig'lar erdilar". ("Oshiqnoma", 5-kitob, 14-bet). Bu matnda ettita o'zlashma so'z mavjud. Bunday holatni quyidagi parchada ham kuzatish mumkin: Tohir so'zini tamom etdi. Shunda birdan xudoning qudrati bilan, Rasulning shafaoti bilan, Tohirning ohu hasrati, Zuhrajonning nolishi, ikki oshiqning ishq-muhabbatidan bir ovoz chiqdi, go'yo qiyomat qoyim bo'ldi-tog' pora-pora bo'lib, ikki yoqqa ayrilib yo'l ochildi. Bundan quvongan Tohirjon behush yiqildi. ("Oshiqnoma", 5-kitob, 93-bet). Bu farchada ham o'ndan oshiq o'zlashma so'zlar ko'zga tashlanadi. Bulardan tashqari doston matnida "jin-arvoh", "Ahdu-vafo", "Shiru shakkar", "Xuni giryon", "Gulira'no", "huru g'ilmon", "Bog'i rizvon" kabi izofalar; Tillo shona", "murassa' toj" kabi birikmalar; Mohimjon, Gulqamar, jahongir, Shahrijon singari ismlar; "zor-zor, chun abri navbahor" "zoru giryon, bag'ri biryon, aqli hayron" kabi sayyor ifodalar ko'plab uchraydi.

Doston leksikasida bu toifadagi o'zlashma leksikaning ko'pligi Xorazm vohasida qadimdan davom etib kelayotgan qissaxonlik an'anasi bilan chambarchas bog'liqdir, chunki qissaxonlar madrasa ta'limiga ega bo'lib, fors-arab tillarini yaxshi bilishgan.

Binobarin, dostonning nasriy qismi juda mukammal ishlangan bo'lib, uning tili badiiy-estetik jihatdan yuksak darajada namoyon bo'ladi. Badiiy nutqning barcha talablariga javob bera oladi.

Birinchi bob yuzisidan quyidagicha qisqa xulosalarga kelindi:

1. “Tohir va Zuhra” dostoni o‘zbek xalqi orasida ikki xil versiyada tarqalgan bo‘lib, birinchisi Xorazmda, ikkinchisi Xorazmdan boshqa viloyatlarda ommalashgan. Bu ikkita versiya o‘z navbatida kuylab variantlarning yuzaga kelishiga imkoniyat yaratgan. Biz ushbu ishimizda uning 14 varianti haqida qisqacha ma’lumot berdik. Ularning orasida dostonning ertak varianti ham bor.
2. Xorazm vohasida doston asosan yozma nusxalar orqali ommalashgan. Bu nusxalardagi sujet an’anaviy sujetni takrorlasalar ham, ozmi-ko‘pmi o‘zgachaliklarga ega. Ushbu nusxalarning paydo bo‘lishida Mullanasning “Zuhra va Tohir” asarining ta’siri katta. Biroq, bu nusxalar uning aynan ko‘chirilgan matnlari emas, balki ko‘pgina farqlarga ega bo‘lgan variantlaridir.
3. Dostonning nasriy va nazmiy qismlari juda puxta ishlangan. Asarning Xorazm nusxalari asosan yozma tarzda tarqalganligi sababli uning matni Xorazmdan boshqa hududlarda ommalashgan og‘zaki variantlar matnidan leksik farqlanadi. Uning eng asosiy xususiyatlaridan beri leksikasining o‘zlashma ifodalarga boyligidir. Doston tilida forsiy va arabiy leksika ko‘plab uchraydi. Shu sababli uslubi yozma adabiyotga xos tasvirga ancha yaqin keladi. Shu bilan birga asar tilida o‘g‘uz shevasiga oid elementlar ham ko‘plab saqlangan.

## II BOB ASARDAGI OBRAZLAR TAVSIFI

### 2.1.Asardagi asosiy obrazlar tavsifi.

Asar markizida Tohir va Zuhra obrazlari turadi. Tohir-sofdil, sevgi-sadoqat timsoliga aylangan yigit. Uning kelib chiqishi saroy ayonlari shajarasiga borib bogʻlansa-da, otasi-Bohir vazir dunyodan oʻtgandan keyin, oddiy etim bolaga aylanib qoladi. Keyingi taqdiri etimligi sababli ayanchli kecha boshlaydi. U Zuhrani jon-dili bilan sevadi. Birga maktabda oʻqib yurgan paytlaridayoq bu ikki yosh qalbida sevgi kurtak yozib, tobora gullab-yashnab boradi. Ammo Zuhraning otasi qizini Tohirga berishdan bosh tortadi. Ularning uchrashuvlariga barham berish uchun qizini maktabga yubormay qoʻyadi.

Zuhrasidan nogohonda ayrilgan Tohir esa qanoti qirqilgan qushdek, toʻrt tomonga talpinib, oʻzini yoʻqotib qoʻyadi. Maktabga borib, uning yoʻllariga intizorlik bilan boqib oʻtiradi. Buni dostondagi quyidagi parchadan yaqqol anglab olish mumkin:

**Tohir:**

Gulqamarjon, xabar bergil bizlara,  
Hamsirdoshing Zuhrajonni koʻrdingmi?  
Qurbon boʻlay shahdu-shakar soʻzlara,  
Koʻnglim olgan dilraboni koʻrdingmi?

**Gulqamar:**

Yorim kelmadi deb gumon aylama,  
Kelar Zuhrajonning, gʻamgin boʻlmagʻil.  
Shod kunlaring oxirzamon aylama,  
Kelar Zuhrajonning, gʻamgin boʻlmagʻil.

**Tohir:**

Tohir aytar, boshim mehnat toshinda,  
Yigʻlab oʻlar boʻldim etti yoshimda,  
Oʻzim munda, koʻnglum yorning qoshinda,  
Zuhra otli sargardonni koʻrdingmi?

**Gulqamar:**

Gulqamar der, boshim sizlarga banda,

Koʻrdim koʻngullarni hijron shominda,

Saning koʻngling-yorda, yor koʻngli-sanda,

Kelar Zuhrajonig, gʻamgin boʻlmagʻil. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 7-8-bet)

Tohir Zuhraning dugonasi boʻlmish Gulqamarga qalb ehtiroslarini toʻlaligicha toʻkib-soladi. Gulqamar esa unga hamdard boʻlib, dalda beradi, yupatadi.

Oʻsha paytda nihoyatda, visol koʻrishmoq nasib qiladi. Zuhra kanizlari bilan paydo boʻladi. Ushbu lavha dostonda shunday beriladi:

“Tohirbek daraxtga chiqib, Zuhraning yoʻliga qarab oʻtirdi. Bir oz vaqtdan soʻng Zuhra qiz kanizlari birlan olam-jahonni nurga toʻldirib kelaverdi. U qoʻlidagi qizil olmani hidlab, qizil tilladan jildlangan haftiyakni koʻtarib kelar erdi. Zarrin kamar, egnida kiyim-liboslar yarashgan, oʻn barmogʻida oʻn tillo uzuk, har uzugi bir qimmat durdin yasalgʻan. Qoʻllari xinoli, yuzi gulob suvli, xollari oʻsmali, koʻzlari surmali, quloqlari isirgʻali, boshinda qizil yoqutdan oʻtogʻa, qar-qara suratinda bitilgan duru-javohiri guldek ochilib, bu yolgʻonchi dunyoni guliston etib kelaverdi. Bunga nazari tushgan Tohir yonib-kuyib bir abyot oʻqidi”:

Zuhraga koʻzi tushgan Tohir qalbida kuchli hayajon koʻrtakasi sado beradi.

Yor ishqida kuygan oshiq qalb tugʻyonini sheʼr orqali bayon etadi:

Husni ming –tuman baholi,

Dilbarim, dildorim keldi!

Soʻrmoqa kelmish bu holi,

Gʻamimga gʻamxorim keldi!

Oq yuzida nuqta xoli,

Tohirning ne kechar holi,

Soʻrmoqa kelmas bu holi,

Soqiy gulruxsorim keldi. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 10-bet.)

Ushbu misralardagi ishq harorati Tohir obrazini gavdalantirishda asosiy omillardan biri boʻlib xizmat etadi.

Biroq Tohirdagi bu otashin muhabbatni feodal oʻtmishdagi qonun-qoidalar va amaldorlarga xos kibru havo rad qiladi. Zuhraning otasi Boboxon podsho qizini

Tohirga berishdan qat'iyon bosh tortadi va uni eldan badarg'a qilishga qaror beradi.

O'sha qaror asosida Tohir sandiqqa solinib daryoga oqiziladi. U sandiqqa joylanish oldidan Zuhra bilan xayrlashib, she'r orqali dilidagilarni bayon etar ekan, bu satrlarda uning qalbidagi nolalar to'la o'z ifodasini topadi:

Zuhrajon, yig'lagil ayriliq kuni,  
Ketar bo'ldim, ollo yoring, xo'sh endi!  
G'azab urib, so'ldi umrim gulshani,  
Ketar bo'ldim, ollo yoring, xo'sh endi!

Tohir aytar, mendan yuzing do'ndirma,  
Avval kuygan jonim yana yondirma,  
Bog'laring'a zog'u-zog'on qo'ndirma,  
Ketar bo'ldim, Zuhrajonim, xo'sh endi! (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 19-20-betlar).

Dostonlar folklor asarlari orasida ancha keyinroq janr sifatida shakllangan bo'lsa-da, ularning tarkibida arxaik eposga xos bo'lgan lavhalar ham tez-tez ko'zga tashlanib turadi.

“Tohir va Zuhra” dostonida o'sha lavhalarga xos bir ko'rinishi Tohirning sandiqqa solib daryoga oqizilishidir.

“Tohir va Zuhra” dostoni tadqiqotchilaridan biri Feruza Mamatqulova sandiq haqida quyidagicha yozadi: “Sandiq qadimgi asotir va afsonalarda biror bir kult vazifasini bajargan bo'lishi ham mumkin. Tohirning qatl etilmay yoki badarg'a qilinmasdan aynan, sandiqqa solib daryoga oqizib yuborilishi shundan .... Doston sujeti Tohirning Zuhra bilan keyinchalik ham uchrashishini taqozo qiladi. Shu sababli sujetga sandiq timsoli olib kiriladi”<sup>10</sup>.

Ushbu fikrni rivojlantirgan holda yana shuni atish lozimki, sandiq xalq nazdida sehrli vositadir. Shu sababli “sirli sandiq” birikmasi ko'p ishlatiladi. Insonlar hamisha noyob narsalarni sandiqda joylab, uyning to'rida qo'yganlar. Bir vaqtlari kishilarni sandiqqa joylab dafn etganlar. Sandiq shaklidagi yog'ochdan

---

<sup>10</sup> Mamatqulova F. “Tohir va Zuhra” dostonida sandiq timsoli // O'zbek tili va adabiyoti, 2005, №4. B.75 (74-76)

ishlangan qabrlarning qoldiqlari Xorazmda hozirda ham uchrab turadi. Xullas, sandiq timsoli alohida tadqiqotni talab qiladi. Ushbu timsolning “Tohir va Zuhra”da qo‘llanilishi sujet tarmog‘ini kengaytiradi, ikkinchi bir voqealarning sujet tarkibiga olib kiritilishiga imkoniyat yaratib beradi.

Agar Tohir sandiqqa solib daryoga oqizilmasdan badarg‘a qilinsa, doston “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonidagi sujetga juda o‘xshab qolgan bo‘lar edi. Chunki mazkur dostonning muqaddimasi “Tohir va Zuhra” boshlanmasiga juda o‘xshash. Unda ham podsho bilan vazir befarzand bo‘lib, farzandlari tug‘ilmasdan burun quda bo‘lishga ahd qilishadi.

Podshoning qizi, vazirning o‘g‘li tug‘iladi. Vazir vafot etadi, podsho o‘z ahdidan qaytadi, G‘arib badarg‘a qilinadi.

Bizning fikrimizcha, mana shu tafsilotlar aynan takrorlanmasligi uchun ijodkor baxshilar dostonga sandiq timsolini olib kirib, asar voqealaridagi fantastik ruhni yanada kuchaytirganlar, tinglovchilarni sirli voqealar girdobiga olib kirishni maqsad qilib qo‘yganlar. Natijada, boshlanma qisman bir xil klishe (shakl) bilan boshlangan ikki dostonidagi voqealar ikkinchi dostonida batamom boshqa tafsilotlarni o‘z ichiga qamrab olib, original tasvir ro‘yobga chiqqan. Shu boisdan Tohir bilan G‘arib obrazlari butunlay boshqa qiyofada namoyon bo‘ladi.

G‘arib, baxshi, oshiq, qo‘shiqchi sifatida gavdalansa, Tohir ishq yo‘lida fidoyilik ko‘rsatib, “o‘lib-tirilgan” ilohiy oshiqdir.

Tohir sandiqda oqib borar ekan, Bag‘dod elida uni daryodan tortib olishadi. Bu erda uning Odilshohning qizi Mohimjon bilan bo‘lgan yangi sarguzashtlari boshlanadi. Bu sarguzashtlar doston sujetining asosini tashkil etadi. Chunki, Tohir va Zuhraning qaytadan visolga etishlari mana shu Mohimjon va uning otasi Odilshoh homiyligida amalga oshadi.

Tohir Bag‘dodga kelgach, ikkinchi bir ma’shuqaga duch bo‘lib, uning behad sevgisiga musharraf bo‘ladi. Zuhradan ko‘ngil uzmasa-da, Mohimjonga ham ozor bergisi kelmaydi. Quyidagi she’riy parcha fikrimizga dalil bo‘la oladi:

Totorda Zuhrajon, Bag‘dodda Mohim,

Ko‘zlarimning oqu qarosi qizlar.

Tog‘larni yondirar bu chekkan ohim,

Bitmas sinalarning yarosi qizlar.

Mohimjon to‘lgan oy, shu’lasin solar,

Zuhrajon oshiqning ko‘nglini olar,

Biriga yuzlansam birisi qolar,

Jismimda jonimning qal’asi qizlar. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 76-bet).

Tohir ikki o‘t orasida qolib qiynalsa-da, baribir ishqda Zuhraga sodiq qoladi. Nima qilarini bilmay yurgan bir paytda Zuhra tomonidan yuborilgan xabarchi so‘rab-surishtirib Tohirni topib oladi. Bu kishi qalandar kiyimida kelgan Vohid edi. Tohir u bilan savol-javob qiladi:

**Tohir:**

Vohid tezda xabar ber savolimning javobin,

Xabar ber, nozli yorni sen ne ahvolda ko‘rding?

O‘zimga hamrog‘ etdim yorning solg‘an azobin,

Itlarga sham qilarman kuygan bag‘rim kabobin,

Xabar ber, nozli yorni sen nechuk holda ko‘rding?

**Vohid:**

Sanga javob aylayin yoring qilg‘an savolin,

Mudom yor deb yig‘layur, men shunday holda ko‘rdim,

Nargis kabi ko‘zidin oqdirib ashki-olin,

Hijron shabinda istar, yorning sham’i-jamolin,

Kecha-kunduz yig‘layur men bunday holda ko‘rdim.

(“Oshiqnoma”, 5-kitob, 67-68-betlar).

Bu uchrashuvdan keyin Tohir darhol Zuhraning huzuriga otlanish tadorigini ko‘ra boshlaydi. Mohimjonga bu ahvoldan xabar beradi. Mohimjon esa dard-alamga chidam berib, otasidan Tohirni o‘z eliga jo‘natish uchun ruxsat oladi. Nihoyat katta qiyinchiliklar bilan Tohir Mohimjonni Bag‘dodda qoldirib, Totorga yo‘l oladi; u bilan xayrlashadi:

Ketar bo‘ldim Zuhra qizning qoshina,

Kular yuzli Mohimjonim, qol endi.

Boshimni qo‘ymisham hijron toshina,

Shirin soʻzli, zulfi torim, qol endi.

Shamsi qamar yuzli, qoshi hilolim,

Men sanga oshiqman, oʻzinga maʼlum,

Majnunman ishqingda, Layli misolim,

Qizil gulim, olma, norim, qol endi. (“Oshiqnoma”, 83-bet).

Shunday qilib, Tohir Mohimjondan ruxsat olib yoʻlga ravona boʻladi. Katta qiyinchiliklar, mehnat va mashaqqatlar bilan oʻz eliga etib keladi. Zuhrani surishtirib, toʻgʻri uning koʻshkiga qarab yuradi. Borsa Zuhra uxlab yotgan ekan. U Tohirni payqamaydi. Shunda Tohir oʻz dilidagi tugʻyonlarni sheʼr orqali bayon etadi:

Gʻarq oʻlub gʻaflatda yotma, nozli dildorim uygʻon,

Ogʻzi gʻuncha, tishlari dur, zulfi zunnorim uygʻon,

Bulbuli zoring kelibdur, husni ruxsorim uygʻon,

Ol yanoqda kokili –sochlari shomorim uygʻon,

Biz kelganda al mudom, uyquda bemorim, uygʻon. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 100-bet).

Zuhra Tohirni Qorabotir mikan, deb oʻylab, javob bermaydi. Ammo Tohirning ovozini tanib, oʻrnidan turadi. Sevar yorini koʻrib behid quvonadi. Visol damlari boshlanadi.

Tohir obrazi dostonida shunday murakkab tarzda berilganki, uning oldida doimo yangidan yangi baxtsizliklar, omadsizliklar chiqib turadi. U Zuhra huzuriga etib kelgach, pinhona yashab, yori bilan pinhona uchrashib yuradi. Ammo uning xabari podshoga etib boradi. Podsho Tohirni oʻldirishga buyruq beradi. Dono vazirlar Tohirning hayotini tilasalar ham podsho farmonini oʻzgartirmaydi. Tohir esa yori, sevgi-muhabbati yoʻlida qatl qilinishidan zarracha ham qoʻrqmaydi. Uning podsho oldida aytgan dadil soʻzlaridan yaqqol anglab olish mumkin:

“Podshoh Tohirga qarib:-Ey gʻulombachcha, sen mening haramxonamga oyoq qoʻyib, mening zulm-zoʻrligimdan, oʻlimdan qoʻrqmadingmi, ollo taoloning senga bergan navjuvonligini yoʻqotishni oʻylamadingmi, men sening tobutingni oʻtga kuydiraman, deb gʻazabga mindi. Unda Tohir:-Ey masxara podsho, bugun

shoh bo'lsang, ertaga gadosan, men sendan emas, ollohdan qo'rqaman, deb bir so'z aytdi:

Yo'qdan bor aylagan qodir ollohdur,

Ollohdan qo'rqaman, sendan qo'rqmanam!

Har ne hukm aylasa, hukmi ravondur,

Ollohdan qo'rqaman, sendan qo'rqmanam! (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 114-115-betlar)

Tohirning ushbu so'zlari uning obraziga yuklatilgan vazifaning amalga oshishini ta'minlovchi asosiy lavhalardan biridir. Oxir-oqibat Tohir qatl qilinadi. Zuhraning barcha iltijolari bekorga ketadi. Noiloj qolgan ma'shuqa yorining motamini tutib, obi-oshini berishga majbur bo'ladi. Shundan keyin Zuhra ham o'z joniga qasd qiladi, uni Tohir bilan yonma-yon dafn qilishadi.

Tohir obrazining taqdiri shu tariqa yakunlanganday bo'ladi. Biroq xalq optimist bo'lib, hamisha umidvorlik bilan yashaydi. Natijada biroz voqealardan keyin Tohir obrazi asarda yana faoliyat ko'rsata boshlaydi.

Dostonda Tohirning o'limidan keyin voqealar rivoji boshqacha tus olib ketadi. Asardagi tasvir Bag'dodga ko'chadi. Mohimjon tush ko'radi. Tushida Zuhra qora kiyim kiyib yurgan emish. Bu ahvolning motam bilan bog'liqligini sezgan Mohimjon otasi oldiga borib, maslahat so'raydi. Otasi Totor tomonidan bir karvon kelayotganini, o'shalardan xabar so'rash lozimligini aytadi. Mohimjon shoshib karvonni kutib oladi. Karvon boshidan xabar so'raydi. Karvonboshi unga Totorda bo'lgan voqealarni batafsil so'zlab beradi. Tohir va Zuhraning halok bo'lganligini eshitgan Mohimjon dod-faryod ko'tarib otasi oldiga boradi. Otasi Odilshoh barcha lashkarini yig'ib Mohimjonni ham olib, Totorga yo'l oladi. Kelib, Boboxonning eliga lashkar tushirib, Tohir va Zuhralar uchun qasos olajagini bildiradi. Ikki podsho o'rtasida urush boshlanib, Boboxon podsho engiladi. Uni asir qilib Odilshohning oldiga keltirishadi. O'sha paytda Iso alayhissalom va xizr alayhissalomlar hozir bo'lib, Tohir va Zuhrani tiriltirishadi. Odilshoh Boboxon podshoni ikki sevishgan yoshdan kechirim so'rashini, agarda ular kechirishsa, omonlik berishini, aks holda qatl qilishini aytadi.

Boboxon dastlab Zuhradan kechirim so'raydi. Ammo Zuhra otasini

kechirmaydi. Keyin Boboxon Tohirning oldiga borib, kechirishini iltijo qiladi. Tohir bagʻri kenglik qilib uni kechiradi va Zuhraning qoshiga borib otasini kechirishni iltimos qiladi. Zuhra noiloj rozi boʻladi. Ushbu lavhada Tohirning naqadar oliyjanob, qalbi keng, kechirimli inson ekanligi yorqin namoyon boʻladi.

Umuman olganda, Tohir obrazi dostonida mukammal ishlangan sadoqatli, vafodor, sabr-bardoshli, oliyjanob ishq fidoyisining timsoli sifatida gavdalanadi. Uning har bir harakati sevgi degan muqaddas tuygʻuga gard yuqtirmay avaylab saqlovchi buyuk insonga xos fazilat sifatida baholanadi.

### **Zuhra obrazi.**

Tohir bilan Zuhra obrazini ayrim holda olib qarash mumkin emas. Negaki, bu obrazlar faoliyati oʻzaro chambarchas bogʻlangan. Xalqning nazdida bu insonlar ilohiydan tuzilgan, tangri taolo tuhfa qilgan farzandlar boʻlib, taqdirlari ham bir qilib belgilangan. Shu sababli tugʻilganda ham, oʻlganda ham taqdirlari yagona tamoyil asosida nihoyasiga etadi.

Zuhra-podshohning qizi. Lekin unda magʻrurlik, bepisandlik xususiyatlari yoʻq. Tohir etim bola boʻlishiga qaramay, uni Zuhra ilohiy bir tuygʻu bilan sevadi. Zuhraning aqli-farosati, irodasi Tohirnikidan ham oshib tushadi. Tohir ishq bobida yonib-kuyganda Zuhra bu holatni hayojonlanmasdan, ehtirosini bosgan holda qabul qiladi. Unda qizlik iffati, andisha toʻla mujassamlashgan boʻlib, el-yurtda gap-soʻz boʻlishdan xavfsiraydi. Bu yoʻlda sabr-bardosh lozim ekanligini Tohirga tushuntirmoqchi boʻladi. Dostondagi quyidagi soʻzlar bunga dalil boʻla oladi:

-Ey Tohirjon ishqning yoʻli mashaqqatli boʻlar, bu yoʻlda ranju-mashaqqat koʻp koʻrilsa kerak. Ancha oshiqlar ishq dardida dod etib oʻtgandir. Ishqning yuki togʻdan-toshdan ham ogʻir boʻlar, ishq oʻti doʻzax oʻtidan ham battardur. Bu ishqni ollo-taolo ikkimizning boshimizga solibdir. Oshiqlik yigit kishining ishidur, bu yoʻlda mardona boʻlmoq kerak!-deb, Zuhrajon bir gʻazal aytdi:

Tohirjon, bu yoʻlda mardona boʻlgʻil,

Bu kun ishqning savdosigʻa tushmisham.

Jonim qurbon sanga, jonona boʻlgʻil,

Bu kun ishqning savdosigʻa tushmisham. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 15-bet).

Zuhra oʻz taqdirini oldindan sezgandek Tohirga qaraganda ancha hushyor

bo‘lib faoliyat yuritadi, ehtiyotkorlik bilan harakat qiladi, biroq baribir omadsizlikka duch kelaveradi. Bu omadsizliklarning boshida hamisha otasi Boboxon podsho turadi. Uning Tohir bilan pinhona uchrashuvlarini podshoga etkazadilar. Natijada Tohirni sandiqqa solib daryoga oqizishadi. Bundan ozor chekkan Zuhra zardob yutib, oh chekadi, biroq, qo‘lidan yolborish, iltijo qilishdan boshqa biror ish kelmaydi. Chunki feodal jamiyat qonun-qoidalari nihoyatda beshafqat edi. Zuhraning iltijolari ham behuda ketadi. Natijada ohu faryod tortishdan boshqa iloji qolmaydi. Otasi Boboxon podshoning dastidan dod qilib nola chekadi:

Dod etayin Boboxonning alinnan,  
Bugun mani sevar yordin ayirdi.  
Shaydo bulbul uchdi toza gulinnan,  
Bog‘ning ko‘rki-bulbul zordin ayirdi.

Zuhra aytar, yo‘qdur sabru-qarorim,  
Jayhung‘a g‘arq bo‘ldi, sevgili yorim...  
Yig‘lab o‘tdi umri, layli-nahorim,  
Tohir otli shahsuvordan ayirdi. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 27-28-betlar).

Zuhra Tohirdan ayrilgandan keyin qattiq qayg‘uga botadi. Dostonda uning ahvoli quyidagicha bayon etiladi:

Ammo Zuhrajon ko‘zlari giryon, ahvoli biryon bo‘lib, Tohirning hajrinda yonib-ko‘yib, uyqudan qolib, kunduzlar oromini yo‘qotib, ota-onasini ham unutib, dunyoning rohatlaridan kechib, yoqti jahonni tark etib, qorong‘i bir hujraga kirib bag‘rini zaxga berib yotaverdi. Bu ahvolda uning yuzi kun-kundan za‘faronday sarg‘ayib, og‘irlashib boraverdi. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 53-bet). Oxir-oqibat Zuhra Tohirni izlab topishni maqsad qilib qo‘yadi. Kanizlaridan bittasini Tohirni izlashga jo‘natish taraddudiga tushadi. O‘sha paytda u Vohid qalandarga duch keladi. Vohid Zuhraning dardini eshitib, unga maslahat beradi. Sen kanizlarni Tohirni izlashga yuborma, ular ayol kishidir. Mening o‘zim bir qizning dardida el kezib yuribman, sening xizimatingni ham ado etarman, deydi. Bu gap Zuhraga ma’qul tushib unga sidqidildan yolborib yorini topishda yordam berishni iltimos

etadi. Unga o‘z dardini bayon etr ekan, o‘z ichki tuyg‘ulari, g‘am-hasrati, ishq iztirobi, yor sog‘inchi kabi barcha qalb tug‘yonini izhor etadi. Yorini topishga ishonch hosil bo‘lganiga behad quvonadi. Vohidga barcha sir-asrorini to‘kib-soladi:

Vohid ketar bo‘lsang mundin,  
Jonim suygan jonni gatir,  
Yorim nechun kelmas andin,  
O‘yim ziyoda kun-kundin,  
Shirin jonim chiqar tandin,  
Pinhon sirim yo‘qdir sandin,  
Sen ham al ko‘tarma mandin,  
Al ko‘tarmam bu vatandin,  
O‘ldim ayroliq dardindin,  
Dardima darmonni gatir. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 62-63-betlar).

Zuhra Vohid qalandarni yo‘lga kuzatar ekan, yuksak orzu umidga chulg‘anib, sabrsizlik bilan yoridan xabar kutadi. Vohid esa Tohirni izlab topib, unga yoridan xabar etkazadi. Albatta bu janr ayon qattiq va mashaqqatli mehnatlar evaziga amalga oshadi. Nihoyat Tohir Mohimjon va uning otasidan ruxsat olib Totor viloyatiga qaytadi. Zuhra visoliga oshiqqan Tohir uni bog‘ida uxlab yotgan joyidan topadi. Ammo Zuhra uni Qorabotir gumon qilib, sira uyqudan uyg‘onmaydi. Nihoyat bir payt Tohirni tanib, butun vujudi bilan unga intiladi va oldiga peshvoz chiqadi. Unga qalbidagi sog‘inch hislarini she‘r orqali bayon etar ekan, visolga etishganidan sevinsa ham, Tohirning kelganligidan podsho xabar topsa, bu visolning o‘lim bilan tugashidan qo‘rqib, ehtiyotkorlik qilish lozimligini alohida ta’kidlaydi:

Xush kelding Tohirim bizning ellara,  
Davlatli, davronli joydir, bu joylar.  
Kel ikkimiz gasht etali gullara,  
Gulshanli, sayronli joydir, bu joylar.

So‘zing qabul bo‘lmas shohing qoshida,

Ko‘zim yoshda, boshim mehnat doshida,

Kunda yuz zulm bor mazlum boshida,

Barchalarga qonli joydir, bu joylar. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 104-105-betlar).

Darhaqiqat Zuhraning o‘ubha-gumonlari to‘g‘ri bo‘lib chiqadi. Boboxonning bog‘boni Tohirning kelganligi haqida xabar beradi. Natijada podsho darg‘azab bo‘lib, Tohirni tutib qatl qilishga farmon beradi.

Tohirni qatl maydoniga olib kelishadi. Bu lavha dostonda quyidagicha beriladi: “Zuhrajon Tohirjonga shohona liboslar kiydirib, boshiga murassa’ toj qo‘yib, beliga zarrin kamar bog‘lab, g‘ulpoqlariga tillo shona urib, yuzlariga gulob sepib, bezab maydonga chiqardi. Xaloyiq qarasa, ikki oshiq yuzlari oy kabi shu’la sochib, qorong‘i kechani munavvar qilur erdi. Odamlar ularga hayron bo‘lib boqib, barmoqlarini tishlab turur erdilar. Katta –kichik: “Iloyo Tohirga najot ber”, -deb iltijo qilurlar erdi. Zuhra faqir balki bu ko‘rk, nafasat sohibiga podsho o‘limni ravo ko‘rmas, degan o‘yga ketgan edi. Ammo podsho jallodlarga: -o‘ldiring!-deb buyruq berdi. Jallodlar darhol Tohirni Zuhraning qo‘lidan tortib olib maydonga keltirdilar. Zuhra o‘tga tushgan parvonaday borib otasining oyog‘iga yiqildi, unga yolborib:-Meni o‘ldir, yorimni ozod aylagil, deb bir g‘azal aytdi:

Shoh bobom arzimni bayon aylayin,

Meni o‘ldir, yorim ozod aylagin.

Tohirning boshiga qurbon bo‘layin,

O‘ldir meni, yorim ozod aylagil.

Men bunda qolmanam, o‘zim bilarman,

Xanjar birla qora bag‘rim tilarman,

Tohirni o‘ldirsang men ham o‘larman,

Meni o‘ldir, yorim ozod aylagil. (“Oshiqnoma”, 5-itob, 119-120-betlar).

Ammo Zuhraning otasiga qilgan barcha iltijolari bekorga ketadi. Hukm ijro etiladi. Tohir qatl qilingandan keyin Zuhra uning obi oshini beradi. Shundan keyin Tohirsiz hayotni o‘ziga munosib ko‘rmaydi. Yorining qabriga borib o‘zini o‘ldirishga qaror beradi. Uning qarori qat’iy edi. Opasi Zuhraga ko‘ngil berib: “O‘lganning izidan o‘lib bo‘lmas, endi Qorabotirga tegaver”, deganidan u dilidagi

barcha dard-alamlari va endigi maqsadini onasiga dadil bayon qiladi:

Onajon, aytmagil bunday so‘zingni,  
Bu va’daga vafo qilmasam bo‘lmas.  
Deganing rost bo‘lsa, ko‘rmam yuzingni,  
Tohirning izida o‘lmasam bo‘lmas.

Zuhra deyar, shirin jona do‘zmasman,  
O‘larman Tohirdan umid uzmasman.  
Yor anda, men bunda yig‘lab kezmasman,  
Borib yor qabrida bo‘lmasam bo‘lmas.

(“Oshiqnoma”, 5-kitob, 121-122-betlar).

Zuhraning vafodorligi. Ilohiy ishq-muhabbatga ega ekanligi uning faoliyatining har bir qirrasida ko‘zga tashlanib turadi. O‘zini yor yo‘lida qurbon qilmoqchi ekanini u faqat onasigagina emas, balki o‘z atrofidagi kanizlariga ham aytib, ular bilan xayrlashmoqchi bo‘ladi. U Gulzoda ismli kaniziga murojaat qilib shunday deydi:

Gulzoda, gavharim, eshit so‘zimni,  
Nolalar chekarman yorning yo‘lida,  
Tohir uchun barbod qilib o‘zimni,  
Jigarim yoqarman yorning yo‘lida.

Oshiqlar hayoti kechmas orqayin,  
Ketdi yorim, endi kimdan so‘rayin,  
Bugun jon uyini-jismim saroyin,  
Qasd etib yiqarman, yorning yo‘lida. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 123-bet).

Ushbu lavhadan keyin dostonida Zuhraning o‘z joniga qasd qilish epizodi beriladiki, bu satrlarni o‘qigan, eshitgan kimsaning qalbi larzaga keladi:

Alqissa Zuhra so‘zini tamom etib:-Ey qizlar yig‘lamoq bilan ish bitmas, yuring Tohirbekning qabrini ziyorat etaylik, deb kanizlari bilan qo‘shilib ziyoratga ketdilar. Ular qabr boshiga borib necha vaqtlar yig‘lashib o‘tirdilar, so‘ngra qaytib

ketdilar. Ammo Zuhra qabr boshida ro‘ymolini yashirib qo‘yib ketdi. Yo‘lda u hech to‘xtamasdan yig‘lab bordi va ko‘z yoshini artish uchun ro‘molini olmoqchi bo‘lib, uning tushib qolganini qizlarga aytdi. Qizlar ro‘molni axtarib ketdilar. Zuhra esa qabr boshiga yugurdi. Uning belida xanjar bor erdi. Xarjarni qinidan sug‘irib, kalimai sharif o‘qib, xanjarning sopini pastga, tig‘ini yuqoriga joylab qo‘yib, ustiga o‘zini tashladi. Xanjar uning yuragidan kirib, orqasidan chiqdi. Guldek tana qirmizi qonga belandi, joni jannatda Tohir bilan qovushdi.

Kanizlar to‘rt tarafga chopib, kelib qarasalar Zuhra qonga belanib yotibdi. Qizlar yig‘lab uning yosini tutdilar va podshohga xabar yubordilar. (“Oshiqnoma,”5-kitob, 124-bet).

Shu tariqa Zuhra ham Tohirdan boshqa biror kishining xasmi bo‘lmaslik uchun o‘zini yor qabri ustida halok qiladi. Dostondagi ushbu lavha voqealarga yakun bo‘lar degan fikr asarni o‘qigan har bir kishining fikriga kelishi mumkin. Biroq, doston davom etadi. Xalq o‘zi sevgan oshiq va ma’shuqalar taqdirini shu holicha yakunlashni istamaydilar.

Tohir va Zuhralarning halok bo‘lganlaridan keyin doston voqealari yanada rivojlanish pallasiga qadam qo‘yadi. Bu voqealar karvonlar vositasida Bag‘dodga borib etadi va undan Mohimjon xabar topadi. Natijada Mohimjon otasi bilan bamaslahat ish ko‘rib, katta lashkar yig‘ib Totorga yo‘l oladi. Odilshoh bilan Boboxon podsho lashkarlari urushida Zuhraning otasi mag‘lub bo‘ladi. Shu erda xalq dostonlari va ertaklariga xos bo‘lgan optimistik lavha berilib, Tohir va Zuhra tiriltiriladi. Zuhra obrazi dostonda yana faoliyat ko‘rsatib boshlaydi. U tirilganidan keyin Tohirla qaraganda ham qat’iy harakatga o‘tadi.

Boboxon podshoning Zuhradan kechirim so‘rash epizodida Zuhraning qat’iyatliliigi yana bir bor o‘zini namoyish etadi.

Shohligingda necha ishlar qayirding,  
Ne kun solding oshiqqlarning boshiga.  
Yorni mendan,meni yordan ayirding,  
Rahm etmading ko‘zdan oqqan yoshiga.

Zuhra deyar, shoh eshitsin bu so‘zim,

Shul sababdin za'farondur gul yuzim,  
Tandan boshin uzing, ko'rmasin ko'zim,  
Boring elting Odilshohning qoshiga.

(“Oshiqnoma”, 5-kitob, 137-138-betlar).

Zuhra gunohkor va johil otasini kechirmaydi, uning iltijolarini qabul qilmaydi. Feodal jamiyat hukm surib turgan bir paytda bunday toifadagi mard va adolatparvar obrazini yaratish va uni xalq orasida targ'ib qilishning o'zi katta bir jasorat edi.

Tohirning bag'ri kenglik bilan kechirishi natijasida Boboxon podsho omon qiladi. Dostonda ta'kidlanishicha:

“Alqissa Tohirbek bu so'zni tamom etdi va Boboxonni Zuhrajonning yoniga olib bordi. Tohir: -Ey Zuhrajon, kel, otangning gunohini o'taylik, deydi. Ul rozi bo'ldi. Shundan keyin Odilshoh Mohimni ham Tohirla nikohlab berdi. Oshiqma'shuqlar murodiga etdilar. So'ng Odilshoh yana Boboxonni Totorga hukmdor etib, o'zi Bag'dodga ketar bo'ldi. (Oshiqnoma, 5-kitob, 140-bet).

Dostonda ushbu ikki obraz bir-birini to'ldiradi. Ularning birini ikkinchisidan ajratib qarab bo'lmaydi.

### **Mohim obrazi**

“Tohir va Zuhra” dostonidagi asosiy obrazlarga Mohimni ham kiritishga to'g'ri keladi. Chunki, asarda boshdan-oyoq Tohir Zuhra-Mohim uchligi teng faoliyat ko'rsatadi. Agarda Mohim obrazi bo'lmasa, Tohir va Zuhra obrazlarini to'laqonli tasavvur etib bo'lmaydi. Negaki, Mohim obrazi dostonidagi barcha voqealarni ijobiy nuqtalar sari etaklaydi. Bunday olib qaraganda u ana shu ikki sevishtan oshiqma'shuqqa homiy darajasida xizmat qiladi. U ham Tohirni butun qalbi bilan sevadi. Shuni muhimki u Zuhraga raqib emas, balki opa-singildek qaraydi. Biz yuqorida Tohir va Zuhra sevgisini ilohiy muhabbat dedik. Mohimning sevgisini ham o'sha toifaga kiritish to'g'ri keladi. Chunki uning qalbiga ham sevgi iztirobini yaratganning o'zi tushida taqdim qiladi. Bu tushni Mohim shunday ma'riflaydi:

Tushimda bir bulbul ko'rdim,  
Urki kelmiş gulzorin,

Qaysi bog‘ning bulbulidur,  
Qaysi bog‘chaning norinnan.

Qurbon bo‘larman o‘zina,  
Shakardan shirin so‘zina,  
Davomat boqsam yuzina,  
Ko‘zim to‘ymas diydorinnan. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 38-39-betlar).

Bu tushni Mohimjon Gulira’no degan kaniziga ta’rif etganda kanizi ham bu ishqning olloh tomonidan ato qilinganini ta’bir qiladi:

Bir shahzoda kelmish Mashriq shahrinnan,  
Gasht aylayur gul-g‘unchali joylarni.  
Yordan ayro tushmish shohning qahrinnan,  
Ko‘pdir yuraginda ohu-voylari.

Gulira’no der, ichdim qo‘limda boda,  
So‘zim yo‘qdur endi, bundan ziyoda,  
Ollo etir barcha qulni muroda,  
Haq solibdur sanga ushbu ko‘ylari. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 40-bet).

Tuz kunda Mohimning tushi haqiqatga aylanadi. Daryoda sandiq oqib kelayotganini ko‘rib, uni qirg‘oqqa tortib olishadi. Mohimjon otasi Odilshohdan sandiq ichidagi narsalarni o‘ziga ato etishni iltimos qiladi, otasi rozilik beradi. (Sandiqni ochganda:)

“Ko‘rsaki, sandiqning ichida bir go‘zal yigit yotibdi, na joni bor, na nafas oladi. Mohimjon o‘ylab ko‘rsa, o‘z tushida ko‘rgan o‘g‘loni, ikki jahon matlabi ekan.

Mohimning ishq ko‘tarilib, bir oh urib, behush bo‘lib yiqildi. Dunyo yuzi tuman bo‘ldi, eru-ko‘k larzaga keldi. Ohiga dunyoni tutun qoplab, quyoshning borlig‘ini bilmas darajaga etdi. Birozdan so‘ng kanizlar, Mohimning yuziga suv sepib, uni hushiga keltirdilar. Shunda uning husni jamolidan jahon yuzi ham yop-yorug‘ bo‘ldi. Shahrijon: -Ey Mohimjon, senga ne bo‘ldi?-dedi. Shunda Mohimjon zor-zor yig‘lab: -Ey qondoshim, bu-ishdan aslo bexabar ekansan. Bu yigitni

tushimda ko‘rib erdim. Shundan beri mening sabru-qarorim yo‘qdir. Bu mening boshimga ishq savdosini solg‘an yigitdur, -dedi. Kanizlari:

-Ey Mohimjon, bu yigitdan xabar ol, halok, bo‘lmasin,-dedilar.

Shundan so‘ng darrov Tohirjonning yuziga gulob sepib hushiga keltirdilar. Mohimjon xabar so‘radi, Tohirjon ham javob berdi:

**Mohimjon:**

Xabar ber, ne erdan kelding bu yoqqa?

So‘zla jonim, qaysi bog‘ning gulisan?

Sandiq bilan nechun kirding daryog‘a?

So‘zla, jonim qaysi bog‘ning gulisan?

**Tohir:**

Gul emasman, bulbuliman bir bog‘ning,

Guldan-gulga sayron etib kelarman.

Ham ul gulning dog‘i, ham sening dog‘ing,

Aqlu hushim hayron etib kelarman.

(“Oshiqnoma”, 5-kitob, 41-42-betlar).

Tohir Zuhraga sadoqatli, vafodor bo‘lishi bilan birga Mohimdan ham qo‘l uzishni istamaydi. U bilan nikohga kirishni istamasa-da, bu favqulodda go‘zal qizning muqaddas sevgisini oyoq osti qilishni istamaydi. Shu sababli ushbu keltirilgan misralarda Tohirning Mohimjonga ham ko‘ngli moyilligi sezilib turadi. Bundan keyingi taqdiri go‘zal qizga ko‘p jihatdan bog‘liq ekanligini Tohir ichki bir tuyg‘u bilan sezadi. Darhaqiqat, bu uqizni Tohirga Tangri taola ham yor, ham homiy sifatida ato qilgan edi. Dostondagi kechgan keyingi voqealar bu fikrimizni tom ma’noda tasdiqlaydi.

Tohir Zuhradan xabar kelib, Totorga ketmoqchi bo‘lganida ham Mohimjon mardlik ko‘rsatadi. Tohirni Zuhra huzuriga ketishiga ruxsat beradi. U xayrlashuv jarayonida o‘z qalbida yotgan barcha sevgi sirlarini Tohirga bayon etadi. Tohir ham unga muruvvat qilishga va‘da beradi:

**Mohim:**

Mohim deyar, alif qaddim bukildi,

Raqib sozi shodiyona qoqildi,

Yo‘ling qarab ko‘zim nuri to‘kildi,  
Avval nega tushding ishqning yo‘lina?

**Tohir:**

Tohir deyar sevdim ikki parini,  
Totorda Zuhrajon, Bag‘dodda seni,  
O‘zingni ozorlab, yig‘latma meni,  
Ruxsat ber Mohimjon, ketsam kelarman.

(“Oshiqnoma”, 5-kitob, 74-bet).

Mohimjon oxir-oqibat Tohirga ruxsat beradi: Ammo vafo-sadoqat masalasida o‘zining qat’iyatliligini yana bir bir ta’kidlaydi:

Quloq solib eshit mening bu so‘zim,  
O‘zgani ko‘zlasam, ko‘r bo‘lsin ko‘zim,  
Mudom sensiz sariq bo‘lar gul yuzim,  
Bor, Tohirim, sog‘ bor, omon kelgaysan! (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 75-bet).

Mohim agarda va’daga vafo bo‘lmasa, o‘zini halok etishini ham Tohirga bayon qiladi.

Mohim der, kezam bog‘ingda,  
Gasht aylasam o‘tog‘ingda,  
Kelmasang, kelar chog‘ingda,  
O‘zimni qilgum yuz pora. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 85-bet).

Tohir jo‘nab ketgandan keyin ancha vaqtlar o‘tib Mohim yana tush ko‘radi. Tushida Tohir va Zuhraoning halok bo‘lganligi ayon bo‘ladi:

Uyqumda Gulzoda bir ahvol ko‘rdim,  
Oshiqlar ko‘zima ayon ko‘rindi.  
Yorildi yuragim, seskanib turdim,  
Ko‘zima bir ruhi ravon ko‘rindi.

Zuhra qiz deydilar bir pari paykar,  
Qora kiymish o‘z bo‘yiga barobar,  
Sanchadur bag‘riga qo‘lida xanjar,  
Tohir deb ko‘zlari giryon ko‘rindi. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 129-bet).

Bu voqeadan keyin Mohimjon otasiga xabar berib Totorga borish lozimligini aytadi. Sal o'tmay lashkar to'plab Totorga yo'l olishadi. U Tohir bilan Zuhra halokatidan so'ng o'zini hayotda ortiqcha sezadi, hayotdan bezib, o'zining joniga qasd qilishni istab qoladi:

Yurakda yuz ming bir dardim,  
Men nechuk darmon aylayin.  
Tangri ishiga tan berdim,  
Armon, yuz armon aylayin.

Etishdi ajal lashkari,  
Men naylayin simu zari,  
Siynamga urib xanjari,  
Qora bag'rim qon aylayin. (Oshiqnoma", 5-kitob, 133-bet).

Totorga kelganidan keyin Mohimjon Tohir va Zuhralar uchun intiqom olishni asosiy maqsad qilib qo'yadi. O'z navbatida bu maqsadiga erishadi ham. Tohir va Zuhra mo'jizaviytirilishni boshidan kechirgandan keyin quvonchi ichiga sig'maydi.

Barcha ishlar ko'ngildagidek amalga oshgandan keyin Mohimjon Bag'dodga bormasdan Totorda qolishga qaror qiladi. Uning bu qaroriga Tohir va Zuhralar ham rozi bo'lishadi. Shunda Mohim otasi Odilshoh bilan xayrlashib, taqdirim Tohir bilan bog'langan deya e'tirof etadi:

Ketar bo'lsang o'z yurtinga,  
Rozi bo'lib qayting, bobo,  
Tabdil yo'q tangri dardiga,  
Sog'-salomat qayting bobo.

Tohirsiz menga yo'q rohat,  
Ayriliqqa qil qanoat,  
Borgaysiz sog'u salomat,  
Ollo yoring, qayting bobo. ("Oshiqnoma", 5-kitob, 140-bet).

Mohimjonning ushbu qaroridan keyin doston nihoyasiga etadi. Oshiq-

ma'shuqlarning har uchalasi ahil bo'lib birga yashashga ahd qilishadi. Darvoqe voqealarning bunday ezgulik bilan nihoyalanishida Mohim asosiy rollardan birini o'ynaydi. Mohimning xaloskorlik faoliyati dostonda alohida bo'rtib turadi.

Binobarin, Tohir, Zuhra va Mohimlardan iborat uchlik obraz doston voqealarini harakatga keltiruvchi asosiy kuch bo'lib hisoblanadi.

### **Odilshoh obrazi.**

Xalqimiz ertak va dostonlarda azaldan adolatpesha, xalqparvar podsholar haqida orzu qilib, ularning dono obrazlarini yaratishga harakat qilib kelganlar.

“Tohir va Zuhra” dostonida ana shunday podsholar obrazi qatoriga Odilshohni kiritish mumkin. Odilshoh Mohimjonning otasi. U mamlakatni adolatparvarlik bilan boshqaradi. Miskin va bechoralarni qo'llab-quvvatlaydi. Qizi Mohimjonning har bir iltimosini donolik bilan tahlil etib, odilona hal etish taraddudiga tushadi.

Tohir Bag'dodga daryoda oqib kelgandan keyingi voqealar Odilshoh faoliyatini yanada yorqinroq namoyon bo'lishiga olib keladi. Mohimjon bu yigitni sevib qolgandan keyin Odilshoh qizi taqdirini ezgulik sari yo'naltirish uchun barcha chora tadbirlarni ko'radi.

Tohir Bag'dodga kelgandan keyin unga o'z o'g'liga qaragandek qaraydi. Barcha imkoniyatlarni muhayyo qiladi.

Tohirga Zuhra xabari etib kelib, Totorga borish uchun Odilshohdan ruxsat so'rash lavhasida podshohning insoniy qiyofasi yanada ravshanroq ko'rinadi. Tohir uning oldiga kelib shunday deydi:

-Ey Sulaymon saltanat, Iskandar shavkat, shohim, aziz qiblagohim, sizga ikki og'iz so'zim bor deb, bir abyot aytdi:

Zuhrajonim manga salom yubormish,  
Shohim, mango ruxsat berar kuningdir.  
Ko'shkida yig'layib, beqaror ermish,  
Shohim, mango ruxsat berar kuningdur.

Bir qosid keltirmish yorning payomin,  
Ko'z yoshidan yozmish yorim salomin,

Yod etmish saboqdosh o‘qib kalomin,

Tohir deyar, ruxsat berar kuningdur. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 70-bet).

Podshoh Tohirning so‘zini diqqat bilan tinglab, dastlab unga ketmaslikni maslahat beradi. Sen nima istasang muhayyo qilaman, deb iltijo qiladi. Biroq Tohir ko‘nmagach, oliyjanopbik bilan unga oq yo‘l tilaydi:

Tohir so‘zini tamom etdi, shohning oyog‘iga yiqilib yig‘ladi. Shu erdagi barcha kishilar ham yig‘ladilar, borgoh go‘yo yosxonaga do‘ndi. Shohning ham ko‘ngli buzilib:

-Avvaldan sen bilan oshno bo‘lmasak yaxshi erdi. “Oshno bo‘lish oson, ayrilish mushkul”, degan naql bor. Bu naql chin ekan, dedi. Podsho yana bir o‘y-fikr qilib:

-Ey Tohirjon, bu maqsadingdan qayt, istasang podsholig‘imni, qizimni ham senga berayin, dedi.

-Agar ruxsat qilasangiz bu yo‘lda o‘lib ketarman, dedi Tohir.

Shunda podsho Tohir, boshingni ko‘tar, qaysi tomonga ketsang ham bobong ruxsat berur deb bir abyot aytdi:

Shoh ruxsat bermas deb hazar aylama,

Ketar bo‘lsang uzoq yo‘llar seniki.

Ammo o‘zga elni guzar aylama,

Shohning mulki, ulus-ellar seniki.

Shamol esar fasli bahor chog‘ida,

Giyoh unur tuman bo‘lar tog‘ida,

Sayron etsang shahri Bag‘dod bog‘ida,

Tar ochilgan tozagullar seniki.

Podsho so‘zini tamom etib:-Ey Tohirjon, mendan senga ruxsat, ammo etti yildan beri seni tarbiya etgan, boqqan enangandan ruxsat tila hamda senga ko‘p vaqt hamroh bo‘lgan Mohimjondan ham ijozat so‘ra, endilikda bizga seni ko‘rish yo nasib qilar yo yo‘q, dedi.

Tohir bul so‘zdan xushvaqt bo‘lib, xonim bilan Mohimjonning yoniga borib, ta‘zim bilan ruxsat so‘rab bir abyot aytdi:

Jonim onam, ruxsat bergil o‘g‘linga,

Gasht aylasin shahri Totor yurtina.

Muhabbat sharbatini olib qo‘linga,

Duo ayla, men g‘aribning dardina. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 71-bet).

Odilshoh ruxsat bergandan keyin, Mohimjon, uning enagasi ham Tohirning ketishiga noiloj rozi bo‘lishadi.

Tohir va Zuhralarning halok bo‘lishlari haqida xabar kelganidan keyin Odilshoh Mohimning iltimosiga binoan Totorga qarab lashkar tortadi. Boboxon podshoni tor-mor etib, uni Tohir va Zuhradan tiz cho‘kib kechirim so‘rashga majbur qiladi.

Doston finalida Odilshohning oliyjanoblighi yana bir bora namoyon bo‘ladi.

Tohir va Zuhra Boboxon podshoning gunohidan o‘tgandan so‘ng Odilshoh uni yana Totorga hukmdor qilib o‘z o‘rnida qoldiradi. Bu esa Odilshohning bag‘ri kengligi, insonparvarligini yana bir bor isbot qiladi.

## **2.2. Dostondagi boshqa obrazlarga xarakteristika.**

**Boboxon podsho obrazi.** Dostonda ikki podsho obrazi faoliyat ko‘rsatadi. Bulardan bittasi ijobiy, ikkinchisi salbiy obraz sifatida ko‘zga tashlanadi.

Boboxon podsho-Zuhraning otasi. U o‘z vaziri Tohirning otasi Bohir bilan farzandlari tug‘ilmasdan oldin quda bo‘lishga ahdnoma tuzadi. Ammo Bohir vazir o‘lmas, burun ahdidan qayta boshlaydi. Uning bu holati dostonda juda ta’sirchan ifodalangan:

“Endigi so‘zni Boboxondan eshiting. Podsho qiz farzand ko‘rganidan so‘ng, ko‘ngliga shunday bir xayol keldiki: “Bohirning o‘g‘li bo‘lsa men nima qilarman? Jannat gulini bir tuyaga hamsuhbat etmak noo‘rin bo‘lar? Men katta bir yurtning podshohi bo‘lsam, Bohir mening qulim bo‘lsa, men unga nima uchun qizimni berishim kerak? Ammo, lekin endi unga qizimni bermasam, ahdi-vafo qilganman, so‘z berganman. Oqibatini o‘ylamasdan, ahdimni elga berib, bu ishlarni fikr etmasdan, bekorga ahdnoma yozdiribman, oxirini o‘ylamasdan ish qilibman”,-deb ko‘p g‘am-qayg‘uga botdi. “Ammo meni bunday ahdi-paymon qilganimni kim ko‘ribdi, hech kim ko‘rgan emas. Agarda mabodo Bohirning xotini o‘g‘il tug‘sa nima bo‘ladi? Shuning uchun Bohirning boshiga tez etayin, uni gumdon qilayin,

deb o‘ylay boshladi”. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 6-bet).

Ushbu tasvirning o‘zidanoq, podshoning naqadar xudbin va tuturiqsizligi darhol namoyon bo‘ladi.

Sal o‘tmay u Zuhra bilan Tohirning uchrashuvini ta’qiqlaydi. Ammo unga ayg‘oqchilar Tohirning Zuhra bilan pinhona uchrashuvlarini etkazib turishadi. Natijada Tohirni sandiqqa soldirib daryoga oqizadi.

Tohir Bag‘doddan qaytib kelib yana Zuhra bilan uchrashgani xabarini unga etkazishdi. Oxir-oqibat Tohirni qatl qildiradi va Zuhraning ham o‘z joniga qasd qilishiga sababchi bo‘ladi.

U nima qilib bo‘lsa ham Zuhrani Qorabotirga uzatish rejasini amalga oshirmoqchi bo‘ladi. Biroq, muqaddas va ilohiy sevgi johillik ustidan g‘alaba qozonadi.

Odilshoh Totorga kelib, Boboxon podshoni mag‘lub qilgach, bu kishining jirkanch qiyofasi to‘la-to‘kis ochiladi. O‘z jonini asrash uchun Tohir bilan Zuhradan tiz cho‘qib kechirim so‘raydi. Albatta yoshlar, xususan Tohir uni kechiradi, Zuhrani ham kechirishga undaydi. Natijada Boboxon podsho hayotini saqlab qolish bilan birga, tavba qilgani uchun Odilshoh unga lavozimini ham qaytarib beradi.

### **Qorabotir obrazi.**

Boboxon podsho og‘aynisi shahzoda Ermanus degan kishining o‘g‘li Qorabotir qizini bermoqchi bo‘ladi. Dostonda tasvirlanishicha, Qorabotir “jangu jadalga o‘ktam yigit erdi va butun qo‘shinlarning ixtiyori uning qo‘lida erdi”. Podsho bir kuni barcha amaldorlarni chaqirib ularga shunday deydi.

-Menda bir gul kamola kelibdur. Uni mard botir yigitlarimdan biri Qorabotirg‘a bermaklikni ixtiyor etdim, -dedi. Ul vaqtda –vazir vuzarolar Qorabotirg‘a: “Qutlug‘ bo‘lsin” “O‘ng bo‘lsin”, dedilar. So‘ngra xazinadan Qorabotirg‘a bosh oyoq kuyovlik sarpolari berildi. Shu onda qozini keltirib, guvohlarni hozirlab, Zuhrajonni Qorabotirg‘a nikohlab qo‘ydilar. Qorabotir shohning qizini olg‘an odam bo‘lib, murtini tovlab, o‘zinda bor xazinani chiqarib, shaharlarni charog‘on etib, ahli arkoni-davlatina sarupo berib, ko‘p faqir va fuqarolarg‘a in‘omu sarpolar, tangalar hadya qildi. O‘n besh kecha-kunduz to‘y-

tomosha berdi. So'ngra kecha bo'lg'uncha Qorabotir Zuhrajonning ko'shkina borib, qo'l qovushtirib unga salom berdi va otasining Zuhrani unga bag'ishlag'anini ayon etdi. Bu so'zdan Zuhra qizning yuragina o't tushib, Qorabotirg'a g'azab bilan aytdiki: -Ey Qorabotir! Gavharni itning bo'ynig'a taqsang, gavhar ham yig'lar it ham. Sen kim men kim? Nakora ahmoq odamki, bizdan so'ramasdan ikkimizning o'rtamizda sulh-nikoh bog'lasa.

Go'yoki za'faronni eshakning oldiga to'kkanday bo'lur. Bor, yo'qol, ko'zimga ko'rinma! ("Oshiqnoma", 5-kitob, 55-bet).

Bu voqeadan keyin ham Qorabotir Zuhraga uylanish fikridan qaytmaydi. Tohir podsho farmoni bilan qatl etilgandan so'ng Qorabotir Zuhra endi meniki bo'ldi, degan qat'iy fikrga keladi va Zuhraning huzuriga keladi. U qizning oldida ta'zim, tavoze' bilan xursand turib, Zuhraga murojaat qiladi.

Zuhrajon, arzim bor, nedur gunohim,  
Hollarimdan xabar olsang ne bo'ldi?  
Menga rahm ayladi karamli shohim,  
Bu holimdin xabar olsang ne bo'ldi?

Tohirni ketdi deb tilga keltirma,  
Xush kuningni hasrat bila o'tirma,  
Qora kiyib, g'amgin bo'lib oh urma,  
Qorabotir ishqin bilsang ne bo'ldi? ("Oshiqnoma", 5-kitob, 122-bet).

Ammo Zuhra Qorabotirni yaxshi gaplar bilan aldab jo'natib yuboradi va sal o'tmay Tohirning qabri ustida o'zini halok qiladi. Qorabotir keyingi taqdiri dostonida quyidagicha beriladi:

"Endi so'zni lashkarboshi Qorabotirdan eshiting. Qorabotir Zuhraning so'ziga inonib, bori molini sarflab, do'stlaridan ham qarz olib, to'y shayini tutib yurgan erdi. Ammo bu voqeani eshitib, yuragiga tosh urib yig'ladi. Qabristonga borib qarasa, Tohir bilan Zuhra ikkalasi gumbazda yonma yon yotibdi. Har birining ustida bir qizil gul chiqib, ikkalasi osmonga chirmashib ketibdi. Qorabotir buni ko'rib, o'ziga dedi:-Ey Qorabotir! Sen Zuhra bilan Tohirning bir joyda bo'lganini qizg'anar erding yana bu erda ikkalasini ko'rding, bularning bir joyda

yotganini ko‘rganingdan o‘lganing yaxshi emasmi, deb Zuhraning mozoriga xanjar qo‘yib, o‘zini o‘ldirish uchun uch marta talpindi, ammo yuragi qiymadi. Shul erda bir oqsoqol kishi buni ko‘rib:-Ey Qorabotir, o‘zingni oshiq hisoblab, bu oshiqqlarga bir soat rohat ko‘rgazmading. Bular bir-birlariga jonlarini fido ayladilar, barakallo, joning shu qadar shirinmi, dedi.

Qorabotir bu xijolatli so‘zlarni eshitib, ko‘zini yumib, o‘zini xanjarning ustiga tashlab jon taslim qildi. Ul o‘lmas burun, men o‘lsam Tohir bilan, Zuhraning o‘rtasiga joylanglar, deb vasiyat qilgan erkan. Uning qarindoshlari bu vasiyatni barjoy qildilar.

Olloning qudrati bilan uning qabridan bir qora gul chiqib, avvalgi chiqqan ikki qizil gulga ozor berib, yaproqlarini pora-pora qilur erdi. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 126-bet).

Biroq, bu ahvol Zuhraning ruhini bezovta qiladi. Shu orada u otasining tushiga kiradi. Boboxon podsho qabr ustiga borib, Qorabotir jasadini boshqa joyga ko‘chirtiradi.

Binobarin, Qorabotir obrazi ismi-jismi bilan qora ishlarni amalga oshiruvchi shaxs. Uning raqiblik bilan bog‘liq qiyofasi xalq orasida ramziylik darajasiga aylangan.

Dostonda asosiy faoliyat ko‘rsatadigan obrazlarni asosan yuqoridagi kishilar doirasida qayd qilish mumkin.

Ammo Zuhra, Tohir va Mohimjonlar sevgisi bilan aloqador ko‘plab personajlar doston tarkibidan joy olgan.

Shulardan biri Tohirning onasi Shohixo‘bondir. Bu obraz asarning bir ikki epizodida ko‘rinib ketsa-da, kishida iliq taassurot uyg‘otadi. Shohixo‘bon Bohir vazirning xotini u eri o‘lgach, o‘g‘li Tohir bilan yolg‘iz qoladi. Shohixo‘bon Tohirni sandiqqa solib oqizishga farmon berilganda Boboxon podsho oldiga borib iltijo qiladi:

Podshohim, sanga arzim so‘ylayin,

Kel, mening bolamni ozod aylagil!

Seni yaratganga qurbon bo‘layin,

Kel, mening qo‘zimni ozod aylagil!

Tohirjonim bugun o‘n to‘rt yoshinda,  
Sen sababli dushmanlari doshinda,  
Umr sursin Zuhrajonning qoshinda,  
Sen mening Tohirim ozod aylagil!

Dunyo bir foniidir, bo‘lmas poyoni,  
Yutar bir lahzada shohni, sultonni,  
Xushnud etib yubar Shohixo‘bonni,  
Shoh, mening qo‘zimni ozod aylagil! (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 21-bet).

Shohixo‘bonning ushbu iltijolari podshoh tomonidan qat’iy rad etiladi. Lekin, onaizorning ushbu so‘zlari uning notavon qalbini, alamzada, mushfiq qiyofasini yaqqol namoyon qilib tinglovchi qalbida muhrlanib qoladi. Notavon, mushfiq ayollar obrazidan yana biri Zuhraning onasidir. Bu ayol ham dostonida bir-ikki joyda ko‘rinib ketadi.

Bu ayol eri Boboxon podshoga biror so‘z ayta olmaydi. Ne qilarini bilmasdan Zuhraga otangning irodasiga bo‘ysun, deya iltijo qiladi. Biroq, Zuhra bu so‘zni rad qiladi.

Zuhraning onasi qizining o‘z yori qabri ustida joniga qasd qilganini eshitib, ne qilarini bilmay gangib qiladi. Uning bu holati dostonida juda ta’sirchan berilgan:

Zuhraning onasi sochini yulib, bag‘rini poralab, ko‘zidan yoshi sel bo‘lib:-  
Vo hasrato, Zuhrajondan ayrildim, deb Zuhraning ustiga o‘zini otib, quchoqlab  
behush yiqildi. Bir zamonlardan keyin hushiga kelib, ko‘ksini qizi ko‘ksiga  
qo‘yib:-Ey farzandim, voh jigarbandim, deb zor-zor yig‘lab bir marsiya o‘qidi:

Notavon farzandim, aziz chirog‘im,  
Armon bilan g‘arib o‘lgan, Zuhrajon!  
Raqiblar makridan sindi budog‘im,  
Ishq yo‘lida shahid o‘lgan, Zuhrajon!

Men otanga aytar erdim bu dardi,  
Anglamadi, o‘zga yonga yugurdi,

Senga boqmay, raqiblarga dil berdi,  
Bir g'amxorsiz g'arib o'lgan, Zuhrajon!

Podshodur faqirlarning panosi,  
Qiziga qasd etdi nedur gunosi,  
Men ham Zuhra qizning g'arib onasi,  
Onam deyib g'arib o'lgan, Zuhrajon! ("Oshiqnoma", 5-kitob, 125-bet).

Ushbu sahnadan keyin bu mushtipar ayol doston voqealarida ishtirok etmaydi.

Dostonda ayollardan yana ikkita enaga va ikkita kanizlar esda qoladigan darajada tasirlangan. Birinchi enaga Zuhraga tegishli bo'lib, har bir malika o'sha davrda enaga qo'lida tarbiyalangan. O'sha enaga ularning maishiy-ma'rifiy hayotiga mas'ul qilib qo'yilgan.

Zuhraning enagasi Tohir bilan uning o'rtasidagi ishq-muhabbatni yaxshi anglaydi. Ularga qo'lidan kelgancha yordam beradi. Lekin podshohning ra'yiga qarshi bora olmaydi.

Bu jafokash ayolning Zuhra va Tohirga bo'lgan mehr-muhabbati Tohirning Bag'doddan qaytib kelib, Zuhraning bog'ida pinhona yashab yurgan paytida ayniqsa namoyon bo'ladi. U Tohirni kunduzi yashirib, kechasi Zuhraning huzuriga keltiradi. Tohir kelganidan keyin Zuhra birinchi bo'lib enagasidan yordam so'raydi.

-Ey enaga, ikki oshiq sening xizmatkoringdir endi bizga bir maslahat bersang.

-Bolam Tohiring xush kelibdur, ko'zing oydin bo'lsin, sen ani menga ber, men uni hech kim bilmaydigan joyda pinhon saqlarman, deb bir abyot aytdi, Zuhra javob berdi:

**Enaga:**

Agar otang bilsa etgan ishimni,  
Sening uchun qurbon qilar boshimni,  
Tilka pora etur aziz loшимni,  
Sening bu dardiga darmon aylayin.

**Zuhra:**

Qadrim bilgan qadrdonim sen mening,  
Mahram enam, shirin jonim sen mening,  
Zuhra deyar, mehribonim sen mening,  
Enajon, Tohirim senga topshirdim. !

(“Oshiqnoma”, 5-kitob, 108-109--betlar).

Biroq, enaganing bu sirini podshoga etkazuvchi chaqimchilar topiladi.  
Natijada Tohir qatl etiladi.

Mohimning enagasi ham doston tinglovchi yoki o‘quvchida iliq taassurot qoldirad. U ham Mohim bilan Tohir o‘rtasidagi sevgining ijobiy tomonga siljishida bor kuchini ayamay yordam beradi. Uning jonkuyarligi Tohirning Mohim huzuridan Totorga jo‘nashi oldidan bo‘lib o‘tgan xayrlashuv sahnasida juda yorqin ko‘rinadi. Enaga hatto Tohirni bevafoqlikda ayblaydi va unga achchiq so‘zlarni ham aytadi.

**Enaga:**

Ketarman deb, bizdan ruxsat tilarsan,  
Bel bog‘labsan Zuhrajonning yo‘lina.  
Baxti qaro notavonni naylarsan,  
Rahm etmaysan Mohimjonning holina.

**Mohim:**

Kechmisham dunyoda sim ila zardan,  
Yoshim oqdirarman bu chashmi tardan,  
Zuhra deb Tohirim ketsang bu erdan,  
Boqmasman dunyoning kunu oyina.

**Tohir:**

Boshima tushubdur ayriliq kuni,  
Senga fido qildim jon ila tani,  
Rozi bo‘l Boboxon o‘ldirsa mani,  
Yig‘lama Mohimjon, ketsam kelarman.

**Enaga:**

Mohim sango bo‘ldi daryoda rahbar,

Sandiqdan chiqardi keldi deb dilbar,

Bag'rida dog' qo'yding to ro'zi-mahshar,

Fahm etmadi sen makkorning olina. ! ("Oshiqnoma", 5-kitob, 72-73-betlar). Kanizlar masalasiga kelsak, Zuhrada ham, Mohimda ham ularga jonini fido qiluvchi fidoiy kanizlar xizmat qiladi. Zuhraning Gavhar ismli kanizi hatto Tohirni topib kelish uchun qalandar kiyimini kiyib, erkak qiyofasida el oshib safarga chiqishga bel bog'laydi. U shunday deydi:

- Agar Tohirni keltirmasak, Zuhraning dardiga mundin boshqa chora yo'qdur,- dedi. Shunda boshqa kanizlar:- sen hammamizning sarkamizsan. Bu ishning chorasini sendan boshqa topa bilmas, - dedilar. Gavhar: - Men bu ishning chorasini toparman. Erta tong bilan turib, Zuhraning xazinasidan bir oz tillo-kumush olib, qalandar eshigiga kirib, shaharma- shahar kezib, Tohirni izlab, qaerda bo'lsada, topib keltirarman. Agar topmasam o'zim ham qaytib kelmasman. Inshoollo albatta toparman- dedi. Gavhar qiz, o'n to'rt yoshli, kamola etgan, uzun bo'yli sarvi bo'yli, go'zal bir qiz erdi. U qo'lga ko'zgu oynani olib, yuzini ko'rganda, o'z-husniga o'zi hayron qolib "Men o'n to'rt kechalik oy misoli chiroylidurman"-deb o'ylar erdi.

Kanizlar:-Ey Gavhar, sen bu maslahatni ma'qul ko'rgan bo'lsang, Zuharani uyg'otaylik-dedilar. Gavharjon:-Men boshimni Zuhraga sadaqa etarman, deganidan so'ng Zuhrajonni uyg'otdilar.

Zuhrajon ohu-faryod etib yig'lab turdi. Kanizlar qilgan maslahatlarini unga bayon etdilar. Zuhrajon hayojonlanib ham o'tirib, ham turib, Gavharning bo'ynidan quchoqlab:-Senga oq yo'q bo'lsin! Tohirjonni ko'rsang mening ahvolimni bir-bir ayt. Agar tirik bo'lsa-o'zini, o'lib ketgan bo'lsa tanidan bir nishona keltirarsan va aytarsanki: "Oshiq bo'lgan odam zulm ko'rmakligi begumondur. Bog' ichida olma norim kamolga kelibdir. Zolim Qorabotir har kun kelib, olma -norimdan yulajak bo'lib, yuz-ming qayg'u-hasratda qo'yodir. Men bog'imning darvozasiga qoravul qo'yib, orom olarman. Shohning zulmi og'ir kelib, zolim Qorabotir menga qo'lini etirajak bo'lsa, o'zimni o'ldirarman deb qo'rqarman. Tohirjon muningdin or-nomusg'a, xiyonatga qolmasin! "-deb yig'ladi. Gavhar qiz:-Agar Tohirni keltirmasam, nomard bo'lay,-deb ahd qildi.

Shundan so‘ng Gavharni yubormoq uchun, yo‘l anjomini hozirlab, unga qalandar libosini kiydirib, bir xurjun tillo bilan nortuyaga mindirib, Zuhra qiz kanizlari bilan qaytdilar. Tohirni juda sog‘inib, bir g‘azal aytdi:

Gavharjon sen ketsang yor so‘rog‘ina,  
Borsang Zuhra yoring omon –degaysan.

Seni deyib o‘tlar tushib qalbina,

Bag‘ri biryon ko‘ksi giryon –degaysan. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 58-59-betlar).

Xuddi shu paytda Vohid qalandar bularga yo‘liqib, Tohirni topib kelishni o‘z zimmasiga oladi.

Mohimjonning Gulira’no ismli kaniziga ham kitobxonda yaxshi taassurot qoldiradi. U Mohimjonning tushini ta’bir qiladi:

Alqissa, Mohimjon so‘zini tamom etdi. Mohimjonning qirq kanizlari bor erdi. Ularning ichinda to‘rt boshlig‘i bor erdi. O‘zlari juda go‘zal erdilar. Birining oti Sadaf, birining oti Gulzor, birining oti Gulira’no va yana birining oti Gulzebo erdi. Bu to‘rt qizning har biri o‘n qizning boshlig‘i erdi.

Mohim qiz xizmatini shu to‘rt qizga buyurar erdi. Qizlar:

-Ey dugonalar, bu bir ulug‘ voqeadir, maslahat bering”,-deb bir-bir kengash qildilar. Gulzebo –Bizlar bir yoshi kichik odam bo‘lsak,-dedi. Unda Mohimjon aytdi:

-Ey Gulira’no sening bu kanizlardan aqlingda, husningda shoyi-ziyod. Bu tushni sen yo‘r-deb buyurdi. Gulira’no kaniz bir kosa may ichib, sarmast bo‘lib, zehnini jamlab:-Ey bibim, senga ollo uzoq umr bersin, umringni ziyoda qilsin! Bu tushingning ta’birini men ko‘p yaxshi aytarman, deb bir g‘azal o‘qidi:

Bag‘rina sanchilmish bu gulning xori,  
Magar sandan o‘zga yori bor, yori,  
Ne uchun go‘zlamish ul Mashriq sari,  
Sening sari to‘lg‘anmamish soylari.

Men ta’bir ayladim ko‘rgan tushingga,  
Tog‘larning tarloni qo‘nar boshinga,

Damba-damdan yoring kelar qoshinga,

Ul kun tutar tomoshali to‘ylari. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 39-40-betlar).

Gulira’no Mohimjon bilan Tohir munosabatida hamisha ezgu ishlarning boshida yuradi. Bu obrazlar garchi epizodik tarzda ko‘zga tashlansalarda asar voqealarining yaxshilik tomon yo‘naltirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydilar.

Dostonda Tohir va Zuhralar uchun beminnat xizmat qiluvchi obrazlardan yana biri Vohid qalandar obrazidir. Bu obraz aslida xalq ijodiyotida an‘anaviy tarzda beriladigan qisod (xabar beruvchi) obrazidir.

Vohid ham sevguvchi timsolini o‘zida mujassamlashtiradi. U tasadifan Zuhra tomonidan Gavhar ismli qizni Tohirni izlab topib kelishga yuborayotgan bir vaqtda paydo bo‘lib qoladi va bu xizmatni ado etishni o‘z zimmasiga oladi. Bu lavha dostonda shunday beriladi; Zuhra Vohidga yuzlanib o‘z dardini bayon etadi. Zuhraning nomini eshitgan Vohid unga shunday deydi!

-Ey Zuhrajon! Bir oz sabr et, senga bir arzim bor, istasang aytayin!-dedi. Zuhrajon:- Ayt, ne arzing bor!- dedi. Shunda Vohid devona:- Gavharjon bir qimmatbaho toshdur, unga hamma odam xaridordur. Gavharning sirtini har zot bilan bezasang ham ichidan ma’lum bo‘lar.

Agarda siz Gavhar qizni qalandar sifatida uzoq yurtlarga yuborsangiz yo‘lda ne ko‘p qaroqchilar ko‘p, ular buni tutarlar. Albatta, Gavhar har kimning qo‘liga tushsa, bo‘ynug‘a tumor etib taqarlar, sening xizimating ham bitmas, Gavhar qizdan ham ayrilarsan, dedi. Agarda so‘zimni qabul etsang, shul xizimatingni Gavhar qizga emas menga topshirsang, shul xizimatingni men bitirarman. Buni eshitgan Zuhra unga she’r bilan murojaat qiladi.

Ko‘nglim talvas etar yorni,

Mavj urar ishqning bozori,

Kamol topmish olma - nori,

Bulbulim yo‘q qilsa zori,

Oshiqning nomusi ori,

Bu kun edi yildan bari,

Korim yorning ohi zori,

Ul chashmi giryonni gatii.

Albatta dostonda Vohid qiyofasi batafsil tasvirlanmasa ham uning amalga oshirgan ishlari ezgulikning bir nishonasi sifatida baholanadi. U Tohirni topib, unga Zuhraning hol-ahvoli, chekkan iztiroblari, sog‘inch hislari haqida xabar etkazadi. Bundan behad shodlikka to‘lgan Tohir Vohid qalandar bilan savol-javob qilish orqali barcha voqealardan ogoh bo‘ladi:

Bu obrazlardan tashqari dostonda Mullanafas va uning xotini, bog‘bonlar, jallodlar, lashkarboshlar, saroy ayonlari, qaroqchilar va boshqa mifologik obrazlar ham ishtirok etishadi. Bularning hammasi umumiy sujetning yaxlit holda namoyon bo‘lishida o‘ziga xos rol o‘ynashadi.

Ikkinchi bobda ko‘rib chiqilgan masalalar bo‘yicha quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

1.Dostondagi obrazlar son jihatidan ko‘p va rang barangdir. Doston markazida asosan Tohir, Zuhra, Mohimjonlardan iborat uchlik obraz turadi. Tohir Zuhra bilan chin sevgi asosida faoliyat ko‘rsatsa-da, Mohimdan ham ko‘ngil uza olmaydi. Oxir –oqibat u bu qizlarning har ikkalasiga ham uylanadi.

2.Asarda ikkita podsho obrazi berilgan bo‘lib, ularning xarakter-xususiyati bir-biri bilan mutlaqo qarama-qarshidir. Odilshoh qanchalik insonparvar va bag‘ri keng bo‘lsa, Boboxon shu darajada shafqatsiz va johildir. U Tohir bilan Zuhraning sevgisini poymol etib, ularning halokatiga sababchi bo‘lgan bo‘lsa, Odilshoh ularning murod-maqsadiga etishida barcha choralarni ko‘radi.

3.Dostondagi salbiy obrazlarning boshida Qorabotir turadi. U xudbin, maqtanchoq va kibru havoga berilgan shaxs bo‘lib sevgi bilan hisoblashmaydi. U o‘z qiyofasi bilan shunday razilki, hatto Tohir va Zuhralarga narigi dunyoda ham tinchlik bermaydi. Oxirida uning qabrini Tohir va Zuhra qabrlari o‘rtasidan chetga olib dafn etishadi.

4.Doston tarkibida Tohirning, Zuhraning, Mohimning onalari, enagalari, kanizlarining ham batafsil bo‘lmasa-da, esda qolarli darajadagi obrazlari berilgan. Ayniqsa onalarning jafokash hayoti, feodalizmning shafqatsiz qonuniyatlari ayollar obrazi orqali butun ko‘rinishlari bilan bo‘rtib turadi. Binobarin, dostondagi asosiy g‘oya unda faoliyat ko‘rsatadigan barcha obrazlar orqali mahorat bilan tasvirlab berilgan.

### III BOB DOSTON BADIYYATINING AYRIM MASALALARI

#### 3.1. O‘xshatishlar.

“Tohir va Zuhra” dostonining badiiy tili nihoyatda bo‘yoqdor ishlangan. Undagi ishlatilgan tasvir vositalari boy va rang barangdir. Doston matnida o‘xshatishlar, sifatlashlar, ramzlar, mubolag‘alarning ajoyib namunalari uchraydi.

Badiiy asarni o‘xshatishlarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Doston matnida uning turli ko‘rinishlariga murojaat qilingan. O‘xshatishlarni ro‘yobga chiqarishda turli-turli qo‘shimchalar ishlatilgan.

1-day, -dek qo‘shimchalari.

Vohid aytar, boshim soldim maydona,

Karbalo itiday kezdim har yona,

Shahri qizg‘a oshiq bo‘lib g‘oyibona,

Ochilmag‘an targ‘unchani izlarman. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 67-bet).

Qomati yoydek egildim,

Magar ishq ostinda qoldim,

Majnundek sarg‘ayib so‘ldim,

Eta bilmay Layli yora. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 78-bet).

2. Dostondagi o‘xshatishlar vositasi faqat qo‘shimchalar yordamida emas, balki ko‘makchi so‘zlar orqali ham ro‘yobga chiqadi. Dostonda ko‘makchi so‘zlarning go‘yo, mengzar, misli, misoli, kabi tarzidagi shakllari uchraydi.

**Go‘yoki** ko‘makchisi:

Ketdi yori qoshidan, daryo bilan majlis qurib,

Ko‘zlari izinda giryon, chor tarafga termulib,

**Go‘yoki** parvonadur otash aro o‘zin urib,

Tohiridan ayrilib, belin bukib, bo‘yin burib,

Yo Rahim, sen Zuhra jonim qayg‘udan ozod qil.

(“Oshiqnoma”, 5-kitob, 31-bet).

**Misoli** ko‘makchisi:

Ko‘shkda tunlari bedor, chekdigi ohu-zordur,

Sabrning uyin buzib, almudom beqarordur,

Ko‘z yoshining rangidin gul yuzi lolazordur,  
Ko‘shki **misoli** zindon, jahon ko‘zina tordur,  
Men sening nozli yoring, beqaror holda ko‘rdim.

(“Oshiqnoma”, 5-kitob, 67-bet).

**Misoli** ko‘makchisining **misli** shakli:

Ko‘zda yoshim **misli** daryo aylading,  
Osiy bo‘lding, o‘zing gumroh aylading,  
Qanda qayg‘u bo‘lsa hamroh aylading,  
Shum Qorabotirning ko‘ngil xushiga.

(“Oshiqnoma”, 5-kitob, 137-bet).

**Kabi** ko‘makchisi:

Husni huru la’li firdavsning sharobi kavsari,  
Yuzi to‘lin oy **kabi**, kiprigi anjum lashkari,  
Naylayin, g‘arib boshim g‘avg‘og‘a soldi bir pari,  
Fikr etib, ko‘ngil ketib, ishq o‘tin otdi men sari,  
Ul qadi-shamshod yuzi ruxsordin ayrilmisham.

(“Oshiqnoma”, 5-kitob, 48-bet).

**Mengzar** ko‘makchisi:

Totor deb so‘zlagan tilingdan do‘nam,  
Sendanam ortiqroq sargardon manam,  
Almudom bir qizning ishqinda yonam,  
Sochi tunga **mengzar**, yuzlari oyg‘a. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 66-bet).

O‘xshatishlar uchun tanlangan ob’ektlar kishi diqqatini o‘ziga tortadi. Yor go‘zalligini tasvirlashda ko‘proq oy, yulduzlar tanlanadi. Qayg‘u, g‘am, iztirob ohanglarini ifodalash uchun parvona, it, zindon, yoy kabi so‘zlarga murojaat etiladi. (Karbaloning itiday, qomati yoydek, ko‘shki misoli zindon kabi.)

Dostonda sifatlashning ajoyib namunalari qo‘llanilgan. Ayrim bandlarda sifatlashlarning ketma-ket ishlatilishi misralarning jozibadorligi va o‘ynoqiligini ta’minlashda rol o‘ynagan:

Sarvi qad, ruxsori xush, siymin badan, gul yuzli yor,  
Istadim shirin visoling, dardga qoldim beshumor,

Samoning anvari san, er yuzinda lolazor,  
Almudom vasling tilab, tan ichra ko'nglim beqaror,  
Yorni deb ag'yordin mahrumi davron o'ldi, kel!

(“Oshiqnoma”, 5-kitob, 64-bet).

Quyidagi bandda ham mazkur holat ko'zga tashlanadi:  
Xush so'zing, xushro'y yuzing, nargis ko'zing jonimdadur,  
Qosh qoqib, egri boqib, bu shum raqib yonimdadur,  
Men sening tersam guling, bir istaging qonimdadur,  
Shum raqibning shodlig'i bu zori giryonimdadur,  
Zuhra der, ko'p yig'latib, itlarga zor etding mani.

(“Oshiqnoma”, 5-kitob, 28-bet).

Bir tizimga solingan sifatlashlar faqat muxammaslardagina emas, balki murabba'larda ham ko'plab uchraydi. Bu usulda bitilgan she'rlar ohangdor, ravon, badiiy estetik jihatdan ta'sirchanligi bilan ajralib turishadi:

**Qora ko'zli, qalam qoshli** nigorim,

**Bahorim, bo'stonim, gulim, gulzorim,**

Sensiz hech bir joyda etmas qarorim,

**Jallod ko'zli** navbahorim, qol endi. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 83-bet).

Sifatlashlarning original namunalari dostonning nasriy qismida ham tez-tez ko'zga tashlanadi:

“-Ey Tohirjon! Bugun bizdan ayrilib, Totorga ketmoq istarsan, ammo sen bizning yuragimizdan joy olgansan, mol-mulk, shon-shavkat, ot-asbob, gul-sunbul, to'ti qushlar kerak bo'lsa va inja bel, bodom qaboq, pista dahon, mo'rcha miyon kerak bo'lsa-hammasi bizda topilar. Mohimjonni muncha xor-zorlik bila otashi hijronga tashlama, deb ko'p tavallo qildi”. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 77-bet).

Voqealar tasviri shohlar saroyi va malikalar ishtirokida kechganligi sababli sifatlashlarning tanlanishi ham shohona va dabdabalidir:

Shundan so'ng Tohirjonni yuvintirib, tarantirib, bosh-oyoq qimmatbaho sarpolar kiydirib, boshig'a murassa' toj kiydirib, beliga oltin kamar bog'ladi. Tohirjon avvalgidan ham ko'rkli yigit, uning ko'rkiga yanada ko'rk qo'shildi. Ammo bularning hech biri Tohirjonni qiziqdirmadi.

(“Oshiqnoma”, 5-kitob, 44-bet).

Matnda ushbu sifatlashlarning qo‘llanilishi badiiy nutqning tantanavorligini ta’minlaydi.

### 3.2.Mubolag‘alar.

Xalq ijodiyotida mubolag‘aviy tasvir asosiy o‘rinni egallaydi. “Tohir va Zuhra” dostonida ham tasvirning bu usuliga alohida e’tibor qaratilgan. Mubolag‘a usuli nazmda ham, nasrda ham faol ishlatiladi. Doston ishqiy-sarguzasht xarakterida bo‘lganligi sababli uning tarkibidagi mubolag‘alarning barchasi ishq-muhabbat bilan bog‘lanib ketadi. Doston ishtirok etuvchi asosiy obrazlarning dard-alamlari, hijron va ayriliqlari, qalb ehtirolari she’riy misralarga singdirib yuborilgan. Bunga Tohir bilan Vohid dialogi misol bo‘la oladi:

#### Tohir:

Jonon uchun jon chekib, shirin jonim berurman,  
Yoninda ko‘rsam ag‘yor, o‘zim o‘tg‘a ururman,  
Yolg‘iz boshim yo‘linda, xizmatinda tururman,  
Chin oshiqi diydorman, yor jamolin ko‘rurman,  
Sen mening nozli yorim nechuk ahvolda ko‘rding?

#### Vohid:

Kecha-kunduz uyqu yo‘q, ko‘shki ustinda bedor,  
Sitam o‘qin otarlar degra-doshinda ag‘yor,  
Yor salomin keltirdim, qoshinda qildim izhor,  
Lol bo‘libdur tillari so‘zlamas to‘ti guftor,  
G‘am-alamg‘a g‘arq o‘lmish, bo‘yla ahvolda ko‘rdim.

(“Oshiqnoma”, 5-kitob, 68-bet).

Tohir ishq-muhabbatga shunday berilganki, uning har bir so‘zi, Zuhraga nisbatan aytgan har bir murojaati she’r misralarida kuchli mubolag‘alar orqali namoyon bo‘ladi.

Sevdigim, har so‘zingga, so‘zla **shirin jonni beray**,  
Har nuqta xolingga men **Eronu Turonni beray**,  
Har soching bir torina **hur ila g‘ilmonni beray**,  
Sayr etib, boqishinga **Balxu Badashonni beray**,

Qilayin man bu **jahonni sanga qurbon bari gal.**

(“Oshiqnoma”, 5-kitob, 9-bet).

Tohirning ishq bilan yongan Zuhra monologlarida ham ishq-muhabbat bilan bogʻliq mubolagʻaviy ehtiros balqib turgan nidolarni koʻrish mumkin. Tohir sandiqqa solib oqizilgandan keyin Zuhraning nolishlari ayniqsa kuchayadi va mubolagʻali ehtirolarga aylanadi:

Ketmakka belim bogʻlarman,  
Qonli jigarim dogʻlarman,  
Sevar yor uchun yigʻlarman,  
Gʻayri bir kasbi-korim yoʻq.

Zuhra der, baxtim qarodir,  
Yuragim yuz ming yarodir.  
Siynalarim ming poradir,  
Yuray desam, madorim yoʻq. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 23-bet).

Zuhra monologlaridagi iztirobli nidolar boʻrtirilgan lavhalarda Mohim tilidan bayon qilingan sheʼrlarda ham namoyon boʻladi:

Mango zindondir bu jahon,  
Sensiz mango boʻlmas davron,  
Yoqar hardam roʻzi hijron,  
Qolmanam, sendan qolmanam.

Mohim deyar, yondim bugun,  
Siynamdadur dogʻi tugun,  
Oʻrtar hijron boʻgʻim-boʻgʻim,  
Qolmanam, sendan qolmanam. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 84-bet).

Mubolagʻali tasvirlar dostonning nasriy qismida ayniqsa kuchli berilgan. Masalan Tohir bilan uchrashgan Vohid Zuhraning ahvolini Tohirga shunday tarzda tasvirlaydiki, unda ishlatilgan mubolagʻalar asar matniga zeb bagʻishlaydi:

Alqissa, Tohirjon bilan Vohid qalandar soʻzlarini tamom etdilar. Vohid aytdiki: -Ey yigit, agarda Tohir sen boʻlsang, men Totor viloyatidin senga kelgan

sovchi bo‘lurman. Totor viloyatining qizlarining shahanshoi Zuhrajonning **yuragi qon, jigari biryon, diydasi giryon, aqli hayron, bog‘lari besayron, oshuftai davron, ko‘shki o‘zina zindon, ishi afg‘on, chekdigi fig‘on, dushmanlari shodon, ko‘ngli alamda, ko‘zlari namda, xotiri g‘amda, joni sitamda**, dunyodan kechib, kecha-kunduz sening yo‘linga qarab, sening orzuingdadur. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 68-bet). Tohir daryoga oqizilgandan keyin Bag‘dod shahridan o‘tayotib o‘sha mamlakt podshosining qizi Mohimjon va uning kanizlariga yo‘liqadi. O‘shanda sandiqni daryodan tortib olish lavhasi berilgan bo‘lib, unda ertaklarga xos mubolag‘alar qo‘llanilgan:

“-Daryoda bir zot oqib kelur. Agarda u sandiq bo‘lsa, ichi meniki, tashqarisi sizlarniki,-dedi. Singlilari qabul qildilar: qarab ko‘rsalar oqib kelayotirg‘an narsa sandiq erkan. Mohimjon: -G‘avvoslarg‘a ayting, sandiqni suvdan chiqarib olsinlar, deb buyurdi. G‘avvoslar: -Taqib tortish uchun bir arqon kerak-dedilar. Arqon topishmadi. Ammo Gulira‘noning **qirq quloch sochi bor erdi**. Bu sochni ko‘rgan odam hayron qolar erdi. O‘rilgan sochining kokillari nozik bo‘lsa ham, qalinligi shunday berk ediki, **har yonidan o‘n kishi tortsa ham uzilmas erdi**. Sandiqni Gulira‘noning sochiga bog‘lab, daryoning qirg‘og‘iga chiqardilar. Ko‘rsalar sandiq mum bilan puxta qilib mahkamlangan, sirtiga suv kirmasligi uchun yaxshilab ishlov berilgan”. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 41-bet).

**Poetik ramzlar.** Dostonda poetik ramzlar ham faol qo‘llanilgan. Bu tasvir vositasi nasrda ham nazmiy qismda ham tez-tez o‘zini namoyon qilib turadi.

Ma‘lumki, ramziy ifodalarda ichki bog‘lanish orqali tasvir ro‘yobga chiqadi. Zuhra Tohirni sog‘inib eslar ekan, bog‘, meva, olma, nor va ularning pishib etilganligi haqida so‘zlar ekan, bu tasvirning negizida o‘zining kamolot yoshiga etgani haqidagi ramziy ifoda yotadi.

Alif qaddim do‘ndi bir nav nihola,

Ne javob berarman kelgan shamola?

Meva, olma-norim kelmish kamola,

Yorim kelib qo‘nsin gul butog‘inda. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 51-bet).

Zuhra ramziy tasvir ishlatganda o‘zini gul, gul butog‘i timsolida bersa yorini shamchirog‘, shunqor kabi timollar orqali tilga oladi.

Xalq ijodiyotida bunday ramziy ifodalar an'anaviy tarzda faol qo'llaniladi. Shunqor ramzida lochin kabi kuchga to'lgan yigit gavdalansa, shamchiroq ramzida oila tushunchasi mujassamlashadi:

Yorim ketdi, qoldim munda qon yig'lab,  
Ayriliq o'tig'a jigarim dog'lab,  
Qolardi ko'shk uzra har dam so'rog'lab,  
Ko'lim ko'rki, bo'z shunqordin ayirdi.

Man bilmadim, ne girdobg'a etibdur,  
Girdob ichra qaysi baliq yutibdur,  
Shamchirog'im qaysi loyg'a botibdur,  
Falak meni nomus-ordan ayirdi. ("Oshiqnoma", 5-kitob, 27-bet).

Dostonda bulbul-oshiq; gul-ma'shuqa ramzi sifatida doimiy ramzga aylangan:

Bir bulbul ko'nmish gulinga,  
Besh kun sayr etar eliga,  
Nogahon tushsa qo'linga,  
Bir gavhardir bahosi yo'q. ("Oshiqnoma", 5-kitob, 37-bet).

Ushbu ramziy ifodalar mohim bilan Tohir aytishuvida ayniqsa yorqin namoyon bo'ladi:

### **Mohimjon:**

Bulbul bo'lsang, guluzoring qaerda?  
Gavhar bo'lsang, xaridoring qaerda?  
Oshiq bo'lsang sevar yoring qaerda?  
So'zla jonim, qaysi bog'ning gulisan?

### **Tohir:**

Gulning bulbuliman husni-xazona,  
Chiqardim ko'shkina zinama-zina,  
Bugun judo bo'ldim ko'nglim kamina,  
Ko'z yoshimni giryon etib kelarman. ("Oshiqnoma", 5-kitob, 42-bet).  
Ramziy ifodalarda salbiy obrazlarga nisbatan qarg'a bilan zog' timsoli

tanlanadi:

Yaratgan eshitsin og‘u-zorimni,

Unga topshirmisham harna borimni,

Terdiging tar guling olma-norimni,

Ravo ko‘rma **qarg‘a** bilan **zog‘lara**. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 20-bet).

Dostonning nasriy qismida ham ramziy tasvirga keng o‘rin berilgan. Ushbu tasvirda ham ramzlar she‘riy qismdagi timsollar bilan umumiylik kasb etadi: “Bu so‘z Zuhrajon va Gavhar qizg‘a maqul tushdi. Ular maslahatlashib Gavharni qaytarib, Vohidni yubormoqchi bo‘ldilar. Zuhrajon Vohid qalandarga behad tillalar berib, yilmoyani ham topshirib: -Ey qalandar! Shariatda sharm yo‘q. Mening **olmayu-norim kamola kelibdur**, munda zolim Qorabotir xaridor bo‘lib, har kun kelur. Ammo bir bahonalar bilan o‘zimni saqlarman. Agarda **meva pishib o‘tlashib ketsa, tulki-shog‘ollar** payxon etib zoya etar. Shuning uchun Tohirjon tez etib kelsin,-deb Vohidg‘a oq fotiha berib, zor-zor, chun abri navbahor yig‘lab bir g‘azal aytdi”. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 62-bet).

Mazkur parchada “olmayu-norning kamolga kelishi” Zuhraning kamoliga nisbatan qo‘llanilgan. “Tulki-shog‘illar” esa raqiblar timsolidir.

Tohir va Zuhralarning fojeali o‘limi hamda Qorabotirning halok bo‘lishi, ularning qabrlari tasvirida ham ramziylik yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Podsho bu so‘zni eshitib, seskanib uyg‘ondi. Xizmatkorlariga:-Ot hozirlang, deb buyurdi. Ot hozirlandi, podsho otga minib, vazirlari birlan qabrning ustiga bordi. Qarasa, Tohir bilan Zuhraning qabrlari ustidan ikkita **gul** chiqib osmonga chirmashgan, har birining boshida bir **bulbul** bor. Ammo Qorabotirning qabri ustidan bir qora gul o‘sib, gullarga ozor berib turibdi, uning ustida esa bir **boyqush** faryod urib o‘tiribdi. Podsho bularni ko‘rib hayron qoldi va Qorabotirning bularga dushman ekanini endi bildim deb, uning mozorini yiqishga buyruq berdi. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 127-bet). Bu parchada ikkita gul va bulbul Tohir va Zuhralar timsoli bo‘lsa, qoragul va boyqush Qorabotir timsolidir.

**Metaforalar.** Dostonda metaforalardan samarali foydalanilgan. Ma’lumki, ramziy ifodalarda bilvosita o‘xshashlik kuzatilsa metaforalarda ichki, yashirin qiyoslash asosiy o‘rinni egallaydi.

Dostonda yor go‘zalligini tasvirlash tamoyili birinchi o‘rinda turganligi

uchun aksariyat hollarda istaforalar ob'ekti gul, olma, anor, oy kabi go'zallikni ifodalovchi narsalardan tanlanadi.

Olma, anorga nisbat berilgan metaforalarda yorning ko'ksi nazarda tutiladi:

Bermanam yuz ming tumana **zulfi toringni** sani,

Oq ko'ksingda bitgan **olma, anoringni** sani,

Tutmasam qolar bukun jonimda armon, bari gal.

(“Oshiqnoma”, 5-kitob, 9-bet).

Ushbu parchada yorning sochiga nisbat berilgan “Zulfi tor” metaforasi ham mavjud. Dostonda sochga nisbatan ayrim hollarda “shomor” (shoh mor-ilon) o'xshatish ob'ekti qilib olinadi. Bu qiyoslashdagi yashirin o'xshatish imonning uzunligi va tovlanib turishi bilan aloqadordir.

Layli, Shirin sencha bordur-

Desalar, ul so'z bekordur,

Telba ko'nglim vahmdordur,

Yuzda ikki shomoringdan. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 16-bet).

Ko'p hollarda metafora ob'ekti oy bilan bog'lanadi:

Otashi ishq ichra kuygan men kabi ovvora yo'q,

So'zlasam dardimni men, bir oshiqi bechora yo'q,

Mahvashimdek foniy olam ichra bir **mohi pora** yo'q,

(“Oshiqnoma”, 5-kitob, 48-bet).

Ko'pgina metaforalarda oy va quyosh ma'shuqaga nisbatan o'xshatish ob'ekti sifatida xizmat qiladi:

Biri **oy**, biri **kun** eto bilmasman,

Ikkovin bir qo'lda tuto bilmasman,

Shakar lablaridan yuto bilmasman,

Misoli qo'llarning so'nosi qizlar. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 76-bet).

Tohir tilidan aytilgan ushbu she'riy parchada oy Mohimjonga kun Zuhraga nisbatan o'xshatish ob'ekti qilib olingan.

“Tohir va Zuhra” dostonida fonetik vositalarga ham e'tibor kuchli. Unda alliteratsiyalarning go'zal namunalari uchraydi.

Birisi qiymirar, biri qosh qoqar,

Biri quyosh, biri oy bo‘lib boqar,

Birisi suv separ, birisi yoqar,

Jonimning ofati, balosi qizlar. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 76-bet).

Dostonning she’riy parchalarida so‘zlarni takrorlash usuli orqali alliteratsiya hosil qilishga ahamiyat berilgan. Quyidagi muxammasdan olingan parcha bunga misol bo‘la oladi:

Mohimim Bog‘i Eram, men eramning bulbuli,

Zuhrajon shohi janhondur, men ki shohning bir quli,

Ikki dilbarning balosin qismat etmish avvali,

Biri nayning shakkaridur, biri jannatning guli,

Oyi ruxsori bila xurshidi xovarim kerak.

(“Oshiqnoma”, 5-kitob, 77-bet).

Doston she’riyatida xalqning boy leksikasidan foydalanib, tuyuq shaklidagi ta’sirchan to‘rtliklar yaratilgan:

El kelsa, zulfing dog‘itur,

Siynamda ishqing dog‘idur.

Etmasman yorning dog‘idur,

Go‘zal vafodorim keldi.

Jilvasi olam noridur,

Iltifot bizdan naridir,

Qo‘linda olma-noridur,

Ko‘zlari xunxorim keldi. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 10-bet).

Ushbu to‘rtliklarning har birida qofiyalashgan so‘zlar semantik jihatdan o‘zgachalik kasb etadi.

Birinchi banddagi birinchi qofiya (dog‘itur) sochni shamol ta’sirida to‘zg‘ishi ma’nosini beradi. Ikkinchisi “ishqning dog‘i, yarasi”, ma’nosini, uchinchisi tag‘i, dag‘i, tag‘in so‘zlari bilan aloqador bo‘lib, uzoqda, narida ma’nolariga ega.

Ikkinchi banddagi birinchi qofiya go‘zallik, ikkinchisi, hiyla, uchinchisi oldiga ma’nolariga ega. Uchinchi qofiyadagi so‘z arab yozuvida olliga tarzida

yozilgan. Oldiga soʻzi shevada shu shaklda ham aytiladi. Bundan tashqari bu soʻz arab alfavitida bitta “L” tovushi bilan yozilib ustiga tashtid belgisi qoʻyiladi. Natijada soʻz shaklan “olina” tarzida koʻchada va tuyuq hosil qiladi.

Uchinchi bandedagi qofiyalashgan soʻzlarning birinchisi nor-oʻt-olov, bu erda esa shuʻla maʼnosida, ikkinchisi narida-uzoqda maʼnosida kelgan. Ikkinchi qofiyadagi “naridir” soʻzi arab yozuvida birgalikda kelgan qofiyaviy soʻzlar bilan bir shaklda yoziladi. Shu sababga koʻra tuyuq shakllanadi.

Doston leksikasida qarama-qarshi (antonim) soʻzlar ishlatilib, sheʼriy misralarning maʼnodorligini oshirishda oʻziga xos rol oʻynagan.

Antonim soʻzlarning turli shakllari turli vaziyatlarda sheʼr misralariga singdirib yuborilgan:

Oshiqlarga harchand boʻlsam gunohkor,

**Yomonlik** qilganga **yaxshilik** darkor,

Oʻtgil gunohimni, oʻldirma zinhor,

Kel, oʻgʻlim, sen meni ozod aylagil! (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 138-bet).

Tohir deyar, oshnolarim yot boʻldi,

**Doʻstlar gʻamgin** boʻldi, **dushman shod** boʻldi,

Kimsa bilmas, jigar bagʻrim mot boʻldi,

Davom xizmatida turo bilmadim. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 97-bet).

Antonimlarning okkazional shakllari ham uchraydi:

Siynamda hijronning oʻti, kelmisham men bu mahal,

Sevdigim turgʻil eringdin, qilmagʻil hargiz xayol,

**Podshosan** men **gado**, oshiqligim roʻzi azal,

Gasht etib olam-jahonni topmadim senday goʻzal,

Ola koʻzli, shavqi soʻzli, toʻti guftorim, uygʻon! (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 100-bet).

Doston sheʼriyati sintaktik tomondan ham mukammal ishlangan. Ularning tuzilishida soʻzlarning inversiya, takror, ritorik savol, savol-javob turlaridan foydalanilgan. Shu sababli dostonda oʻynoqi, ohangdor sheʼriy parchalar koʻplab uchraydi; ayniqsa sheʼrlarning muxammas shaklida ichki qofiyaga alohida eʼtibor

qaratilgan:

Nozli **yor**, ey **guluzor**, cho‘x **beqaror** etding mani,  
Yig‘latib **zor**, elga oshkor telba **kor** etding meni,  
Almudom husningga **zor**, **devonavor** etding meni,  
Beshumor darda **giriftor**, xaqqa **zor** etding meni,  
Zarnigor, ey **shohimor**, sen **sharmisor** etding mani.

(“Oshiqnoma”, 5-kitob, 28-bet).

Dostondagi she‘riy parchalarda she‘rdagi ohangdorlikni kuchaytirish maqsadida radiflardan foydalanish muhim o‘rin tutadi. Yuqoridagi parchada ham ushbu xususiyat ko‘zga tashlanadi.

Dostonda muxammas, g‘azal kabi janrlar ancha ko‘p bo‘lib, ular mukammal ishlangan. Yuqoridagi parchadagi ishlatilgan ichki qofiya va radif shakli boshqa muxammaslarda ham tez-tez ko‘zga tashlanadi. Bu holat she‘rning ta’sirchanligini yanada yuksaltiradi:

Zuhrajonimg‘a xabar ber, qaddiming nun bo‘lg‘onin,  
Ayriliq aqlim olib, devona majnun bo‘lg‘anin,  
Chashmi giryon, bag‘ri biryon, ko‘ngli g‘amgin bo‘lg‘anin,  
Kom talxu, boda zahru ashki rangin bo‘lg‘anin,  
La‘li rangin, labzi shirin, sho‘xi mastonimg‘a ayt.

(“Oshiqnoma”, 5-kitob, 49-bet).

Doston tarkibidagi savol-javob shaklidagi dialog she‘rlarda obrazlar qalbidagi ehtiroslar ta’sirchan ifodalar orqali namoyon bo‘ladi:

**Mohimjon:**

Yo mujarramusen, katxudomisen?  
Yo bir pari uchun jon fidomusen?  
Yo qalandarmusen, yo gadomusen?  
So‘zla, jonim qaysi bog‘ning gulisan?

**Tohir:**

Bir g‘aribam, madadkorim yo‘q mening,  
Qavmu-qardosh, xovandorim yo‘q mening,  
Sendan o‘zga sevar yorim yo‘q mening,

Hijron kuning dumon etib kelarman.

**Mohimjon:**

Ne chamandan esib kelgan shamolsan?

Qaysi oydan ayro tushgan halolsan?

Ne shakardin tomgʻan obu-zilolsan?

Soʻzla, jonim qaysi bogʻning gulisan?

**Tohir:**

Oʻzim Tohir, mening otamdir Bohir,

Ogʻir bozirgonam, koʻpdur javohir,

Pinhon sirim sanga aylayin zohir,

Ul mulkimni vayron etib kelarman. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 42-bet).

Doston tarkibidagi sheʼrlarning tili xalqona ohangga ega boʻlsa-da, unda mumtoz adabiyotning taʼsiri ham oz emas. Yuqoridagi muxammasdan olingan parchada. A.Navoiy gʻazallarining taʼsiri juda ravshan koʻrinadi. Keyingi dialog sheʼrda ham mumtoz adabiyotga xos tasvir usuli koʻzga tashlanadi. Dostonda shunday gʻazallar berilganki, ulardagi oʻynoqilik, ravonlik, ohangdorlik eshituvchini hayratga soladi. Dostonda Tohir bilan Zuhraning bogʻda pinhona uchrashuvi epizodini xonga shama qilish uchun aytilgan “gul” radifli gʻazal bunga misol boʻla oladi. Unda gul soʻzi oʻn ikki baytda 49 marta bulbul soʻzi 9 marta takrorlanib, shunday bir tovush uygʻunligi hosil qilganki, gʻazalning ohangdorligi oshib, oʻynoqi misralar roʻyobga chiqqan. Oʻz navbatida ushbu sheʼrni aytuvchi kishining soʻz oʻyinlari orqali qilgan shamalari chiroyli tarzda namoyon boʻlgan:

Gul bilan bulbul kelib, gul ichra sayron qildi gul,

Gul tomoshosin koʻrib, oʻz bargini qon qildi gul.

Gul bu kunlar holina, gullarni sayron ayladi,  
Rashkidin rahm aylayib, azmi biyobon qildi gul.

Men dedim: «Yo rab, ne gulsan, gulni hayron aylagan»,  
Gul kulib, soʻzlab oʻzi, ham bizni xandon qildi gul.

Gul gula sarvi xiromon, gul bila aylab xirom,  
Sarvni aylab adam, gulni xiromon qildi gul.

Bulbula gullar munosib, gul munosib bulbula,

Bulbula o‘tlar solib, husnin guliston qildi gul.

Gul yuziga gulni o‘xshatsam, gulga ne ayb erur,  
O‘zining ziynatini, er birla yakson qildi gul.

Gul gula gulgasht etar, gullar gula hayron o‘lub,  
Shabnam ermas, gul aro vasl ichra giryon qildi gul.

Gul gula bas aylasa, gullar munosibdur gula,  
Gulga bulbul mast etar, olamni maston qildi gul.

Gul shitobi suratindin, muztarib, gul har taraf,  
Gul o‘tirdan vahm etib, o‘rninda larzon qildi gul.

Sunbulidur yoki sarg‘armish yuzi, gul tobidin,  
Bulbula yolg‘iz yo‘l ochib, zulfin zarafshon qildi gul.

Ismi gul, ruxsori gul, desam xatodir ul gula,  
Voh, ajab donolari vasfinda nodon qildi gul.

Bog‘boni bo‘lub bu kun, bog‘ ichra ko‘rdum bir bulbul,  
Bulbulning surin ko‘rib, choki giribon qildi gul.

(“Oshiqnoma”, 5-kitob, 18-bet).

Bu toifadagi Muxammas, g‘azal, tuyuq kabi janrlar dostonni ko‘chirgan qissaxonlar va kotiblarning mumtoz adabiyotni mukammal bilgan ijodkor kishilar ekanligidan darak beradi. Ikkinchi bobda ko‘rib chiqilgan muammolar asosida quyidagi qisqa xulosalarga kelish mumkin.

1.“Tohir va Zuhra” dostonining badiiyati mukammal ishlangan bo‘lib, uning Nasriy qismi bilan she‘riy qismi o‘zaro mutanosib holda berilgan. Doston asosan yozma nusxalar orqali qissaxonlar va xalfalar repertuarida yashab kelganligi uchun uning leksikasi mumtoz adabiyotga xos elementlarga boy. Dostonda forsiy, arabiy o‘zlashmalar ancha faol ishlatilgan. Biroq, asar o‘zining xalqona uslubini saqlab qolgan.

2.Dostonda badiiy tasvir vositalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Unda o‘xshatish san’atining original namunalari uchraydi. Ular qo‘shimchalar orqali yasaliish bilan birga kabi, go‘yo, mengzar, misoli, misli tarzida ko‘makchi so‘zlar vositasida ham ro‘yobga chiqadi. Sifatlashlar obrazalar portretini berishda, peyzaj tasvirini gavalantirishda ko‘plab qo‘llaniladi.

3. Mubolagʻalar dostonda alohida oʻrin tutadi. Bu vosita asarning nasrida ham nazmida ham faol qoʻllaniladi. Ramziy ifodalar va metaforalar doston matnida Xorazm vohasiga xos qiyoslash obʻekti orqali tez-tez koʻzga tashlanib turadi. Ayniqsa ramzlar dostonda mahalliy koloritni gavdalantirishda muhim ahamiyat qozonadi.

4. Shuningdek, doston tilning leksik, fonetik va sintaktik resurslaridan oqilona foydalanilgan. Omonim soʻzlar vositasida goʻzal tuyuqlar yaratilgan. Antonim soʻzlar orqali tazod sanʼati roʻyobga chiqqan. Tovush uygʻunligiga eʼtibor qaratish orqali sheʼr bandlarida goʻzal alliteratsiya yuzaga keltirilgan. Soʻz takrori, inversiya, ritorik soʻroqlar vositasida ajoyib sheʼriy misralar yaratilgan.

## Umumiy xulosalar

1. “Tohir va Zuhra” dostoni o‘zbek romanik eposining mashhur asarlaridan biridir. Bu epik respublikaning barcha mintaqalarida keng yoyilgan bo‘lib, uning og‘zaki va yozma variantlari yigirmaga yaqindir. Ushbu variantlar bir sujet asosiga qurilgan ikki versiyani tashkil etadi. Ularning og‘zaki versiyasi xorazmdan boshqa hududlarda tarqalgan. Xorazmda asosan yozma nusxalar ommalashgan. Bu yozma nusxalar sujeti Mullanas dostoniga juda o‘xshash bo‘lsa-da, muayyan farqlarga ega.
2. Dostonda ko‘plab obrazlar faoliyat ko‘rsatadi. Asosiy obrazlar sifatida Tohir-Zuhra-Mohim uchligi asarda asosiy o‘rinni egallaydi. Bu uchlikda islom dinining ko‘p xotinlilik bilan bog‘liq ta’siri yo‘q. Chunki, Mohim Tohir uchun sevgiligina emas, balki homiy sifatida ham faoliyat ko‘rsatadi. U Zuhrani rashk ham etmaydi, balki uning baxtli bo‘lishida ham asosiy rolni o‘ynaydi. Tohir va Zuhrani Boboxon zulmidan qutqaradi.
3. Dostonda ikkita podsho obrazi ishtirok etadi. Bularning birinchisi Odilshoh bo‘lib, Mohimning otasidir. Uning ismi jismiga monand. Chunki u hamisha odillik, adolatlilik uchun kurashadi. Ikkinchi podsho Boboxon bo‘lib, u Zuhraning otasidir. Boboxon podsho va’dasidan tonuvchi, kibru havoga berilgan tuturiqsiz kishidir. U Tohir va Zuhraning fojeali o‘limga mahkum bo‘lishida asosiy sababchi sifatida namoyon bo‘ladi. Boboxon podsho Odilshoh tomonidan mag‘lub etilganidan keyin Tohir va Zuhradan kechirim so‘rashdan ham uyalmaydi.
4. Dostonda Boboxondan keyin salbiy obraz sifatida Qorabotir faoliyat ko‘rsatadi. Qorabotir xudbin shaxs. Uning ko‘p jihatlari Boboxon podsho xarakteriga mos keladi. Zuhra unga haqorat so‘zlargacha aytadi, biroq Qorabotir bu gaplarni pisand ham qilmaydi. Uning fikricha, zo‘ravonlik bilan istagan bir ishni bitkazish mumkin. Shu jumladan sevgi-muhabbatni ham o‘zgartirish, istagan yoqqa burish mumkin. U hatto o‘lish oldidan ham o‘zini Tohir bilan Zuhra qabri o‘rtasiga qo‘yishni vasiyat qiladi. Ammo u hech bir maqsadiga erisha olmaydi.
5. “Tohir va Zuhra” dostonida ko‘plab ayol-qizlar obrazi berilgan. Tohir, Zuhra, Mohimjonlarning onalari va enagalari, kanizlar ular bilan birgalikda harakat qilishadi. Ular ayrimlari, ayniqsa onalar asarda ozgina ko‘rinib ketsalar-da kishi

qalbida o'chmas iz qoldirishadi. Asarda shunday kanizlar borki, ular Zuhra va Mohimlar uchun erkaklarning qo'lidan kelmaydigan ishlarni amalga oshirishadi. Biroq, ularning barchasi feodalizm jamiyatining shafqatsiz qonun-qoidalari asosida jafo tortadilar.

6. Doston badiiyati alohida e'tiborni tortadi. Ayniqsa uning matnida o'xshatish va sifatlash vositalari yorqinroq ko'zga tashlanadi. Asar tilida o'xshatishlarning qo'shimchalar va ko'makchi so'zlar yordamida ro'yobga chiqqan ko'plab ko'rinishlari mavjud. Doston qo'lyozma tarzda qissaxonlar, xalfalar tomonidan ijro qilinib kelganligi sababli unda ko'makchi so'zlarning sinonimlari ancha ko'p ishlatilgan. Shuningdek, sifatlash vositalarida o'zlashma so'zlar ancha ko'p. Forsiy, arabiy leksika yordamida ularning go'zal namunalari yaratilgan.

7. Doston tilini badiiy-estetik tomondan bezovchi yana bir vosita ramzlardir. Ramzlar negizida ham o'xshatish tamoyili yotsa-da, unda ichki mantiqiy solishtirish asosiy o'rinni egallaydi. Ramzlar yaratilish tamoyiliga ko'ra har bir mintaqaga xos ob'ektga mos tanlanadi. Shu sababli dostonda Xorazm vohasiga xos turli original ramzlar mavjud. Doston romanik xarakterda bo'lganligi sababli ramzlarning tanlanishi ko'proq oshiq va ma'shuqalarning xarakter-xususiyatlarini gavdalantirishga mo'ljallangan.

8. Xalq ijodiyotini mubolag'alarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Biz tahlil qilayotgan doston matnida ham ushbu an'anaviy ifoda vositasidan samarali foydalanilgan. Dostonning nasriy qismida mubolag'alarga e'tibor juda kuchli bo'lib, tasvirning to'laqonli chiqishida muhim rol o'ynagan. Nasriy matnlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularda mubolag'alardan tashqari voqealarni turli usullarda bayon etish an'anasi mavjud. Bayon uslubi shunday tuzilganki, unda mumtoz adabiyotga xos maktub shaklidagi monologlar ham uchraydi.

9. Dostonning nasriy qismining salmog'i nazmnikidan ustunlik qiladi. Nasr tarkibida voqealarni harakatga keltiruvchi an'anaviy formulalarga muhim e'tibor qaratilgan. Nasrdan nazmga, voqeadan voqeaga o'tishda medial formulalarga murojaat qilish asar voqealarining to'laqonli chiqishiga samarali ta'sir eta olgan. Shu bilan birga dostonda ishlatilgan hoshiyaviy formulalar ham o'ziga xoslik kasb etsalar-da, an'anaviylik doirasida amalga oshirilgan. Asar muqaddimasi og'zaki

dostonlardan farq qiladi. Biroq, yakun “murod va maqsadiga etish” bilan nihoyalangani.

10. “Tohir va Zuhra” dostonida tilning fonetik, leksik va sintaktik resurslariga mohirlik bilan murojaat etilgan. Uning matnida to‘laligicha alliteratsiyaga asoslangan bandlar uchraydi. Bu usul she’rlarning ohangdorligi va musiqiylikiga ijobiy ta’sir o‘tkazgan. Doston leksikasi juda boy, unda forsiy, arabiy o‘zlashmalar ko‘plab uchraydi. Natijada omonim so‘zlar vositasida ko‘pgina tuyuqlar ro‘yobga chiqarilgan. O‘z navbatida antonim so‘zlardan foydalanilgan holda tazod san’atiga ham murojaat etilgan. Shuningdek. Asar matnida ko‘plab sinonimik ifodalarga tayanilgan. Hatto bitta so‘zning o‘nga yaqin sinonimi ishlatilgan.

11. Doston matnida sintaktik vositalar yordamida ro‘yobga chiqqan ta’sirchan she’rlar juda ko‘pdir. Ayrim bandlar to‘laligicha ritorik so‘roqlar asosiga qurilgan. So‘z takrori asosida polifonik ifodalar, ohangdor misralar yaratilgan. Bittagina “gul” radifli g‘azalda so‘z takroriga tayanilib, “gul” va “bulbul so‘zlarining turli o‘rinlarda keltirilgan o‘ttizga yaqin takrori uchraydiki, natijada she’rning badiiy-estetik ta’sirchanligi yuksak darajaga ko‘tarilgan.

Binobarin, “Tohir va Zuhra” dostonining biz tahlil qilgan matni g‘oyaviy – badiiy jihatdan barcha talablarga javob bera oladi. Uning ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati hozirda ham yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat qozonadi.

## **Adabiyotlar ro'yxati:**

### **I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 29-avgust, 1997-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. 29-avgust 1997-yil.

### **II. O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari,**

#### **Vazirlar Mahkamasining qarorlari.**

1. "Magistratura to'g'risida"gi nizomni tasdiqlash haqida. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining 2007-yil, 29-dekabrda 269-sonli buyrug'i bilan.
2. Ta'lim sohalari bo'yicha "Eng yaxshi bitiruv malakaviy ishi magistrlik dissertatsiyasi" Respublika tanlovi to'g'risidagi Nizomiy tasdiqlash to'g'risida.
3. Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining 2008- yil, 18-aprelda 104-sonli buyrug'iga 1-ilova.
4. "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimida magistratura faoliyatini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 10-sentabrda 190-sonli qarori.

### **III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. –T.: "O'zbekiston", 2008. –B. 29-30.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura-Toshkent: O'zbekiston, 1993. –B 174.

### **IV. Asosiy adabiyotlar**

1. Jirmunskiy V.M. Zarifov X.T. Uzbekskiy narodniy geroicheskiy epos. –M. : GIXL, 1947. –S. 294-300.
2. Nishonboeva T. «Tohir va Zuhra» dostonining variantlari haqida // O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 1958. -3-son. –B. 59-63;
3. Nishonboeva T. "Tohir va Zuhra" dostonining yangi topilgan varianti haqida // O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 1963. -2-son. –B.72-73;
4. Nishonboyeva T. Poema Sayyadi "Tohir va Zuhra" (nauchno –kriticheskiy

tekst): AKD. –Toshkent, 1965.

5.Madayev O. “Tohir va Zuhra” dostonida tasvir vositalarining qo‘llanilishiga doir // O‘zbek filologiyasining aktual masalalari. ToshDU ilmiy asarlari. 532-son. Toshkent, 1972. –B. 104-107;

6.Madayev O. “Tohir va Zuhra” hamda “Qo‘zi Ko‘rpesh va Bayan suluv” dostonlarining struktural tahliliga doir // Ijodiy hamkorlik va adabiy taraqqiyot. – Toshkent, 1984. –B. 55-65.

7.Oqbo‘taev H. Xalq kitobi “Tohir va Zuhra” haqida // Tanqid va adabiyotshunoslik masalalari. – Toshkent, 1973;

8.Oqbo‘taev H. Xalq kitobi “Tohir va Zuhra”ning poetik tuzilishi // O‘zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 1973. -4-son. –B.65-66;

9.Oqbo‘taev H. Xalq kitobi “Tohir va Zuhra”ning variantlari // Toshkent davlat pedagogika instituti ilmiy asarlari. –Toshkent, 1980.

10.Jo‘raev M. Mullanasning “Zuhra-Tohir” dostoni // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2010. -1son. –B.41-48;

11.Jo‘raev M. Epik tafakkur mahsuli // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – Toshkent, 2010, 26 mart;

12.Jo‘raev M. Genezis i xudojestvennaya evolutsiya dastana “Zuxra i Taxir” // Mollanepes i jizn turkmen XIX veka. Materiali mejdunarodnoy nauchnoy konferentsii. 8-10 aprelya 2010 g. –Mari, 2010. –S. 294-295;

13.Jo‘raev M., Mamatqulova F. Xalq qalbidan joy olgan doston // “Tohir va Zuhra”. –T.: “muharrir”, 2011. –B. 3-25.

14.Ro‘zimboev S. Xorazm dostonlarining spetsifikasi, tipologiyasi va poetikasi. (Dokt. diss.) -T.: 1990. –B. 70; Qurbonova S. “Tohir va Zuhra” dostonining o‘zbek variantlari // Xorazm folklori. IV kitobi. –Urganch, 2002. –B. 82-84.

15.Oshiqnoma, 5-kitob, Urganch, “Xorazm”, 2011. –B.270.

16.Jirmunskiy V.M., Zarifov X.T. Uzbekskiy narodiy geroicheskiy epos. –M.: GIXL, 1947. –B.294.

17.Karavan chudes, T.: Izd. «Literaturi i iskusstva». -T.: 1981, 32-42-betlar.

18.Sarimsoqov B. Epik janrlar diffuziyasi // O‘zbek folklorining epik janrlari, T.: Fan, 1981, 101-bet.

19. Roʻzimboev S. Xorazm dostonlari, T.: Fan, 1985, 92-bet.

20. Oshiqnoma, 4-kitob, Urganch, “Xorazm”, 2009. 339-353-betlar.

#### **V. Q`shimcha adabiyotlar**

1. Joʻraev M., Mamatqulova F. Xalq qalbidan joy olgan doston // “Tohir va Zuhra”. –T.: “Muharrir”, 2011. –B.4.

2. Mamatqulova F. “Tohir va Zuhra” dostonida sandiq timsoli // Oʻzbek tili va adabiyoti, 2005, №4. B.75 (74-76)

3. Tohir va Zuhra. –T.: “Muharrir”, 2011. –B.7.

4. Jirmunskiy V.M., Zarifov X.T. Uzbekskiy narodniy geroicheskiy epos. –M.: GIXL, 1947;

5. Mirzaev T. Epos i skazitel. –T.: Fan, 2008;

6. Saidov M. Oʻzbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat. –T.: Fan, 1969;

7. Yormatov I.T. Oʻzbek xalq qahramonlik eposi badiiyati. –T.: Fan, 1974;

8. Sarimsoqov B.I. Badiiylik asoslari va mezonlari. –T.: 2004;

9. Eshonqul J. Epik tafakkur tadriji. –T.: Fan, 2006;

10. Mirzayeva S. Oʻzbek xalq romanik dostonlari poetikasi. –T.: Fan, 2004;

Roʻzimboyev S. Xorazm dostonlari. –T.: Fan, 1985;

11. Roʻzimboyev S. “Oshiq” turkumi dostonlarining gʻoyaviy-badiiy xususiyatlari. –T.: TDPI nashriyoti, 1987;

12. Sobirova N. Xorazm “Oshiq” turkumi dostonlari. –T.: “Minhoj”, 2005.

**Magistrlik dissertatsiyasi annotatsiyasi**

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, tadqiqot ob’ekti va predmeti, maqsad va vazifalari, ishning asosiy masalalari va farazlari, mavzuning o‘rganilishi, metodologiyasi va metodlari, ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ilmiy yangiligi, natijalarning e’lon qilinishi va tuzilishi haqida so‘z yuritiladi.

**I BOB. “Tohir va Zuhra” dostonining variantlari va nasrining o‘ziga xos xususiyatlari”** deb nomlangan. Birinchi faslda dostonning mamlakatimizning ikki xududida ommalashgan 14 ta og‘zaki va yozma nusxalarda tarqalgan variantlariga tavsif beriladi va asosiy obekt tanlanadi. Ikkinchi faslda doston nasrining o‘ziga xos xususiyatlari yoritiladi. Unda qo‘lyozma nusxalaridagi badiiy nutqning alohidalik xususiyatlari, forsiy-arabiy o‘zlashmalarning ko‘pligi va uning sabablari ochib beriladi.

**II BOB “Asardagi obrazlar tavsifi”** tarzida belgilangan bo‘lib, birinchi faslda asardagi asosiy obrazlarga tavsif beriladi. Bu erda Tohir, Zuhra, Mohim kabi obrazlarning asosiy mohiyati tahlil etiladi. Shu jarayonda o‘sha davrdagi ijtimoiy hayotning turli murakkab tomonlari va ularning epik qahramonlar taqdiriga ta’siri masalasi ochib beriladi.

Keyingi faslda dostondagi boshqa obrazlar, xususan podsholar, epik qahramonlarning ota-onalari va boshqa personajlar faoliyatiga xorakteristika beriladi.

**III BOB “Doston badiiyatining ayrim masalalari”** ga bag‘ishlangan. Ilk faslda asardagi o‘xshatishlarning rang-barang qirralari tahlilga tortiladi. Uning turlari, ob’ektlari ochib beriladi. Keyingi faslda asardagi mubolag‘alarning badiiyatdagi roli masalasi tadqiq etiladi.

Dissertatsiyaning oxirida umumiy xulosalar berilgan bo'lib, unda ishning boblarda qo'yilgan muammolar umumlashtiriladi.

**Ilmiy rabar:**

**f.f.n. Sariyev S.M.**

**Taqrizchi:**

**Xudoyorova N.**

**Xudoyorova Nodiraning “Tohir va Zuhra» dostonining g‘oyaviy badiiy  
xususiyatlari” mavzuidagi magistrlik dissertatsiyasiga tashqi**

**TAQRIZ**

“Tohir va Zuhra» dostoni o‘zbek xalqi orasida qadimdan mashhur bo‘lib kelayotgan asarlardan biridir. Bu asar mamlakatimiz hududida ikki versiyada tarqalgan bo‘lib, ularning variantlari og‘zaki va yozma nusxalarda ommalashgandir. Doston hajman yirik asarlardan biri bo‘lib, undagi obrazlar va voqealar ko‘lami nihoyatda kengdir. Dostonni ikki versiya sifatida qiyosiy o‘rganish, sujetdagi alohidaliklarni aniqlash muhim ilmiy –nazariy ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan olib qaraganda Xudoyorova Nodiraning “Tohir va Zuhra» dostonining g‘oyaviy badiiy xususiyatlari” mavzuidagi magistrlik dissertatsiyasi o‘ziga xos dolzarblilik kasb etadi.

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, tadqiqot ob’ekti va predmeti, maqsad va vazifalari, ishning asosiy masalalari va farazlari, mavzuning o‘rganilishi, metodologiyasi va metodlari, ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ilmiy yangiligi, natijalarning e‘lon qilinishi va tuzilishi haqida so‘z yuritiladi.

**I BOB. “Tohir va Zuhra” dostonining variantlari va nasrining o‘ziga xos xususiyatlari”** deb nomlangan. Birinchi faslda dostonning mamlakatimizning ikki xududida ommalashgan 14 ta og‘zaki va yozma nusxalarda tarqalgan variantlariga tavsif beriladi va ularning orasidan asosiy ob’ekt sifatida Urganchda nashr qilingan variant tanlab olinadi. Ikkinchi faslda doston nasrining o‘ziga xos xususiyatlari yoritiladi. Unda qo‘lyozma nusxalaridagi badiiy nutqning alohidalik xususiyatlari, forsiy-arabiy o‘zlashmalarning ko‘pligi va uning sabablari ochib beriladi. Shu jarayonda yozma nusxalardagi badiiy nutqning yangi qirralari yoritiladi.

**II BOB “Asardagi obrazlar tavsifi”** tarzida belgilangan bo‘lib, birinchi faslda asardagi asosiy obrazlarga tavsif beriladi. Bu erda Tohir, Zuhra, Mohim kabi obrazlarning asosiy mohiyati tahlil etiladi. Shu jarayonda o‘sha davrdagi ijtimoiy hayotning turli murakkab tomonlari va ularning epik qahramonlar taqdiriga ta’siri masalasi ochib beriladi.

Keyingi faslda dostondagi boshqa obrazlar, xususan podsholar, epik

qahramonlarning ota-onalari va boshqa personajlar faoliyatiga oid voqealar silsilasi ochib beriladi.

**III BOB “Doston badiiyatining ayrim masalalari”** ga bag‘ishlangan. Ilk faslda asardagi o‘xshatishlarning rang-barang qirralari tahlilga tortiladi. Uning turlari, obyektlari ochib beriladi. Keyingi faslda asardagi mubolag‘alarning badiiyatdagi roli masalasi tadqiq etiladi.

Har bir bobning oxirida qisqa xulosalar berilgan bo‘lib ular o‘sha bobdagi qo‘yilgan muammolarni umumlashtiradi.

Dissertatsiyaning oxiridagi umumiy xulosalarda ishning har uchala boblarida qo‘yilgan masalalar umumlashtiriladi.

Umuman olganda, Xudoyorova Nodiraning “Tohir va Zuhra» dostonining g‘oyaviy badiiy xususiyatlari” mavzuidagi ishi magistrlik dissertatsiyalari oldiga qo‘yilgan talablarga to‘la javob beradi.

Dissertatsiyani ochiq himoyaga tavsiya qilaman.

**TATU Urganch filiali “Iqtisodiy,  
ijtimoiy-gumanitar fanlari kafedrası  
o‘qituvchisi**

**N.Matyazova**

**Magistr akademik darajasiga talabgor Xudoyorova Nodira Otanazarovnaning  
“Tohir va Zuhra” dostonining g‘oyaviy badiiy xususiyatlari” mavzusidagi  
dissertatsiyasiga ilmiy rahbar**

**XULOSASI**

Istiqlol sharofati bilan adabiyotimiz tarixini o‘rganishda yangi bosqich boshlandi. Madabiy va adabiy merosimizga munosabat tubdan o‘zgardi. Sho‘rolar davridan farqli ravishda adabiyotimiz tarixini to‘la va xaqqoniy tadqiq etish imkoniga ega bo‘ldik.

Adabiy –ma`naviy tafakkurimizning noyob namunasi bo‘lgan “Tohir va Zuhra” dostonidagi g‘oyaviy badiiy xususiyatlarning adabiyotshunosli nuqtai nazaridan keng va chuqur o‘rganilishi jihatidan Xudoyorova Nodira Otanazarovnaning ushbu dissertatsiyasi bu boradagi muvaffaqiyatli izlanishlar mahsuli deyish mumkin. Dissertatsiyada mavzuning butun mohiyatini aks ettiruvchi jihatlar mavjud bo‘lib, bunda, avvalo ishning faktik materiallarga va yangi ilmiy – nazariy qarashlarga asoslanganligini aytish o‘rinlidir. Dissertatsiya tuzilishi ham unda qo‘yilgan masalalarni izchil va asosli yoritishga qaratilgan. Ishning har uchala bobida yoritilgan masalalar tabiiy ravishda tadqiqot markaziga qo‘yilgan muammoga bevosita va bilvosita bog‘lanadi. Dissertatsiyada har bobga alohida to‘xtalinib tegishli xulosalar bilan yakunlangan. Ushbu tadqiqot ishini yuzaga keltirish davomida dissertant ko‘pgina manbalarni keng o‘rgangan, adabiyotshunos olimlarni ilmiy –nazariy qarashlaridan unumli foydalangan.

“Tohir va Zuhra» dostoni o‘zbek xalqi orasida qadimdan mashhur bo‘lib kelayotgan asarlardan biridir. Bu asar mamlakatimiz hududida ikki versiyada tarqalgan bo‘lib, ularning variantlari og‘zaki va yozma nusxalarda ommalashgandir. Doston hajman yirik asarlardan biri bo‘lib, undagi obrazlar va voqealar ko‘lami nihoyatda kengdir. Dostonni ikki versiya sifatida qiyosiy o‘rganish, sujetdagi alohidaliklarni aniqlash muhim ilmiy –nazariy ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan olib qaraganda Xudoyorova Nodiraning “Tohir va Zuhra» dostonining g‘oyaviy badiiy xususiyatlari” mavzuidagi magistrlik dissertatsiyasi o‘ziga xos dolzarblilik kasb etadi.

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, tadqiqot ob’ekti va

predmeti, maqsad va vazifalari, ishning asosiy masalalari va farazlari, mavzuning o'rganilishi, metodologiyasi va metodlari, ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ilmiy yangiligi, natijalarning e'lon qilinishi va tuzilishi haqida so'z yuritiladi.

**I BOB. “Tohir va Zuhra” dostonining variantlari va nasrining o'ziga xos xususiyatlari**” deb nomlangan. Birinchi faslda dostonning mamlakatimizning ikki xududida ommalashgan 14 ta og'zaki va yozma nusxalarda tarqalgan variantlariga tavsif beriladi va ularning orasidan asosiy ob'ekt sifatida Urganchda nashr qilingan variant tanlab olinadi. Ikkinchi faslda doston nasrining o'ziga xos xususiyatlari yoritiladi. Unda qo'lyozma nusxalaridagi badiiy nutqning alohidalik xususiyatlari, forsiy-arabiy o'zlashmalarning ko'pligi va uning sabablari ochib beriladi. Shu jarayonda yozma nusxalardagi badiiy nutqning yangi qirralari yoritiladi.

**II BOB “Asardagi obrazlar tavsifi”** tarzida belgilangan bo'lib, birinchi faslda asardagi asosiy obrazlarga tavsif beriladi. Bu erda Tohir, Zuhra, Mohim kabi obrazlarning asosiy mohiyati tahlil etiladi. Shu jarayonda o'sha davrdagi ijtimoiy hayotning turli murakkab tomonlari va ularning epik qahramonlar taqdiriga ta'siri masalasi ochib beriladi.

**III BOB “Doston badiiyatining ayrim masalalari”** ga bag'ishlangan. Ilk faslda asardagi o'xshatishlarning rang-barang qirralari tahlilga tortiladi. Uning turlari, ob'ektlari ochib beriladi. Keyingi faslda asardagi mubolag'alarning badiiyatdagi roli masalasi tadqiq etiladi.

Xudoyorova Nodira Otanazarovnaning “Tohir va Zuhra» dostonining g'oyaviy badiiy xususiyatlari” mavzuidagi ishi magistrlik dissertatsiyalari oldiga qo'yilgan talablarga to'la javob beradi. Ushbu dissertatsiyani tugallangan tadqiqot ishi sifatida himoyaga tavsiya etaman.

**Urganch davlat universiteti**

**O'zbek adabiyoti kafedra mudiri**

**filologiya fanlari nomzodi**

**Sariyev S.M.**

**Al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universiteti Adabiyotshunoslik  
mutaxassisligi 2-bosqich magistranti Xudoyorova Nodiraning “Tohir va  
Zuhra” dostonining g‘oyaviy badiiy xususiyatlari” mavzuidagi magistrlik  
dissertatsiyasiga**

**TAQRIZ**

Xalq og‘zaki ijodimizning durdonalaridan bo‘lgan “Tohir va Zuhra» dostoni o‘zbek xalqi orasida qadimdan mashhur bo‘lib kelayotgan asarlardan biridir. Bu asar mamlakatimiz hududida ikki versiyada tarqalgan bo‘lib, ularning variantlari og‘zaki va yozma nusxalarda ommalashgandir. Doston hajman yirik asarlardan biri bo‘lib, undagi obrazlar va voqealar ko‘lami nihoyatda kengdir. Dostonni ikki versiya sifatida qiyosiy o‘rganish, sujetdagi alohidaliklarni aniqlash muhim ilmiy – nazariy ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan olib qaraganda Xudoyorova Nodiraning “Tohir va Zuhra» dostonining g‘oyaviy badiiy xususiyatlari” mavzuidagi magistrlik dissertatsiyasi o‘ziga xos dolzarblik kasb etadi. Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, tadqiqot ob’ekti va predmeti, maqsad va vazifalari, ishning asosiy masalalari va farazlari, mavzuning o‘rganilishi, metodologiyasi va metodlari, ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ilmiy yangiligi, natijalarning e‘lon qilinishi va tuzilishi haqida so‘z yuritiladi.

**I BOB. “Tohir va Zuhra” dostonining variantlari va nasrining o‘ziga xos xususiyatlari”** deb nomlangan. Birinchi faslda dostonning mamlakatimizning ikki xududida ommalashgan 14 ta og‘zaki va yozma nusxalarda tarqalgan variantlariga tavsif beriladi va ularning orasidan asosiy ob’ekt sifatida Urganchda nashr qilingan variant tanlab olinadi. Ikkinchi faslda doston nasrining o‘ziga xos xususiyatlari yoritiladi. Unda qo‘lyozma nusxalaridagi badiiy nutqning alohidalik xususiyatlari, forsiy-arabiy o‘zlashmalarning ko‘pligi va uning sabablari ochib beriladi. Shu jarayonda yozma nusxalardagi badiiy nutqning yangi qirralari yoritiladi.

**II BOB. “Asardagi obrazlar tavsifi”** tarzida belgilangan bo‘lib, birinchi faslda asardagi asosiy obrazlarga tavsif beriladi. Bu erda Tohir, Zuhra, Mohim kabi obrazlarning asosiy mohiyati tahlil etiladi. Shu jarayonda o‘sha davrdagi ijtimoiy hayotning turli murakkab tomonlari va ularning epik qahramonlar taqdiriga ta’siri masalasi ochib beriladi.

Keyingi faslda dostondagi boshqa obrazlar, xususan podsholar, epik qahramonlarning ota-onalari va boshqa personajlar faoliyatiga oid voqealar silsilasi ochib beriladi.

**III BOB. “Doston badiiyatining ayrim masalalari”** ga bag‘ishlangan. Ilk faslda asardagi o‘xshatishlarning rang-barang qirralari tahlilga tortiladi. Uning turlari, ob‘ektlari ochib beriladi. Keyingi faslda asardagi mubolag‘alarning badiiyatdagi roli masalasi tadqiq etiladi.

Har bir bobning oxirida qisqa xulosalar berilgan bo‘lib ular o‘sha bobdagi qo‘yilgan muammolarni umumlashtiradi.

Dissertatsiyaning oxiridagi umumiy xulosalarda ishning har uchala boblarida qo‘yilgan masalalar umumlashtiriladi.

Dissertatsiyada qator yutuqlar bilan birga ayrim kamchiliklar ham mavjud. Dissertatsiyaning ba`zi betlarida imlo xatolariga, ishda bayonchilikga yo‘l qo‘yilgan jumlar ham mavjud. Lekin bu kamchiliklar ishning ilmiy qimmatiga jiddiy putur yetkazmaydi.

Umuman olganda Xudoyorova Nodiraning “Tohir va Zuhra» dostonining g‘oyaviy badiiy xususiyatlari” mavzuidagi ishi magistrlik dissertatsiyalari oldiga qo‘yilgan talablarga to‘la javob beradi.

Dissertatsiyani ochiq himoyaga tavsiya qilaman.

**Taqrizchi:**

**f.f.n. dots. G.Eshchanova**